

2024-yil 4-son



TURON SCIENCES

ILMIY JURNAL

TURON
UNIVERSITY PRESS

Bosh muharrir:

Yoziyev Lutfullo Habibullayevich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Xalilova Dilbar Jalilovna

Mas'ul kotib:

Toshtemirov Farhod Shodiyevich

Muharrirlar:

Tilovova Muyassar Yo'ldosh qizi
Nurmurotov Ilhom Bekmurod o'g'li

Texnik muharrir:

Qodirov Mirjalol Tolmasovich
Abdusalomov Behruz O'ktam o'g'li

Manzilimiz:

Qarshi shahri, Nasaf ko'chasi, 1/4-uy

e-mail: turon.science@gmail.com

Tel: +998(75) 220-00-25

**Jurnal 2024-yil 7-martda O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
236670-sonli raqami bilan ro'yxatdan
o'tgan**

Tahrir hay'ati:

Baxriddinova Bashorat
Bobonazarov G'affor
Boysunov Bobir
Eshqorayeva Norxol
Hamrayeva Yorqinoy
Ismoilova Gulhayo
Jumayev Tursunali
Juraqobilova Hamida
Kamolov Luqmon
Mo'minova Saodat
Nuriddinov Shahobiddin
Nurillayeva Shahlo
Oripova Nodima
Ostonov Akmal
Pardayev Asror
Qayumova Nasiba
Qo'yliyev Bahrom
Qurbonov Pahlavon
Qurbonov Parada
Rahmatullayev Yorqin
Rajabov Qahramon
Raxmonov Faxriddin
Ro'ziyev Baxtiyor
Samatova Shohista
Soatov Asadulloh
To'xtayeva Ra'no
Tojiyeva Gulbahor
Xaitova Yulduz
Yaxshiyeva Zebo
Yoziyev G'olibjon
Yoziyeva Umida
Shaymanova Adiba
Shodmonov Nafas
Shoimqulov Bahodir
Choriyev Sanjar

MUNDARIJA

BIOLOGIYA

Arabova N., Buriyeva Kh. Antibacterial activity of extracts from species of the mint family.....	3
---------------------------------------------------------------------------------------------------------	---

FILOLOGIYA

Shodmonov N. Alisher navoiy ijodida odamiyot talqinlari.....	6
Baxtiyorova M. Onimlarning leksik ma’nosi bilan bog’liq muammolar.....	18
Atamurodova F. The formative history of the novel.....	24
Amirqulova N. Frazeologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	27
Elchayev Z. Ingliz va o’zbek tilidagi xulq-atvor fe’llari tarjimasida adekvatlik.....	30
Usmonova M. Lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida rivojlanishi va shakllanishi.....	34
Raxmonova G. Tilshunoslikda so’z birikmasi nazariyasi.....	38
Ko’charova F. Ingliz va o’zbek tilidagi grammatik bo’shliqlar va ularning qiyosiy tahlili ...	44
Xushmanova Sh. Verbalization of the concept of greeting in english literature.....	49
Хужахонова М. Классификация русских имён прилагательных по семантике.....	52

PEGAGOGIKA

Ximmataliyev D. Oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak menejerlarni tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	59
Safarova M. Innovatsion ta’lim sharoitida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish yo’llari.....	67
Moyliyeva X. Rivojlantiruvchi ta’lim tizimida talabalarni o’zlashtirish mustaqilligini shakllantirish.....	74

PSIXOLOGIYA

Soatov A. Xotira turlari va ularni tadqiq qilish usullari.....	78
Urinova L. Talabalarda shakllangan o’quv motivlari va diqqat sifatleri bog’liqligining empirik tahlili.....	83
Erkinov M. Pedagogik nizolar turlari va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	89
Normirzayev Y. Simmetriya hissi psixik hodisa sifatida.....	94
Sadatova N. Voyaga yetmaganlardagi agressiv xulq – jinoyatchilik va xuquqbuzurlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omil sifatida.....	97
To’rayev O. Xulq og’ishini oldini olish bo’yicha psixoprofilaktik tadbirlarni tashkil etishning o’ziga xosligi.....	103

TARIX

- Suyarov N.** O'zbekistonda "Paxta ishi" qatag'oni kelib chiqishining tarixiy asoslari (Qashqadaryo viloyati ba'zi misollari orqali)..... **107**
- Xo'jayorov A.** IX – XII asrlarda nasaf vohasida yozma adabiyot namunalarining vujudga kelishi **115**
- Allayev M.** Mamlakatimizda tarixiy obyektlarni asrash va ularda turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari **122**

TIBBIYOT

- Turayev Y.** Odam genomi loyihasi va uning tibbiyotga ta'siri: Odam genomi loyihasining natijalari va ularning tibbiyot sohasidagi qo'llanilishi..... **127**
- Jumayeva D.** Homila rivojlanish nuqsonlarida gestatsiyani II trimesrtida to'xtatish usullari samaradorligini baholash..... **132**

ANTIBACTERIAL ACTIVITY OF EXTRACTS FROM SPECIES OF THE MINT FAMILY

Arabova Nodira Ziyodovna,

Alfraganus University, associate professor

Burieva Khurshida Parda qizi

Turon University, associate professor

Annotation. *This article explores the antibacterial activity of ethanol extracts from medicinal plants belonging to the Lamiaceae family, specifically species found in Uzbekistan. The study focused on plants such as *Ajuga turkestanica*, *Origanum tythanthum*, *Salvia sclarea*, and several species of *Ziziphora* and *Scutellaria*. Using *Bacillus subtilis* as a test culture, the research demonstrated significant antibacterial effects of the plant extracts. The most potent activity was observed in *Scutellaria galericulata*, *Ziziphora pedicellata*, and *Ziziphora tenuior*, with antibacterial activity rates of 33,79%, 28,57%, and 24,30%, respectively. These results highlight the potential use of these species as raw materials for the development of new pharmaceutical products aimed at treating infectious diseases. The presence of biologically active compounds such as essential oils, phenolic compounds, and flavonoids is believed to contribute to the plants' therapeutic effects. The study concludes by recommending further exploration of these plants for use in modern medical practice.*

Key words: *Lamiaceae, Ziziphora, essential oil, antibacterial activity, ethanol extract.*

INTRODUCTION. Today, 40% of the world's pharmaceutical products are based on medicinal plant raw materials, creating a high demand for such materials [1]. In pharmacology and the pharmaceutical industry, biologically active substances extracted from medicinal plants are important as they do not have side effects [2, 3]. One of the promising families of medicinal plants in folk medicine and official pharmacy is the Lamiaceae family, which includes 33 genera and 76 types of potentially medicinal species. Particularly valuable as medicinal raw materials are species such as *Dracocephalum* L., *Leonurus* L., *Ziziphora* L., *Scutellaria* L., *Origanum* L., and *Marrubium* L. [4]. Research has shown that plants from the Lamiaceae family have anti-inflammatory, antispasmodic, sedative, and antibacterial properties [5-7]. It has been found that species from this family contain biologically active substances such as essential oils, glycosides, fatty acids, saponins, and phytoncides [4, 8]. The therapeutic effect of these plants depends on compounds such as camphor, menthol, thymol, eugenol, phenolic compounds, flavonoids, and organic alcohols [9, 10].

RESEARCH OBJECTIVE. The objective of this study is to analyze the antibacterial activity of alcohol extracts from medicinal plants of the mint family (Lamiaceae Lindl.) growing in Uzbekistan, including species like *Ajuga turkestanica*, *Origanum tythanthum*, *Salvia sclarea*, *Scutellaria galericulata*, *Marrubium alternidens*, *Ziziphora pedicellata*, *Ziziphora pamiralaica*, *Ziziphora tenuior*, and *Leonurus turkestanicus*.

MATERIALS AND METHODS. The study was based on a collection of several medicinal plant species from the Lamiaceae family growing in Uzbekistan. Cultivation was carried out on experimental plots using standard methods [4]. Seeds collected from different plant species were sown on 6 m² plots, with a row spacing of 50 cm and plant spacing of 40 cm. During the growing season, mechanical weeding and standard agronomic practices were carried out. The

plant raw materials were dried at a temperature of 20-24°C in a shaded area and then mechanically ground. The material was extracted with 70% ethanol. The antibacterial activity of the extracts was tested by growing the *Bacillus subtilis* test culture on agarized nutrient media at +35°C for 20 days.

RESULTS AND ANALYSIS. The alcohol extracts of the plants studied in this research showed significant antibacterial activity in the *Bacillus subtilis* test culture. Table 1 shows the antibacterial activity of the alcohol extracts of some medicinal plants from the mint family (Lamiaceae Lindl.) in the *Bacillus subtilis* test culture.

Table 1

Antibacterial activity of alcoholic extracts of some medicinal plants of the Lamiaceae Lindl. family in the test culture *Bacillus subtilis* (M±m)

t/r	Plant Species Extracts	Reduction in Growth Diameter of <i>Bacillus subtilis</i> (control/experiment, mm (%))
1.	<i>Ajuga turkestanica</i> (Rgl.) Briq.	11,2/10,8 (3,57)
2.	<i>Origanum tytthanthum</i>	10,5/9,7 (7,62)
3.	<i>Salvia sclarea</i>	14,7/13,1 (10,89)
4.	<i>Scutellaria galericulata</i> ,	14,5/9,6 (33,79)
5.	<i>Marrubium alternidens</i>	15,4/13,8 (10,39)
6.	<i>Ziziphora pedicellata</i>	14,7/10,5 (28,57)
7.	<i>Ziziphora pamiralaica</i>	13,4/10,2 (23,88)
8.	<i>Ziziphora tenuior</i>	12,6/9,5 (24,30)
9.	<i>Leonurus turkestanicus</i>	16,7/15,5 (7,19)

Studies have shown that the antimicrobial and bactericidal activity of plants from the Lamiaceae family is related to compounds such as terpenoids, phenolic compounds, menthol, linalool, pulegone, α - and β -pinene, thymol, cineole, and eugenol [4]. It was found that diterpene acids extracted from *Salvia officinalis* (Lamiaceae) have strong antibacterial activity [11]. The biologically active substances extracted from *Scutellaria galericulata* are effective in the treatment of tumors and liver diseases. In Uzbekistan, more than 100 chemical compounds, including flavonoids, phenylpropanoids, iridoids, and others, have been isolated and identified from these plants [12-14]. The plant *Z. tenuior* contains essential oils (main component — pulegone) with antibacterial and antifungal activity [15-17]. Research also highlights the potential of *Ziziphora L.* species for use in medical practice as an antibacterial and anti-inflammatory agent [18].

CONCLUSION. The analysis of the antibacterial activity of Lamiaceae species in the *Bacillus subtilis* test culture showed the following order of activity: *Scutellaria galericulata* > *Ziziphora pedicellata* > *Ziziphora tenuior* > *Ziziphora pamiralaica* > *Salvia sclarea* > *Marrubium alternidens* > *Origanum tytthanthum* > *Leonurus turkestanicus* > *Ajuga turkestanica* (Rgl.) Briq. Particularly high antibacterial activity was observed in *Scutellaria galericulata* (33,79%), *Ziziphora pedicellata* (28,57%), and *Ziziphora tenuior* (24,30%). Based on the results, these plants are recommended as raw materials for the creation of new generations of effective therapeutic drugs for the treatment of infectious diseases.

REFERENCES

1. Khishova, O.M. Modern Trends in the Creation of Medicines Based on Medicinal Plant Raw Materials // Pharmacy Bulletin. – 2004. – №2(24). – P.21-25.
2. Yunuskhodzhaev, A.N., Komilov, K.M. The Role of the Scientific Heritage of Ibn Sina in the Development of Modern Pharmaceutical Science // Collection of scientific papers of the Pharmaceutical Institute "Integration of Education, Science, and Production in Pharmacy". – Tashkent, 2014. – P.3.
3. Igamberdieva, P.K., Danilova, E.A., Osinskaya, N.S. Study of the Chemical Element Content in Medicinal Plants of Southern Ferghana and the Prospects for Their Use in the Treatment of Diseases // Trace Elements in Medicine. – 2016. – №17(3). – P.48-53.
4. Parshina, G.N., Aitkeldieva, S.A., Mukiyanova, U.S., Beisetbayeva, G.M. Content of Essential Oils and Their Antimicrobial Activity in Medicinal Plants of the Lamiaceae Family Cultivated in the Akmola Region // Proceedings of the National Academy of Sciences of the Republic of Kazakhstan. – 2014. – №2. – P.19-24.
5. Zhukov, I.M. Pharmacognostic Study of White Dead-nettle (*Lamium album*) // Dissertation abstract for a Candidate of Pharmaceutical Sciences degree. – Lviv, 1990. – P.3-19.
6. Kruglaya, A.A. Antibacterial Activity of Phenolic Compounds of Some Representatives of the Lamiaceae Family // Collection of Scientific Papers "Development, Research, and Marketing of New Pharmaceutical Products" (edited by M.V. Gavrilin). – Pyatigorsk (Pyatigorsk State Pharmaceutical Academy), 2012. – Issue 67. – P.339-340.
7. Bubenchikova, V.N., Starchak, Yu.A. Study of the Anti-inflammatory and Antibacterial Activity of Two-faced Thyme (*Thymus dimorphus* Klok. et Shost) // Traditional Medicine. – 2014. – №4. – P.17-19.
8. Kartashova, N.N. Some Data on the Morphology of Lamiaceae Flowers (Labiatae) // Botanical Journal. – 1960. – Vol.45. – №1. – P.109-114.
9. Delova, G.V. Antibacterial and Antifungal Properties of Essential Oils of Some Lamiaceae Species // Novosibirsk, 1994. – P.131-145.
10. Delova, G.V., Guskova, I.N. Antibacterial and Antifungal Properties of Essential Oils of Some Lamiaceae Species // Comprehensive Study of Useful Plants of Siberia. – Novosibirsk, 1974. – P.131-146.
11. Khaziev, R.Sh., Makarova, A.S., Musina, L.T. Obtaining Extracts from Sage Leaves (*Salvia officinalis*) Optimized for Diterpene Acid Content and Studying Their Antimicrobial Activity // Questions of Biological, Medical, and Pharmaceutical Chemistry. – 2013. – №2. – P.35-37.
12. Muradov, R., Abdullaev, Sh. Flavonoids of the Roots of *Scutellaria sguarrosa* // Chemistry of Natural Compounds. – 1990. – №4. – P.546-547.
13. Yuldashev, M.P., Botirov, E.Kh., Nigmatullaev, A., Malikov, V.M. Structure of Two New Flavonoids from *Scutellaria ramosissima* // Chemistry of Natural Compounds. – 1994. – №3. – P.355-359.
14. Malikov, V.M., Yuldashev, M.P. Phenolic Compounds of Plants of the Genus *Scutellaria* L.: Distribution, Structure, and Properties // Chemistry of Natural Compounds. – 2002. – №5. – P.385-407.
15. Sajadi, S.E., Dehkordi, N.G., Baluchi, M. Volatile Constituents of *Ziziphora clinopodioides* Lam. // Journal of Pajhoohesh va Sazandegi. – 2003. – Vol.58. – P.97-100.
16. Duru, M.E., Ozturk, M., Ceylan, O. The Constituents of Essential Oil and In Vitro Antimicrobial Activity of *Micromeria Cilicia* from Turkey // Journal of Ethnopharmacology. – 2003. – Vol.94. – P.43-48.
17. Gozed, E., Yavasoglu, N., Ulku, K., Ozturk, B. Antimicrobial Activity of Endemic *Ziziphora taurica* subsp. *Cleonioides* (Boiss.) P.H. Davis Essential Oil // Acta Pharmaceutica Scientia. – 2006. – Vol.48. – P.55-62.
18. Kalinkina, G.I., Berezovskaya, T.P., Dmitruk, S.E., Salnikova, E.N. Prospects for the Use of Essential Oil Plants from the Flora of Siberia in Medical Practice // Chemistry of Plant Raw Materials. – 2000. – №3. – P.5-12.

ALISHER NAVOIY IJODIDA ODAMIYOT TALQINLARI

Shodmonov Nafas Namozovich,
Turon universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada ulug' mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida keng qo'llanilgan Odam Ato, Havvo va ularning farzandlari timsollari bir guruh rus shoirlari tomonidan XX asrning boshida tatbiq etilgan odamiyot (adamizm) ijodiy yo'nalishi asosida tadqiq qilingan. Sho'rolar davrida odamiyot yo'nalishi inkor etilgan va taqiqlangan bo'lsa-da, jahon adabiyoti va adabiyotshunosligida u rivojlantirilganiga diqqat qaratilgan. Yo'nalishning asosiy xususiyati insonning idealga qaytish potensialini tushunishga intilish va talqin etish ekani ko'rsatib berilgan.

Navoiy asarlarida komil inson g'oyasining ilgari surilishida Odam Ato timsolidan unumli foydalanilgani tahlilga tortilgan. Navoiy ijodida odamiyotning asosiy xususiyatlaridan biri Odam Ato qiyofasining o'ziga xoslik va poklik ramzi sifatida taqdim etilishi hamda poetik imkoniyatlarni kengaytirgani asoslangan. Shuningdek, Navoiy ijodi poetikaga doir har qanday nazariy qonuniyatlarni talabiga javob berishi isbotlangan.

Kalit so'zlar: Navoiy, Odam Ato, odamiyot, inson mohiyati, ijodiy yo'nalish, ideal, Xamsa, g'azal, doston, komil inson g'oyasi.

Annotation. The article examines the symbols of Adam, Eve, and their children, widely used in the works of the great thinker Alisher Navoi, based on the creative direction of adamism, implemented by a group of Russian poets at the beginning of the 20th century. Although the direction of adamism was denied and banned during the Soviet period, attention was paid to its development in world literature and literary studies. It shows that the main characteristic of the direction is the striving and interpretation of a person's potential to return to the ideal.

The image of Adam is analyzed as being effectively used in promoting the idea of a perfect human being in Navoi's works. It is justified that one of the main characteristics of adamism in Navoi's work is the representation of the image of Adam as a symbol of originality and purity, as well as the expansion of poetic possibilities. It is also been proven that Navoi's work meets the requirements of any theoretical laws of poetics.

Key words: Navoi, Adam, adamism, creative direction, ideal, Khamsa, ghazal, epic, concept of the perfect human.

KIRISH. Dunyo adabiyoti va adabiyotshunosligida akmeizm [1] bilan birga "adamizm" degan yo'nalish ham e'tirof etilganiga yuz yildan oshgan. Bu istilohni biz mumtoz adabiyotimiz tiliga moslashtirib odamiyot deb atashni ma'qul topdik. Odamiyot haqida dastlabki ma'lumotni Aflotun va Aristotel kabi qadimgi faylasuflarning asarlarida topish mumkin. Ular odamda azaliy mukammallik mavjudligini, uning yuksak ma'naviy dunyosini va u erishishi mumkin bo'lgan ideal holatni tasvirlab berishdi. Biroq qadimgi yunon falsafasida odamiyot badiiy ijod uchun asos emas, balki nazariy tushuncha edi. Odamiyotning badiiy ijodga ta'siri va undagi o'рни N. Gumilev va S. Gorodetskiy kabi ijodkorlar tomonidan asoslangan [2]. Jahon adabiyotining eng atoqli namoyandalari Dante Aligiyeri, Petrarka, Jan-Jak Russo, F. Gyote, T.Mann, A. Kamyu, A.S. Pushkin, L.N.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, I.Turgenevlar ijodida bu yo'nalish ustuvor bo'lgani xususida ham fikrlar bildirilgan [3]. Adabiyotshunoslarning fikrlariga ko'ra odamiyotning mashhur

misollaridan biri bu Jon Miltonning (9.12.1608 – 8.11.1674) “Yo‘qotilgan Jannat” («Paradise Lost») epik she‘ri bo‘lib, u yerda Odam ato va Momo Havvoning jannatdagi hayoti va ularning jinoyat uchun surgun qilinishi tasvirlangan [4].

Yo‘nalishning asosiy xususiyati bu turli xil ijtimoiy, falsafiy va axloqiy qarashlarni o‘z ichiga olgani, insonni va uning qadriyatlarini markazga qo‘yuvchi dunyoqarash ekanida namoyon bo‘ladi. Unda, ko‘pincha, inson mavjudligi mohiyati, uning iroda erkinligi, burch va mas‘uliyati, imkoniyatlari chegarasi hamda ong tadriji orqali ijodkorlik fazilati shakllanishi ta‘kidlanadi. Shu bilan birga uning idealga qaytish potensialini tushunishga intilish ham nazarda tutiladi. Mualliflar tarixning qulay yo‘rig‘iga, yovuzlikni yengishga va har bir inson ideal Odam Atoga o‘xshashi orqali yaxshiroq dunyoni yaratishga ishonishlarini bildirdilar. Odamiyot insonga oid bo‘lgan bir qator jihatlarni Odam Ato, Momo Havvo va ularning farzandlari hayotiga doir umumbashariy muammolarni o‘rganishga diqqat qaratadi.

Shuningdek, odamiyot inson yolg‘izligi mavzusi bilan bog‘liq bo‘lib, boshqa adabiy yo‘nalishlardan farq qiladi. Unda diqqat qahramonning ichki dunyosiga qaratiladi. Mualliflar odam Atoning obrazidan foydalanib, odatda uning psixologik kechinmalari, fikr-o‘ylari va hayot mohiyatni izlashlarini o‘rganadilar. Ular inson idealligi va uyg‘unligini tiklash yo‘llarini topishga intilib, inson tabiatini o‘rganishda davom etishadi.

Odamiyotni o‘rganish uning ham o‘z yo‘nalishlari mavjudligini ko‘rsatadi. Ular, bizningcha, quyidagilardan iborat:

1. Odamiyot gumanizm bilan bog‘lanadi va insonni dunyoning markazida deb tushuntiradi. Bu yondashuvda insonning imkoniyatlari va axloqiy mas‘uliyatlari birlamchi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, bu gumanistik yo‘nalish deyilishi mumkin.

2. Odamiyot ba‘zan ekzistensializm yoki boshqa falsafiy oqimlar bilan ham bog‘liq bo‘lib, individual shaxsiyatning ahamiyatini ta‘kidlaydi. Bu, albatta, uning falsafiy yo‘nalishidir.

3. Diniy ma‘rifat kontekstida Odam Atoning yer yuzida Alloh taoloning xalifasi sifatida yaratilishi bilan bog‘liq holda imyon, e‘tiqod sofligi, shar‘iy hukmlar ustuvorligiga va axloqiy masalalarga ahamiyat qaratishni ifodalaydi.

4. Tasavvuf ta‘limoti va adabiyotida odamiyot Allohning olamlar va insonni yaratishida yuqori maqsad mujassam ekani, komil inson tarbiyasi, barcha ilohiy ism va sifatlarning mazhari va hokazolar talqin qilinadi.

Shulardan kelib chiqib, Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilinsa, inson va uning manfaatlari har doim diqqat markazida turgan buyuk tafakkur mahsulining tahlili odamiyot talqinida ham muhim o‘rin tutishi aniqlashadi. Buni Odam Ato, Momo Havvo va ularning farzandlari, xususan, Qobil va Hobil obrazlari orqali bildirilgan fikrlar, vujudga keltirilgan badiiy tasvirlarda ko‘rish mumkin. Ularning boshi Odam Atoning yaratilishi bog‘liq. Bu yaratilish insonga o‘z aslini belgilab olishga yordam beradi. Ya‘ni Odam Ato obrazi va uning Alloh taoloning O‘z qo‘li bilan yaratilishi haqidagi tasvirlar insonda muqaddas hislar, eng oliy tuyg‘ularni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Odam Atoning yaratilishi insoniyatga ilohiy kitoblar hisoblangan “Tavrot”, “Injil” va “Qur‘on” orqali singgan. Jumladan, “Tavrot”ning Ibtido qismida: ²⁶Yana Xudo: “Insonni O‘z suratimizga ko‘ra O‘zimizga o‘xshash odamni yarataylik...” dedi. ²⁷Shunday qilib, Xudo odamni O‘z suratida, ilohiy suratda yaratdi, deyiladi [5].

Ma‘lumki, shunga shaklan o‘xshash bo‘lgan, Imom Buxoriy va Muslim o‘z kitoblarida Rasululloh savdan Abu Hurayra rivoyat qilganiga ko‘ra keltirilgan hadisda Alloh Odamni o‘z

suratida yaratgani va uning bo'yi oltmish ziro' (40 m) bo'lgani (خَلَقَ اللَّهُ آدَمَ وَطَوَّلَهُ سِتُونَ ذِرَاعًا) [6] aytiladi. Bu borada musulmonlar orasida ko'p bahs va munozaralar mavjud. Bahs, asosan, "o'z surati" kalimalari ustida boradi. Ya'ni Odamni O'z suratida, o'ziga o'xshatib yaratdimi? Demak, inson Alloh suratida, Allohning zoti ma'lum, jismi bor, u insonga o'xshaydi, degan xulosaga kelish kerakmi? Aslo yo'q! Bu yerda "o'z"dan murod – "uning"dir. YA'ni Odamni uning (Odam Atoning o'zining!) suratida yaratdi, deb tushunish kerak. Bunga "Hayratu-l-abror" dostonidagi quyidagi misralar talqinidan ham javob topish mumkin:

Muncha g'aroyibki misol aylading,
Borchani mir'oti jamol aylading.

Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g'araz inson edi.

Turfa kalomingg'a dog'i komil ul,
Sirri nihoningg'a dog'i homil ul [7].

Bundan oldingi va bu baytlardan shunday xulosa kelib chiqadi: Alloh O'z jamoli tamoshosi uchun olamlarni yaratdi, undagi barcha yaratilgan, jumladan inson ham Alloh jamoliga mir'ot, ko'zgu qilindi. U qanchalik ko'p narsa yaratmasin, hammasidan murod inson edi. Chunki turfa kalomingga komil ham, pinhon siringni avloddan-avlodga tashib yetkazuvchi ham insondir. Bu yerda, birinchidan, Odamning yaratilishi boshqa yaratilgan kabi ko'zgu bo'lishi uchunligi ma'lum bo'ladi. Ikkinchidan, moddiy olam intizomini ongli, idrokli moddiy kuch vositasida yuritish uchun O'z xalifasi sifatida Odam yaratilgani va, uchinchidan, Alloh insonni O'z "sirri nihoni"ga homil qilib qo'ydi, xolos. Zero, uning "Sirri nihon"i Zotidir. U Zotni So'fi Olloyor ta'biri bilan aytganda, farishtalar va nabiyalar ham fahm eta olmaydilar. Bas, mantiqan Odam vujudida U O'zini oshkor etishi mumkin emas edi. Boshqa bir oyatda Allohning hech bir jihatdan o'xshashi yo'q ekani ta'kidlanadi: (لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ) [8]. Binobarin, inson tanasini Allohga o'xshatish mushabbiha qavmiga xoslik bo'lib qoladi. Bu esa shirkga, kufrga olib boradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Navoiyning odamiyotda talqinlari juda teran va chuqurki, ularni bir maqola hajmida tahlil qilish mushkul. Bu yerda biz ulardan ayrimlarini kuzatish bilan cheklanamiz:

Birinchidan, insonni sharif zotligini talqin talqin qilishda Odam Atoning yaratilishidan vosita sifatida foydalaniladi. Zotan, inson Qur'oni Karimning Al-isro surasida: "Odam bolalarini mukarram qilib yaratdik" (وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِي آدَمَ) [9] deyiladi.

Hazrat Navoiy "Mahbubu-l-qulub" asarida: "Odami sharifu-l-kavnayndur" [10] deydi, ya'ni: "Odamiy ikki dunyoning sharif yaratiqidir". "Saddi Iskandariy" dostonining LXI bobida esa qanday mohiyatga egaligi batafsil talqin bor. Uning birinchi bayti shunday boshlanadi:

Birov ahli ma'ni deyolur o'zin

Ki, Haq ochmish o'lg'ay basirat ko'zin [11].

Ya'ni, kishi o'zini ma'no ahlidan deb hisoblashi uchun Haq taolo uning basirat ko'zini ochgan, unga shunday ko'zni bergan bo'lishi kerak. Basirat ko'zi deyilganda, tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Haq hidoyati bilan aql, tafakkur va hissiyotda mukammallik tushuniladi. Buni Sayyid Ja'far Sajjodiy shunday izohlaydi:

"Basirat quvvat sifatida dilning muqaddas nur bilan munavvar etib, uning vasilasida narsalarning haqiqatlarini va ularning botiniy mohiyatini mushohida, tafakkur qilmoqdir. U ko'z hukmi sifatida bo'lib, uning vasilasida narsalar suratlarining o'zini va ularning zohirini

ko'rmog'dir. Basirat yana shuki, hakimlar uni nazarning "quvai oqila"si (ko'rishdagi donolik quvvat) deb ham ataydilar va qayonki muqaddas nurdan ravshanlashsa, Haq taoloning hidoyati bilan hijob(parda)lar undan ko'tariladi". Ayniqsa, olim "Sharhi Manozili-s-soiriyn"dan keltirgan iqtibosda Navoiyning badiiy ifodasiga ham o'xshashlik bor: "Basirat aqliylikka mansub bo'lib, ilohiy nur yorishsa va Haq hidoyati ziyosi bilan surmalansa, ayon va mushohadada xato qilmaydilar, isbotda dalilga muhtoj bo'lmaydilar. Zero, uning mushohadasi Haq nuridadir va unda hech qanday hayrat va sargardonlik yo'qdir" [12].

Bobda shundan so'ng ma'no ahli mazkur basirat ko'zi bilan olam go'zalliklarini ko'rganda ularning mohiyatini, eng avvalo, ne suratni ko'rsa, uning yaratuvchi san'atkorini anglashi lozimligini ta'kidlaydi. Naqshni ko'rganda naqshband ijodiy mahoratini g'araz bilmagan kishining naqshdan bahra olishi mumkin emas. Hayot gulshani go'zal yaratilqlariga nazar soluvchi ahli binish – mohiyatni ko'ra oluvchi bo'lsa va har bir dilkusho chamanni ko'rsa, ularning bog'boni haqida fikr yuritadi. Basirat ko'zli ahli ma'ni qaysi bir gul-u xushbo'yini uchratsa, bu san'at asarining ichidagi sir haqida tafakkur qiladi. Umuman, cheksiz koinotdagi muallaqlik bo'ladimi, nozanin niholmi, yer yuzining ajoyibot va g'aroyibotlarga boy turli go'shalarimi, basirat ko'zli kishi hammasini ko'radi. Lekin u o'ziga yaxshi nazar qilsa, hammasidan o'z ma'naviy olamining g'oyat qiymatli ajoyibliklarga boyligini ham angelaydi.

Shundan so'ng shoir odamzotning timsolini sharh qilishga o'tadi. Avval inson vujudini daryo va dur, boriq bog'ining sarvi kabi talqin qiladi. Unda odamzotning Allohning xalifasi sifatida yaratilganini, yer mulkida shohlik, onga egalik, ko'zida aynu-l-yaqin nuri porlashi, sochida hablu-l-matin – bardoshli arqon tobi borligi, jamoli bilan olamga bezakligi, kalomida mo'jizaviylik zohirligi, Hakimi azal ana shunday nodir jism va tilsim sifatida yaratarilishi, buning ustiga, unda "aql" degan o'zga bir olamning ham joylanishi uning loyini Quadrat (Alloh) qo'li qoriganidan ekanini aytib sharif zot timsoli tavsifini zikr qiladi. So'ng insonning ma'naiy ahvoli tavifiga kirishiladi. Odam tilsimi to'lin oydek orasta edi. O'sha Hakim (Alloh) uni yaratar ekan, uning ichiga sirlar xazinasini joyladi. Bundan maqsad O'z sirlarini olam ahliidan pinhon tutish edi. kimkm bu sirni topsa, u shohlik darajasiga yetgan bo'ladi. Bu sirlar xazinasini avval yetti daryo (dengiz)ga, keyin to'qqiz osmonga mengzaladi. Oy va Quyoshni yaratgan Xoliq shugina bilan cheklanmay, butun suzib, aylanib yuruvchi koinotni ham bunyod etti. Har bir qatrada daryo (dengiz)ni yashirganidek, eng kichik yulduz (Suho) zimnida hadsiz koinotni nihon qildi. Buncha g'aroyibliklardan ortiq g'aroyibot yo'q. Lekin har kimki shunday g'aroyibot tamoshosini xohlar ekan, bu maqsad uchun o'zidagi yashirin holatlarga boqsin:

Ne ma'niki istar, o'zindin topar,

Jahonda kezarning ne ma'nisi bor? [13]

Alisher Navoiy talqiniga ko'ra, inson mukammal yaratilgan, uning ichida "sirlar xazinasini" yashirilgani bilan birga, unga cheksiz imkoniyatlar berilgan. Bu mukammallikning sababi, insonning Allohning O'zi tomonidan yaratilganidir. Bob mavzusida "Xammartu tiynata Odama biyadiy arbaina sabohan" [14] (Odam loyining xamirini qirq sabo (kecha-kunduz) qoridim) hadisi keltirilgani shu fikrni tasdiqlaydi. Shular sabab inson sharifdir.

Diqqat qilinsa, bu yerda gap faqt Odam Ato va insoniyat fazilatlarini, imkoniyatlarini haqida bormoqda. Dostonning komil inson g'oyasi shuni taqozo qiladi. Shuning uchun ham Odam Ato timsolidagi insoniyatning bu qadar ulug'lanishi, insonparvarlikning bunday oliy darajasi, hatto, Navoiyning boshqa asarlarida ham uchramaydi. Dialektikaning ikkinchi tomoni boshqa bir necha

o‘rinlarda keltirilgani kuzatiladi. Misol uchun, “Lisonu-t-tayr” dostonida keltirilgan kichik bir hikoyatni keltirish mumkin. U “Odam Safiy alayhissalom hikoyati” deb nomlangan:

Xayli insonning otasi – Bulbashar
Kim, oni xalq etti Hayyi dodgar.

Boshig‘a qo‘ydi hidoyat afsarin,
Tojig‘a tikti nubuvvat gavharin.

Qildilar topqoch bu yanglig‘ izzu joh,
Tufrog‘in xayli maloyik sajdagoh... [15]

Adolatli Hayy (Alloh) Abulbashar – bashariyat otasi (Odam Atoni)ni yaratib, uning boshiga hidoyat tojini kiygizdi, chin baxt yo‘lini hamroh qildi va tojiga payg‘ambarlik gavharini qadadi. Odam Atoning bunday martabada ko‘rgan farishtalar xayli unga sajda qildilar. Koinotning eng baland joylarida kezdi, jannat bog‘i unga jilvagoh edi. Bu oliy hasab pokiza yaratiqiga Haq Safiy (pok, benuqson) laqabini berdi. Lekin unga Hayyi Zuljalol shunday taqdir berdiki, u gunohga kirib qoldi. Sajda qilishga loyiq bo‘lgan yuksaklik undan ketti-yu, mardud hisoblandi. Ko‘ksiga rad panjasi yetib, jannat bog‘idan yuz qarolik bilan Hindiston yeriga haydaldi. Asrlar hijronda yosh to‘kib, o‘hu nolasini baland qilib, joni o‘rtandi. Tavba unga chorasoz bo‘ldi. Unga yana bog‘i rahmatdan nasimlar esib, ranju mehnatdan eminlik topti va hurmat haramiga loyiq ko‘rildi.

Demak, insonda xotoga yo‘l qo‘yish, gunohga qo‘l urish ham merosiy. U Odam Atodan meros. Lekin unga tavba qilish bilan o‘z asliy saodatini topish imkoni ham berilgan. Gunohdan ana shu yo‘l – tavba – pushaymonlik, kamtarlik va xokisorlik yo‘liga qaytib poklanish imkoniyatidan foydalanmaslik badbaxtlikdir! Iblisning la‘natlanishining sababi shu. Navoiy bu qabohatni Odam Ato va kibrga muhtalo iblis munosabatlari orqali talqin qiladi. Bu hol “Lisonu-t-tayr”ning SXIX bobida shunday ifodalangan: Tangri taolo Odamni yaratdi. Bunda u O‘zini oshiq va Odamni ma‘shuq sifatida namoyon qildi. Va U farishtalar barchasini insonlarning eng yaxshisi, xayrulbashar bo‘lgan Odamga sajda qilishga buyurdi. Iblisdan boshqa ularning hammalari aytilganidek sajda qildilar. Iblis kibr qildi. Vaholanki:

Ul necha ming yil ibodat aylagan,
Amr ila taqvoyu toat aylagan.

Chun g‘urur etti ishiga oshkor,
Xayl aro rad qildi oni kirdikor [16].

Rad qilingan shayton abadiy la‘natga giriftor bo‘ldi. U ham tavba qilsa, yana rahmatga erishsa bo‘lmasmidi? Yo‘q, chunki u ma‘nan pok qilib yaratilmagan. YA‘ni, aslida, uning taqdiri shunday edi. Rivoyat qilishlaricha, shayton bir kuni Muso alayhissalomga yo‘liqib qoladi. Kalimulloh undan nega Odamga sajda qilmaganini so‘raydilar. Shayton bu o‘zining taqdiri ekanini aytadi.

Inson taqdiri dunyoviy va uxrovij hayotining hamma masalasini hal qilsa, bu dunyoviy hayoti imtihonligining ma‘nosi nimada? Buning uchun taqdir va aqoid ulamolari ta‘kidlab ko‘rsatishgan iroda erkinligi masalasini to‘g‘ri anglash lozim. Ulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, har bir insonga taqdir unga berilgan potensiyadir. Ong, aql, tafakkur, zakovat kabi xususiyatlar salohiyati, kuchi va, albatta, jismoniy imkoniyatlar taqdir qilib berilgandir. Ulardan qanday foydalanish esa bandasining ishi. Shuning uchun ham ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy

“Saddi Iskandariy” va “Lisonu-t-tayr” ning ko‘rib o‘tilgan boblarida talqin qilingan fikrlar ana shu nuqtai nazarlarga mos, deyish mumkin.

Ikkinchidan, Odam Ato timsoli orqali Muhammad alayhissalomni ulug‘lash juda ko‘p o‘rinlarda talqin qilinadi. Ma‘lumki, Islom aqidalariga ko‘ra, musulmon kishi Alloh taoloning birligi bilan birga Muhammad alayhissalom uning payg‘ambari ekaniga imyon keltirib shahodat berishi kerak. Shunga asosan, Navoiy asarlarida Odam Atoni Muhammad alayhissalomning o‘g‘li sifatida talqin qilinishi juda ko‘p uchraydi. Xususan, “Xamsa”ning hamma dostonlarida bu talqin bor. Bunga sabab, komil inson g‘oyasining izchil saqlanishidir. Odam Atoni Muhammad alayhissalomning o‘g‘li sifatida talqin qilinishini Islom tarixi va falsafasi bilan ozgina shug‘ullanganlar ham yaxshi tushunadi. Ularga ko‘ra, olam Muhammad alayhissalom bois yaratilgan. Bunga asos qilib, Allohu taolo hadisi qudsiyda Muhammad alayhissalom haqida “Sen bo‘lmaganingda koinotni yaratmasdim (لولاك لما خلقت الأفلاك), deb marhamat qilgani ta‘kidlanadi. Yoki boshqa bir hadisda “Hali Odam suv bilan loyning o‘rtasida ekanida men nabiy edim” (كنت نبيا (وأدم بين الماء والطين) deyiladi. Bu yaratilish Muhammad alayhissalomning nurlari yaratilishiga doir. Ungacha Haq taolodan boshqa hech narsa yo‘q edi, hatto, lavh ham, qalam ham, falaklar, koinot ham. “Hayrat ul-abror”dagi birinchi na‘t “Ul hazratning nuri qidamiyatidakim, zot bahrining avvalg‘i junbushida ul durri bebaho lam‘asi xafo rishtasin uzdi va ul gavhari yakto ash‘asi lam‘a ko‘rguzdi va durjdin durjg‘a intiqol etti to Safiyullohdin Abdullohg‘a yetti”, ya‘ni Muhammad (a) nurining qadimiyligi xususida, Zot dengizining dastlabki junbushi tufayli u bebaho dur yolqini maxfiylikka bandlikdan chiqdi, tengsiz gavhar nuri shu‘la ko‘rgizdi va u durj(qimmatbaho toshlar solinadigan quti)dan durjga o‘tkazilib Safiyulloh (Odam Ato)dan Abdulloh (Muhammad (a)ning otalari)gacha yetdi, degan sarlavha bilan boshlanadi. Binobarin, birinchi durj Odam Ato edi. Shu muqaddas nurni vujud libosiga kiritish va sinovlardan o‘tkazish uchun durj qilib Odam Ato yaratildi.

Topti azal subhi chu bazming charog‘,
Ne tong agar yorusa yuz ming charog‘.

Bo‘ldi sanga Odam sabqatnamo,
Avval o‘g‘ul, so‘ngra gar o‘lsa ato.

Naslida har kim anga payvand o‘lub,
Borchasi farzandingga farzand o‘lub.

Kimki munga da‘viyi hujjat etar,
“Kuntu nabiiyan” anga hujjat yetar [17].

Bu yerdagi “Kuntu nabiiyan” so‘zlari yuqorida keltirilgan “Hali Odam...” deb boshlanuvchi hadisga ishora. Bundan keyin Odam ismini tashkil qilgan harflar ishtirokida shoirona talqin keltiriladi:

O‘zga dalil istasa tab‘i saqim,
Basdurur Odamda «alif», «dolu», «mim».

Borchasi Ahmadda topib izzu shon,
O‘g‘lida uch harf atodin nishon [17].

Darhaqiqat, o‘g‘ilda otadagi hamma xususiyat emas, ba‘zilari namoyon bo‘ladi. “Ahmad”dagi “ho”dan boshqa harflar “Odam”da zuhr topgan. Shoir “ho”ni ham alohida baytda talqin qiladi:

“Ho”i muhabbat senga-o’qdur nasib
Kim, seni Haq dedi o’ziga habib [17].

“Muhabbat” so’zidagi “ho” harfi (Ahmad – Muhammad) sengagina nasib bo’ldi-yu, Haq taolo seni o’ziga habib qildi. Ya’ni bu “ho” harfi “Haq”da va “habib”da mavjud bo’lib, “Odam”da emas, “Ahmad”da qolishi Muhammadga Odam Atoga ham nasib bo’lmagan Haqqa muhabbat va do’stlikning saqlab qolgan alomatidir.

Navoiy yana deydi:
Ayladi chun Odami xokiy zuhur,
Soldi anga partavin ul pok nur.

Nur dema, boriqai sarmadiy,
Boriqa yo’q, sha’shai Ahmadiy.

Bo’ldi chu Odamda bu partav nihon,
Anda nihon, lek yuzida ayon.

Tuproq – loydan yaratilgan Odam Ato vujudiga Muhammad (a) pok nurini nihon joylagan bo’lsa-da, bu nur uning yuzida zohir edi. Shu nur Odam avlodlarining saralanganlarida o’ta-o’ta uning haqiqiy egasi Muhammad (a)gacha keldi. Dastlab u Momo Havvoga o’tganida uning yuzi shunday porlab ketgan ediki, hurlar yuzini Haq nuri yoritgandek porlar edi. Nur kinga o’tsa, uni bilish qiyin emas edi. Havvo Shisni dunyoga keltirdi:

Shisqa chun bo’ldi yana muntaqil,
Oyni qilur erdi yuzi munfail.

Navoiy talqinicha, shu nur bilan Muhammad (a)ga yetganida durga sadaf pardapo’sh bo’lgandek ko’rinadi. Parda ko’tarilgach (Rasululloh tug’ilgach), boshqa bir bunday oftob tug’ilmagani ma’lum bo’ladi. Va nihoyat, payg’ambarlik yetgach:

G’am tunini nursirisht ayladi,
Yer yuzini bog’i bihisht ayladi [17].

Navoiy nuqtai nazaridagi ideal Odam Ato bilan boshlanib Muhammad (a) bilan eng yuqori cho’qqiga ko’tariladi. Yer yuzini bog’i bihishtga aylantiruvchi zot shunday e’tiborga albatta loyiq.

“Layli va Majnun” dostonida ham, yuqorida ta’kidlanganidek, Odam Atoga Muhammad (a) ma’nan ota sifatida talqin qilinadi:

Odam shajaringg’a meva monand,
Farzandingga olam ahli farzand [18].

“Sab’ai sayyor” dostonida Muhammad (a) nurining Odam Atodangina emas, balki barcha olamlardan avval yaratilganiga, shu boisdan eng avval va eng oxirgi payg’ambar Muhammad (a) bo’lganiga urg’u beradi:

Balki Odam o’g’ullug’ingdin shod,
Valadingg’a jahon eli avlod.

Anga zohir taqaddumi oti,
Sanga lekin taqaddumi zoti.

Sen muqaddam demayki odamdin,
Qaysi odamki, borcha olamdin.

Anbiyo xaylikim, kelib mursal,
Ham sen oxir alarg’a, ham avval [19].

“Saddi Iskandariy” dostonida ham Muhammad (a) haqida soʻz borganda, albatta, Odam (a) haqida ham eslanadi. Masalan, dostonning XI bobida shunday satrlar bitilgan:

Ki, andinki Odam alayhissalom,
Xilofat saririda tutti maqom.

Anga tegrukim, shohi Makkiy laqab,
Ne Makkiy laqabkim, Rasuli arab

Muhammadki erdi rusul shohi ul,
Laduniy ulumning ogohi ul [20].

Demak, bu yerda ham Odam Ato Haq taologa xalifalik maqomini olishidan burun komil ideal, shohi Makkiy – ilohiy ilmlardan ogoh barcha rasullar shohi Muhammad (a) boʻlgani taʼkidlanadi. Bunday mazmundagi misollarni Navoiyning naʼt gʻazallarida ham uchratish mumkin. Masalan, “Gʻaroyibu-s-sigʻar” devonidan oʻrin olgan 114-gʻazalda shunday bayt bor:

Odamki, bashar nasli silkiga erur payvand,
Suvratda sanga volid, maʼnoda sanga farzand [21].

Uchinchidan, komil inson gʻoyasini ilgari surishda Odam Ato timsolidan unumli foydalaniladi. Umuman, adabiyotdagi odamiyotning asosiy xususiyatlaridan biri ham Odam Atoning qiyofasini oʻziga xoslik va poklik ramzi sifatida taqdim etishdir. U koʻpincha inson tabiati va aybsizligi, benuqsonligining timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu mualliflarga hayotning paydo boʻlishi, tarixning boshlanishi yoki haqiqatni izlash kabi turli xil mavzular va gʻoyalarni yetkazish uchun uning tasviridan foydalanishga imkon beradi.

Maʼlumki, farishtalar gunohlardan pok yaratilgan sifatida talqin qilinadi. Odam Ato hali hech qanday gunohga yaqinlashmagan chogʻda unga maloik xayli sajda qildi. Bu ayni odamiyot talqinining oʻzagini tashkil qiladi. Gunohdan yiroq yurish boshqalarga faqat nafʼ berib, aziyat yetkazmasligi bilan belgilanishi mumkin. Shuning uchun ham kishining oʻzini gunohdan yiroq tutishi odamiylik hisoblanadi.

Odamiylik koʻrguzub qilding parivashlarni qul,
Odam uldurkim, maloyik ani masjud ayladi [22].

Bu yerda “parivashlar” deyilganda zohiriy maʼnodagina goʻzallarni tushunish mumkin. Bayt kontekstida mohiyatan farishtalar nazarda tutiladi. Haqiqat shuki, Odam Atoning pokligiga moslik kibr ahlidan boshqa hamma yaratilgan moyil, tobe, baytda keltirilganidek, qul qiladi.

Aziziddin Nasafiy bir oʻrinda komil insonni shunday taʼriflaydi: “Bilgilkim, komil inson deb shariat, tariqat va haqiqatni toʻliq egallagan odamni aytadilar. Agar bu iborani tushunmasang, boshqacha soʻz bilan aytay: bilgilki, komil inson shunday insonki, unda toʻrt sifat kamolga yetgan boʻlsin: ezgu soʻz, ezgu amal (feʼl), ezgu axloq va maorif [23]... Maorifdan maqsad toʻrt narsaning maʼrifatidir: dunyo maʼrifati, oxirat maʼrifati, oʻzlik maʼrifati va Parvardigor maʼrifati” [23]. Navoiyda komil inson bunday nazariy talqinlarda berilmaydi, faqat badiiy talqinlardan komil inson sifatlarini anglash mumkin boʻladi. “Lisonu-t-tayr”dagi mana bu baytda ham odamzodning oʻz zohir va botiniga munosabati orqali komillik belgisi ifodalanadi:

Odam oʻlgʻon zebi zohirdin demas,
Kimki ondin faxr etar odam emas [23].

Darhaqiqat, Nasafiy deydi: “Ey darvesh! Kimki donishmand odamning nazdida va suhbatida riyozat va mujohada tariqini ixtiyor etsa, zohir va botini rost boʻlur. Solikning zohir va botini rost boʻlgach, solikning ishi tugal boʻlur. YAʼnikim, solikning zohiri botini kabi pok boʻlsa, oʻshanda

ichki olami bilan tashqi qiyofasi bir xil bo'lar. Zohir pok bo'lmaguncha, botinda munavvar bo'lish qobiliyati bo'lmas" [24].

Komil insonning yana bir fazilati ifodalangan "Odamiy ersang demagil odamiy, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami", degan baytni atoqli alloma Alibek Rustamov sharhlab, undagi o'n fazilatni qayd etadi [29]. Bularga shuni ham qo'shish mumkinki, Odam Ato va odamiy, ya'ni uning avlodi yer yuziga, yer yuzidagi barcha mulkka Haqning xalifasi qilib yaratilgan ekan, o'sha mulkning – barcha yaratilganlarning g'amini yeyishi, ularga g'amxo'r bo'lishi lozimligi baytda ta'kidlangan. Zotan, "xalq" so'zi faqat kishilar jamoati ma'nosini ifodalash bilan cheklanmaydi.

Navoiyning komillik haqidagi mashhur qit'asida ham poklikka urg'u berilishi bejiz emas:

Kamol et kasbkim, olam uyidin

Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih,

Erur hammomdin nopok chiqmoq [25].

"Notamom"lik – notugallik, nokomillikdir. Yana, nokomillik – gunoh va ma'siyat bilan kirlanganlikdir. Jurm-gunoh odamzodan farishtalarni uzoqlashtiradi. "Navodiru-sh-shabob"ning 60-g'azalida bu fikrning shunday mukammal ifodasini ko'rish mumkin:

Qo'yg'il o'zluqni gar odam esang, inak shayton

Kibr ila nayladi ko'r, oncha ibodot aylab [26].

Navoiy g'azallarida "o'zluq" so'zi nafs ma'nosida ham ishlatilishi ma'lum. Hamma gunohlarning manbasi bo'lgan nafs shaytonni kibrga boshlaydi va bu uning la'natlanishiga sabab bo'ladi. Shaytonning tarixi ma'lum, ilm, ibodat va taqvoda hamma farishtalarning peshvosi edi. Gunoh uni farishtalikdan chiqardi.

To'rtinchidan, Odam Ato obrazi orqali olam, hayot go'zalligi, odamiylik bilan faxrlanish va shu bilan birga, dunyoning o'tkinchiligini anglash hissi talqin qilinadi. "Hayratu-l-abror" dostonida shunday bayt bor:

Subhi azal qildi chu dehqoni sun',

Odami xokiyni gulistoni sun' [27].

Bu yerda Haq taolo dehqonga o'xshatilsa, xokiy Odam gulistonga mengzaladi. Zero, olamni guliston qiluvchi inson ekani ham baytda shu yo'sin ta'kidlanmoqda. Binobarin, olamning go'zalligi inson bilan mukammaldir.

Odamiyotshunoslar bu ijodiy yo'lda barcha janrlarda ijod qilinishi mumkinligini so'zlaydilar. Navoiyning "Omir" ismiga yozgan muammo janridagi bir she'rda ham olam go'zalligi mohiyati talqin qilinadi:

Jumlai ashyog'a bo'ldum oshiqu oshufta hol,

Olamu odam yuzin chun qildi mir'ot Ul Jamol [28].

Muammoning hallida "olamu odam" yuzi: "ayn" va "alif" harflari "mir'ot"ning "mir" qismi oldiga qo'shilib "Omir" bo'lishi nazarda tutilishidan tashqari, barcha ashyolar Haq taolo jamolini aks ettiruvchi mir'ot – ko'zgu sifatida talqin qilinarkan ekan, olam va odamning – hayotning go'zalligi to'g'risida so'zlanayotganini tushunish qiyin emas. Yaratilganlarning barchasi go'zalki, shoir "Jumlai ashyog'a bo'ldim oshiq-u oshiftahol", deydi.

Hayot go'zal, ne'matlar bilan to'la. Lekin u abadiy berilgan emas. Dunyoda neki bo'lsa, hammasi uchun intiho, hayotning tugashi haqiqat. Buni Navoiy Odam Ato, Havvo va uning farzandlari misolida ko'rsatadi. "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida ularga uzoq umrlar

berilganini yozadi: “Va ani (Havvoni) Odam alayhissalom yonida dafn qildilar. Va yoshi to‘quz yuz o‘n ikki yilg‘a yetti”. Shoir bunga bir ruboiyni ilova qiladi:

Gar Shis va gar Qobil erur, gar Hobil,
Yoshlari agar yuz yil erur, gar ming yil,
Bir necha kun etsalar jahonda ta‘til,
Oxir borig‘a ajal buyurur ta‘jil [30].
Shu asarning o‘zida boshqa bir ruboiysida ta‘kidlaydi:
Odamniki, haq lutf ila mavjud etti,
Majmu‘i malak xaylig‘a masjud etti.
Oxir tanidin ruhni manqud etti,
Ul nav‘ki, nobud edi, nobud etti [30].

Bu ruboiy Odam Atoning o‘g‘li Hobil vafoti munosabati bilan marsiya aytgani zikr etilgandan keyin keltiriladi. Unda jonsiz tana aslida ham nobud – dunyo hayotida mavjud emas edi, unga ma‘lum muddatdagina hayot kechirish uchun ruh, jon berilgan edi, u olib qo‘yilgach, yana avvalgidek nobud bo‘lgani eslatiladi. O‘limning mavjudligi talqini hayotning ma‘lum inson uchun muvaqqat, g‘animat ekanini, uning yangilanib borishi qonuniyat ekani, berilgan imkoniyatlar abadiy emasligini, ulardan oqilona foydalanib qolish zarurligi uqtiriladi.

Beshinchidan, Alisher Navoiy ishq talqinida juda ko‘p holatda Odam Ato obrazi va tarixidan foydalanadi. Ishqning avvali borasida shoirning qarashi boshqacha, ya‘ni ruhning tanaga kirmagan paytidayoq uning mavjudligi fikrini bot-bot ta‘kidlasa-da, Odam Ato timsoli unga turli xil ohorli ifoda imkonini bergan. Masalan, “Hayratu-l-abror” dostonining to‘qqizinchi maqolatida ishq o‘ti ta‘rifida aytilgan bayt dastlabki fikrga dalil:

Odami xokiyni chu subhi alast
Ayladilar ruh mayi birla mast [31].

“Alast subhi” al-Misoq (alastu birabbikum)ga ishora. May esa ishq ramzi sifatida talqin qilinadi. “Layli va Majnun” dostonida esa, ma‘shuqa Layli husni ta‘rif etilar ekan, shoir shunday deydi:

Yuz ravzai xulddin nishona.
Xol anda fireb etarga dona.

Ul donag‘a sayd o‘lub bir Odam,
Bu donag‘a borcha ahli olam [32].

Bu baytlarda Navoiy talmeh san‘atidan foydalanib, Laylining yuzini jannat bog‘iga o‘xshtsa, xolini firib uchun ishlatiladigan donaga qiyoslaydi. Keyingi baytda Odam Ato qissalarida aytilgan jannat bog‘idan Havvo bilan quvilishlariga sabab bo‘lgan dona esga olinadi. Shayton Havvo vositasida firib ishlatib, Odam Atoga uni yedirgan, bug‘doy donasiga sayd bo‘lib, uni yeb osiylikka yo‘l qo‘ygan edi. “Bu dona” Laylining xoli, mubolag‘a bilan unga butun olam ahli sayd, asir bo‘lgani aytilmoqda.

“G‘aroyib”dagi ushbu baytda oshiq lirik qahramon o‘z holini shunday izhor qiladi:
Odam o‘lmishmenki, ishq ahli manga avlod erur,
Yo‘qsa yoshdin mencha kimning yuz sari atfoli bor [33].

“Men Odam Ato bo‘ldimki, ishq ahlining hammasi mening avlodimdir”, deydi shoir. Haqiqiy ishq ahlining hammasi lirik qahramonga o‘xshab hijron azobida o‘rtanadi, juda ko‘p ko‘z yosh qiladi. Yuzlarda oqqan marjon-marjon yoshlar yuzlab tiftl – bolalarga o‘xshatiladi. Bu “bolalar”ni

silsilaviy ravishda dunyoga kelishiga sababchi bo'lgan kishining Odam Atoga o'xshatish badiiy ifodaning go'zal namunasidir.

Boshqa bir g'azalda oshiq ma'shuqqa qarata "yuzing jannatidan ko'zlarim qorachiqularin ayirib, uni go'yo Odam Ato qilding-u, yoshlarini unga farzand qilding", deyiladi:

Qilding ul yuz jannatidin ayru bu ko'z mardumin
Odamu har sari yoshin anga farzand aylading [34].

Mazkur ikki baytda ham Odam Ato farzandlarining adadi hisobdan, sonidan ko'p ekani yoshning ham ko'pligiga dalolat qilingan. Oshiq ko'z yoshining ko'p ekani va uni Odam Ato timsoli orqali talqin qilinishi boshqa g'azallarda ham uchraydi. "Badoye'u-l-vasat"dagi ushbu bayt bunga misol:

Navoiyo, agar ikkinchi Odam ermasmen,
Nedin jahon yuzini tutti sar-basar yoshim [35]. (426)

Bu va bundan oldingi baytlar Odam Atoning yer yuziga tushganida oqizigan qancha ko'p ko'z yoshlari haqidagi hikoyalar ta'sirida bitilgan.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, bunday ko'rsatmalar (ustanovkalar berilmaganda) tajriba ishtirokchilarida ko'pincha noto'g'ri va qarama-qarshi hukmlar vujudga keladi[6].

Maxsus vositalar va oqilona usullarni qo'llash orqali esda olib qolish sohasidagi yodlashdan iborat tashkiliy faoliyat alohida ahamiyatga ega. A.A.Smironovning o'tkazgan tajribasidagi natijalar shuni ko'rsatadiki, matnni maxsus tuzib chiqilgan rejaga asoslangan holda yodlash, rejasi pala-partish esda olib qolishdan ikki baravar samaraliroq ekanligi aniqlangan. Psixolog olimlarning tavsiyasiga binoan yodlash jarayonida materialni takrorlash bilan uni faol esga tushirishni o'zaro almashtirib turish yuqori natijalar beradi. Kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar va talabalar bu usullarni mustaqil ravishda egallay olmaydilar, odatda ular muallimning rahbarligida egallashadi, aks holda o'quv faoliyati ishtirokchilari materialni bevosita, ixtiyorsiz esda olib qolish bosqichida qotib qolishi mumkin, bu hol aqliy o'sishga qarama-qarshidir[5].

TAHLIL VA NATIJALAR. Xotira ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra harakat xotirasi, obrazli xotira xotira, his-tuyg'u (emotsional) xotirasi va so'z-mantiq xotira turlariga bo'linadi. Quyida ularga to'xtalib o'tamiz.

Harakat xotirasi - turli harakatlarni, ularning bajarilish tartibi, tezligi, sur'ati, izchilligi va boshqa sifatlarini esda qoldirish, mustahkamlash hamda esga tushirishdan iborat turi. Harakatni esga tushirish shu harakatni bevosita bajarish yoki tasavvur qilish orqali sodir bo'ladi[4].

Obrazli xotira - yaqqol mazmunni, ya'ni narsa va hodisalarning aniq obrazlarini, ularning yorqin xususiyati va bog'lanishlarini esda qoldirish, mustahkamlash hamda esga tushirishdan iborat xotira turi. Obrazli xotira tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga,

tovushlar, ta'mlar, ranglar, shakllar bilan bog'liq bo'lgan xotira turidir[1].

His-tuyg'u (emotsional) xotirasi - voqelikdagi narsa va hodisalardan, o'z-o'zimizga bo'lgan munosabatlarimizdan kelib chiqadigan yoqimli hamda yoqimsiz kechinmalarni esda qoldirish va esga tushirishdan iborat xotira turi. His-tuyg'u yoki hissiy xotira - odamlarning ilgari o'z boshidan kechirgan his-tuyg'ularni hissiy holatlarini esda olib qolishdir[6].

So'z-mantiq xotirasi. So'z-mantiq xotirasi mazmuni fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etadi. Insonda fikr va mulohaza turli xil shakllar yordamida ifodalanganligi tufayli, ularni ifodalash faqat o'zlashtirilayotgan materiallarning asosiy ma'nosini izohlash, talqin qilib berish yoki ularni so'zma-so'z ifodalanilishini aynan aytib berishga qaratilgan bo'lishi mumkin[2].

Sanab o'tilgan esda olib qolish turlarining mazmuniga ko'ra to'rt ustundan iborat har bir ustunda 10 tadan jami 40 ta so'zdan tashkil topgan maxsus topshiriq ishlab chiqildi. Topshiriqni qo'llash uchun dastavval, jadvalda berilgan birinchi qator o'qib beriladi, so'ng eslab qolingan so'zlarni yoddan aytish talab qilinadi. Ikkinchi qatordagi so'zlar monitorda ko'rsatiladi, talabalarga esa ko'rib idrok qilganlarini eslab yozish vazifasi qo'yiladi. O'n minutdan keyin uchunchi qatordagi so'zlar o'qib beriladi va ularni havoda yozib ko'rsatish so'raladi, bu yo'l idrok qilingan so'zlarni yoddan eslab yozishni taqozo qiladi. So'nggi qator o'qiladi va ko'rsatiladi, sinaluvchilar ularni ichdan takrorlashlari kerak, undan so'ng eslab qolingan so'zlarni yozish tavsiya qilinadi. Mana shu yo'llar orqali ko'rish, eshitish, eshitish-harakat, aralash turlari yordamida xotiraning qaysi turi ustunroq yoki qaysi biri bo'sh ekanligini aniqlash mumkin.

Esda olib qolishda assotsiatsiyalarning ahamiyati muhimdir. Buning uchun esda olib qolish jarayonining bog'lanishlari paydo bo'lish sur'atini aniqlash maqsadida, ular xususiyatlariga binoan quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) sabab-oqibat bog'lanishi;
- 2) bo'lak va yaxlit munosabati;
- 3) qarama-qarshilik munosabati;
- 4) in'kor etish holati;
- 5) adekvat yoki aniqlik holati.

Tadqiqotimiz davomida tanlab olingan talabalar guruhiga yuqorida sanab o'tilgan assotsiatsiyalar va ulardan foydalanish texnikasi haqida ma'lumot berilmagan holda ularning to'g'ridan - to'g'ri esda olib qolish xususiyatini ya'ni tabiiy xotirasini sinovdan o'tkazdik. Quyidagi 1-jadvalda nazorat guruhidagi talabalarning natijalari ko'rsatilgan.

1-jadval

Esda olib qolish turlari bo'yicha talabalarning so'zlarni eslab qolish ko'rsatgichi (T=50).

№	Mezonlar	Ko'rsatgichlar			
		Yuqori	Yaxshi	O'rta	Past
1	Materiallarni eshitish orqali esda olib qolish	10 %	15 %	30 %	45 %
2	Materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish	20 %	25 %	35 %	20 %
3	Materiallarni harakat	10 %	20 %	25 %	45 %

	yordamida va eshitish orqali esda olib qolish				
4	Aralash holatda esda olib qolish	25 %	35 %	25 %	15 %
Jami		16%	24%	29%	31%

Metodika natijalariga ko'ra talabalar guruhida quyidagi natijalar qayd qilindi. Topshiriqni bajarish jarayonida "Materiallarni eshitish orqali esda olib qolish" mezoni bo'yicha talabalarning 10 % yuqori natijani 15 % yaxshi natijani, 30 % o'rtacha natijani va 45 % past natijani qayd etdi. Talabalarning "Materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish" mezoni bo'yicha 20 % yuqori natijani 25 % yaxshi natijani, 35 % o'rtacha natijani va 20 % past natijani qayd etdi. "Materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali esda olib qolish" mezoni bo'yicha esa talabalarning 10 % yuqori natijani 20 % yaxshi natijani, 25 % o'rtacha natijani va 45 % past natijani qayd etdi. "Aralash holatda esda olib qolish" mezoni bo'yicha esa talabalarning 25 % yuqori natijani 35 % yaxshi natijani, 25 % o'rtacha natijani va 15 % past natijani qayd etdi. Barcha mezonlar bo'yicha 16 % talaba yuqori, 24 % talaba yaxshi, 29 % talaba o'rta va 31 % talaba past natijani qayd etdi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Tajriba va nazorat guruhi o'rtasidagi farqlarni taqqoslaganda tajriba guruhidagi talabalar assotsiatsiyalarga asoslanib so'zlarni esda olib qolish texnikasini qo'llash orqali nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan yaxshiroq natijani qayd etgan. Tajriba guruhida yuqori natijani qayd etgan talabalarning foizi nazorat guruhidagi talabalarga taqqoslaganda 1.6 baravar ijobiy chiqqan. Yaxshi natijani qayd etgan talabalar o'rtasidagi farq 1.4 ni tashkil qilgan. Nazorat guruhidagi talabalarning o'rtacha natijasi tajriba guruhidagi talabalarnikidan 1.1 ga ko'p chiqqan. Nazorat guruhidagi past natijani qayd qilgan talabalarning foizi tajriba guruhidagi talabalarnikidan 2,2 baravarga farq qilgan.

Xulosa qilib aytganda ma'lumotlarni eslab qolishda maqsad qilingan ma'lumotni avval tajribamizda bor bo'lgan bilimlarimizga bog'lash uchun sabab-oqibat bog'lanishi, bo'lak va yaxlit munosabati, qarama-qarshilik munosabati, in'kor etish holati, adekvat yoki aniqlik holati kabi assotsiatsiya turlariga maqsadli bog'lagan holda esda olib qolish to'g'ridan - to'g'ri esda olib qolishga nisbatan bir muncha samarali ekan. Demak O'quvchi - talabalarga bilimlarni o'zlashtirish jarayonida assotsiativ usullarga asoslangan holda esda olib qolish ko'nikmalari pedagoglar tomonidan o'rgatilsa ta'lim samaradorligi yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010.-128 b.
2. Soatov A.J. Tushunchalarni eslab qolishda zanjir usulidan foydalanishning psixologik aspektlari. O'zMU xabarlar jurnali. Toshkent: 1/8. 2024. 170 b.
3. Soatov A.J. Ma'lumotlarni eslab qolishda assotsiativ usullardan foydalanishning mnemonik ahamiyati. Ta'limda istiqbolli izlanishlar - xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 5.2024. 157 b.
4. Soatov A.J. So'zlarni eslab qolishda hikoya usulidan foydalanishning metodik ahamiyati. Zamonaviy ta'lim jurnali. 7(140). 2024. 39 b.

5. Soatov A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. - Qarshi: Fan va ta'lim. 2022. - 106 b.
6. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Darslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010.-336-39 b.

TALABALARDA SHAKLLANGAN O'QUV MOTIVLARI VA DIQQAT SIFATLARI BOG'LIQLIGINING EMPIRIK TAHLILI

Urinova Latofat Shovkatovna

Turon universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsent v.b. p.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya. Maqolada talabalarda shakllangan o'quv motivlari va diqqat sifatleri bog'liqligining empirik tahlili, talabalarda shakllangan o'quv motivlarining ko'rinishlari va uning diqqat sifatlariga ta'siri, muntazamlik qonuniyati asosida aqliy sifatleri rivojlantirib borishining ilmiy ahamiyati tahlil qilingan.

Tayanch tushunchalar: motiv, motivatsiya, o'quv motivlari, ijtimoiy motivlar, diqqat sifatleri, bilim, maqsad, qiziqish, muntazamlik.

Annotation. Empirical analysis of the relationship between educational motives and qualities of attention formed in students, manifestations of educational motives formed in students and their influence on qualities of attention, scientific significance of developing intellectual qualities based on regularity is analyzed in the article.

Key words: motive, motivation, learning motives, social motives, qualities of attention, knowledge, purpose, interest, regularity.

KIRISH. Zamonaviy ta'limda talabalarining fan asoslarini o'rganishida aqliy sifatlarining rivojlanganlik darajasini o'rganish muammosi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Shu bois "Talabalarda diqqat sifatleri rivojlanishining psixologik xususiyatlari" mavzusidagi tadqiqot ishimiz ushbu muammoni ilmiy o'rganishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Chunki, ta'lim oluvchilarning fan asoslarini o'rganish jarayonida ularda shakllangan o'quv motivlari va diqqat sifatlerini o'rganishga oid chet el va mamlakatimizda o'rganilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish tadqiqot muammosini ochib berishga xizmat qiladi.

Talabalarda shakllangan o'quv motivlarining diqqat sifatlariga bog'liqligini o'rganish, nazarda tutilgan sifatlar bilan bog'liq salbiy muammolarni bartaraf etish, ularning aqliy sifatleri va individual xususiyatlerini har tomonlama tadqiq etishga bog'liqdir. Shu bois har bir talaba bilan individual va guruhiiy shaklda ishlash ularda shakllangan diqqat sifatlariga oid muammolarni o'rganish hamda tadqiqot mavzusiga oid empirik ma'lumotlarni tahlil qilish masalasini asosiy maqsad sifatida belgiladik. Mazkur maqolada ushbu muammoni o'rganish orqali talabalardan olingan empirik ma'lumotlar tahlilini bayon etish ko'zda tutilgan. Chunki talabalarining fan asoslarini o'rganishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan diqqat kabi psixologik sifatleri o'rganish, tahlil qilish va tavsiyaviy xarakterdagi xulosalar chiqarish tadqiqot muammosini yanada boyitadi[2].

ADABIYOTLARNING TAHLILI. Motiv va motivatsiya muammosini psixologiya sohasi namoyandalari K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.N.Myasishev, A.A.Uxtomskiy, D.N.Uznadze, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, P.M.Yakobson, G.Ollport, A.Maslou, P.Galperin, va boshqalar o'z tadqiqot ishlarida o'rganganlar. Bugungi kunda motivatsiyaga oid o'nlab ilmiy konsepsiyalar mavjuddir[4].

O'quv motivlari - bu ta'lim oluvchilarning o'z aqliy sifatlerini maqsad qilingan o'quv faoliyatiga yuqori darajadagi zehniyat va diqqat bilan yo'naltirishdir. Motivlar mazmunan bilish

va ijtimoiy turlarga bo'linadi. Talabalarning diqqatini o'zi o'rganayotgan fanga yo'naltirishi va fan asoslarini ishtiyoq bilan o'rganishlari o'quv motivlariga misol bo'ladi. Talabalarning o'quv jarayonida atrofdagi tengdoshlari va boshqa shaxslar bilan o'zaro faol munosabatda bo'lishlari ijtimoiy motivlariga misol bo'ladi. Ushbu motivlar mazmunan bir-birini taqozo etadi. Shu bois ba'zan talabalardagi o'quv motivlari o'zaro munosabatlarda faol bo'lishni motivlashtirib turadi. Ijtimoiy motivlari ustun bo'lgan talabalarda esa o'zaro munosabatlardagi faollik hisobiga bilish motivlari faollashadi. Ushbu faollikning asosida esa ta'lim muassasasi va talabalar jamoasi o'rtasida shakllangan sog'lom psixologik muhit ta'siri yotadi[3].

O'quv motivlarining shakllari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular dinamik tavsiflarni vujudga keltiradi. O'quv motivlarining eng muhim va asosiy xususiyati-bu barqarorligidir. Bu holat shunday ko'rinishga egaki, bunda u yoki bu motiv har qanday o'quv vaziyatlarida uning ko'pchiligidan yetarli darajada aktuallashib turadi. Motivlarni vujudga kelish shakllaridan biri-bu ularning emotsional-hissiy bo'yoqlarga ega ekanligi yoki modalliklaridir. Motivlar paydo bo'lishining boshqa shakllari uning kuchida, ifodalanishida, vujudga kelish sur'atida aks etadi. Ushbu shakllarning namoyon bo'lishi ko'pincha talabaning aqliy faoliyatida qancha muddat tura olishi, mazkur motiv yordami bilan topshiriq bajarilish miqdori jarayonlari bilan bog'liqdir. Chunki motivlarning kechishi, takomillashishi, mustahkamlanishi xususiyatlari ko'p jihatdan ularning ma'noviy tomonlari bilan, chunonchi dominantligi, harakatchanligi bilan aloqadordir[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. O'quv motivlarining bosqichlari talabalarning o'qishga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Talabalarda shakllangan o'quv motivlarining 3 xil ko'rinishi mavjud:

1. O'qishga bo'lgan salbiy munosabat. Bunday munosabatni noto'g'ri maqsad asosida o'qishga kirgan talabalarda ko'rish mumkin. Ulardagi kelajakka bo'lgan ishonchsizlik, hayot qiyinchiliklariga yengil ko'z bilan qarash, ma'lumotsizlik tufayli paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolardan qochish yoki jamiyatda muayyan statusga ega bo'lish uchungina o'qishga qaror qilinganlik muammoning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Bunday talabalarda ijobiy o'qish motivlarini uyg'otish uchun pedagoglar o'z mahoratini ishga solgan holda sohasining ahamiyatini, jozibadorligini tushuntirish orqali talabalarda fanga va o'qishga nisbatan ijobiy qiziqishni shakllantirishlari lozim.

2. O'qishga bo'lgan befarq munosabat. Bunday munosabatni maqsadiga erishish uchun intilmaydigan talabalarda ko'rish mumkin. Ulardagi harakatsizlik, dangasalik, o'qishga nisbatan yuzaki yondashuv, iroda kuchini maqsad sari safarbar qilishga intilishning yetishmasligi muammoning asosiy sabablaridir. Bunday talabalar raqobatbardosh kadr bo'lish uchun dastavval, o'z ustida ishlash uchun muntazamlik odatini shakllantirishlari lozim. Ushbu ko'nikma orqali o'z qobiliyatini tahsil olayotgan sohasiga mos bilimlarni o'zlashtirishga safarbar qilishlari mumkin. Pedagoglar esa ta'limni bunday toifadagi talabalarning qobiliyatiga mos tarzda tashkil qilishlari lozim.

3. O'qishga bo'lgan ijobiy munosabat. Bunday ijobiy munosabatni barqaror motivatsion qarashlarga ega talabalarda ko'rish mumkin. Ulardagi kelajakka bo'lgan ishonch, maqsad sari qilingan yillar davomidagi muntazam harakat, professional mutaxassis bo'lish uchun o'z ustida tinimsiz ishlash istagi va iroda kuchini natija uchun safarbar qila olish ko'nikmasi ijobiy munosabatni shakllantirgan asosiy omillardir. Bunday talabalarni o'qitish jarayonida pedagoglar ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondira olish darajasida tahsil berishlari lozim. Buning uchun pedagoglardan zamon talablari darjasidagi bilim va kreativlik talab etiladi[1].

Ma'lumotlarni izlash va topish qulay bo'lgan bugungi axborot asrida talabalarni muntazam o'z ustilarida ishlashga, ma'lumotlar ichidan foydalilarini saralab olish ko'nikmasiga o'rgatish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda tashkil qilingan o'quv faoliyati talabalarning qiziqishlariga mos bo'lishi lozim. Talabalar sevimli mashg'ulotini bajarish orqali professional sifatlarga ega bo'lishlariga sharoit yaratilishi muhimdir.

Universitetda o'qish motivatsiyasi har kimda har xil. Bunda kimdir kelajakda ishli bo'lish uchun universitetda o'qish zarur deb hisoblaydi, kimdir muayyan fanlarga qiziqqani uchun yanada rivojlanish maqsadida o'qish muhim deb hisoblaydi, yana kimdir universitet muhiti qiziqarli bo'lgani uchun o'qishga qaror qiladi. Yana bir sabab 2017 yildan boshlab mamlakatimizda abuturentlarning bir vaqtning o'zida bir nechta yo'nalishga hujjat topshirishlariga ruxsat berilganidir. Bunda abuturentlar imtihon natijalariga ko'ra tanlagan yo'nalishining qaysi biridan yuqori ball to'plagan bo'lsa, imkoniyatdan foydalanish maqsadida shu yo'nalishda o'qishga qaror qilishi ham alohida sababdir. Natijada o'zi uchun muhim bo'lgan sohada o'qishni maqsad qilgan talaba qiziqishlaridan farq qilishi mumkin bo'lgan boshqa sohada o'qishni boshlaydi. Bunga sabab sifatida abuturentning qayta tayyorgarlik ko'rib mos yo'nalishga o'qishga kirishi uchun yana bir yil kutishiga to'g'ri kelishi va bu vaqt davomida uning shaxsiy hayotida ham maqsadiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'zarishlarning yuzaga elish xavfi paydo bo'lishi mumkinligidir. Vaqtni boy bermaslik uchun boshqa yo'nalishda o'qishni boshlagan talabada qiziqish bo'lmaydi. Bunday talabalarda o'qishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va tanlagan sohasining ahamiyatini tushuntirish ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonining to'g'ri yo'lga qo'yilishi va o'qituvchilarning samarali o'qitish usullaridan foydalangan holda darslarni tashkil qilishiga ko'p jihatdan bog'liq. O'qituvchilarning talabalarga fan asoslarini qiziqtirish orqali tanlagan sohasining ahamiyatini tushuntirishi talabada o'qishga bo'lgan motivatsiyani va muvaffaqiyatli o'rganishga bo'lgan intilishni oshiradi.

Motivatsiyaning yo'qligi talabada o'rganishga bo'lgan intilishning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayonda o'qituvchining talabada o'qishga bo'lgan munosabatni shakllantirish maqsadida qo'yayotgan talablari va qo'llayotgan majburlov usullari ijobiy samara bermaydi. Shu sabab bunday talabalar o'qish jarayonida noto'g'ri tashkil qilingan ta'lim va individual yondashuvning yo'qligi hisobiga o'zlarining haqiqiy motivatsiyasini anglamasdan o'qiydilar. Natijada ular uchun eng muhimi jarayon emas natija hisoblanadi. Ya'ni ular uchun universitetda yaxshi o'qish orqali kasb sir-asrolarini o'rganish muhim emas, balki oliy dargohni tezroq yakunlab diplom olish asosiy maqsadga aylanib qoladi. Shu sabab motivlarni o'rganish va to'g'ri tahlil qilish juda muhim hisoblanadi. Motivlarning noto'g'ri tanlanishi kasbning noto'g'ri tanlanishiga olib kelishi va bu tanlov kishining farovon kelajagiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ta'lim jarayonini samarali tashkil eish orqali zamonaviy kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalarida biri hisoblanmqa. Bu borada talabalarning kelajakdagi sohalarini maqsadli tanlashlari, individual xususiyatlariga mos o'quv motivlariga ega bo'lishlari, muntazamlik qonuniyati asosida aqliy sifatlarni rivojlantirib borishlari natijani ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Sanab o'tilgan muammolarni inobatga olgan holda talabalar o'quv faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi diqqatga oid sifatlarning rolini o'rganish tadqiqotning o'byekti sifatida belgilandi. Tadqiqotimizda Qarshi davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Qo'qon davlat pedagogika institutlaridan jami 366 nafar talabalar ishtirok etdi. Jumladan, Qarshi davlat universitetidan 126 nafar, Toshkent davlat pedagogika universitetidan 118 nafar va Qo'qon davlat pedagogika institutidan 122 nafar

talabalar tadqiqot jarayonida qatnashdilar (1-jadval).

Emperik tahlil. Tadqiqotimiz davomida talabalarining universitetda o'qishi va o'qishga bo'lgan munosabatini aniqlash maqsadida "O'quv motivlari" so'rovnomasini o'tkazishga qaror qildik. Metodikani qo'llash jarayonida uchta shkala tahlil qilindi. Bular: "Bilim olish", "Kasbiy sifatlarga ega bo'lish" va "Ma'lumotga ega bo'lish" shkalalaridir. Tadqiqot natijasida quyidagi ma'lumotlar olindi.

O'quv motivlari so'rovnomasi natijalari

1-jadval

t/r	O'quv motivlari shkalasi	Qarshi DU (n=126)				ToshkentDP U (n=118)				Qo'qonDU (n=122)			
		Yuqori %	Yaxshi %	O'rta %	Past %	Yuqori %	Yaxshi %	O'rta %	Past %	Yuqori %	Yaxshi %	O'rta %	Past %
1.	Bilim olish	11	38	31	20	12	37	32	19	10	36	33	21
2.	Kasbiy sifatlarga ega bo'lish	22	34	33	11	24	35	31	10	20	33	34	13
3.	Ma'lumotga ega bo'lish	19	29	33	19	20	27	34	19	18	28	31	23
	Jami	17	34	32	17	19	33	32	16	16	32	33	19

Qarshi davlat universiteti talabalarida "Bilim olish", "Kasbiy sifatlarga ega bo'lish" va "Ma'lumotga ega bo'lish" shkalalari bo'yicha qayd etilgan ko'rsatgichlarga to'xtalib o'tamiz. "Bilim olish" shkalasi bo'yicha 11 % talabada yuqori natija qayd qilindi. 38 % talabalarda natija yaxshi 31 % talabalarda o'rta darajada va 20 % talabalarda past darajadagi natija aniqlandi. "Kasbiy sifatlarga ega bo'lish" shkalasi bo'yicha 22 % talabada yuqori natija, 34 % talabalarda yaxshi natija 33 % talabalarda o'rta darajada va 11 % talabalarda past darajadagi natija aniqlandi. "Ma'lumotga ega bo'lish" shkalasi bo'yicha 19 % talabada yuqori natija, 29 % talabalarda yaxshi natija 33 % talabalarda o'rta darajada va 19 % talabalarda past darajadagi natija aniqlandi.

Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalarida "Bilim olish", "Kasbiy sifatlarga ega bo'lish" va "Ma'lumotga ega bo'lish" shkalalari bo'yicha qayd etilgan ko'rsatgichlarga to'xtalib o'tamiz. "Bilim olish" shkalasi bo'yicha 12 % talaba yuqori natijani, 37 % talabalar yaxshi natijani, 32 % talabalar o'rta darajadagi natijani va 19 % talabalar past natijani ko'rsatdi. "Kasbiy sifatlarga ega bo'lish" shkalasi bo'yicha 24 % talabada yuqori natija, 35 % talabalarda yaxshi natija 31 % talabalarda o'rta darajada va 10 % talabalarda past darajadagi natija aniqlandi. "Ma'lumotga ega bo'lish" shkalasi bo'yicha 20 % talabada yuqori natija, 27 % talabalarda yaxshi natija 34 % talabalarda o'rta darajadagi natija va 19 % talabalarda past natija qayd qilindi.


Qo'qon davlat pedagogika instituti talabalarida "Bilim olish", "Kasbiy sifatlarga ega bo'lish" va "Ma'lumotga ega bo'lish" shkalalari bo'yicha qayd etilgan ko'rsatgichlarga to'xtalib o'tamiz. "Bilim olish" shkalasi bo'yicha 10 % talabada yuqori natija qayd qilindi. 36 % talabalarda natija yaxshi 33 % talabalarda o'rta darajada va 21 % talabalarda past darajadagi natija aniqlandi.

“Kasbiy sifatlarga ega bo‘lish” shkalasi bo‘yicha 20 % talabada yuqori natija, 33 % talabalarda yaxshi natija 34 % talabalarda o‘rta darajada va 13 % talabalarda past darajadagi natija aniqlandi. “Ma‘lumotga ega bo‘lish” shkalasi bo‘yicha 18 % talabada yuqori natija, 28 % talabalarda yaxshi natija 31 % talabalarda o‘rta darajada va 23 % talabalarda past darajadagi natija aniqlandi.

Qarshi davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Qo‘qon davlat pedagogika instituti talabalarida o‘quv motivlarining tajriba boshida shakllanganlik darajasi quyidagi 2-rasmda keltirilgan.

2-rasm

Talabalarda rivojlangan o‘quv motivlarining tajriba boshida shakllanganlik darajasi



“O‘quv motivlari” so‘rovnoma bo‘yicha olingan natijalarni tahlil qilish jarayonida sinaluvcilar guruhlarida o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligi yoki yo‘qligiga ham e‘tiborni qaratdik. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra Toshkent DPU talabalarida o‘quv motivlarining shakllanganlik darajasi Qo‘qon DPI va Qarshi DU talabalarinikiga nisbatan yaxshi shakllangani ma‘lum bo‘ldi.

Empirik natijalarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, Toshkent DPU talabalarida o‘quv motivlari nisbatan yuqori ko‘rsatgichni tashkil etgan bo‘lsa, Qo‘qon DPI talabalarida esa o‘quv motivlari o‘rtacha ko‘rsatgichni tashkil qildi. Qarshi DU talabalarida o‘quv motivlarining nisbiy ko‘rsatgichi past natijani tashkil qildi.

Bu Qarshi DU talabalarida o‘quv motivlarining shakllanganlik darajasi bo‘yicha ortda qolayotganligidan dalolat beradi. Demak o‘quv motivlarining shakllanganlik darajasi Qarshi DU talabalarining birinchi kursga qabul qilinganidan boshlab alohida e‘tiborga olinishi zarur. Olingan natijalarni tahlil qilganimizda biz o‘rgangan birinchi va uchinchi kurs talabalarida ham mavjud holat kuzatilgani ma‘lum bo‘ldi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Xulosa qilib aytganda boshqa turdagi motivlar singari o‘quv motivlari ham tizimli faoliyatni talab qiladi. Ushbu jarayonda yo‘nalishning to‘g‘ri tanlanishi, maqsadga erishish uchun barqaror harakat va natijaga o‘z vaqtida erishish dinamikasi talab qilinadi. Shu bois, motivatsiyani ilmiy tahlil qilishda eng muhim vazifalardan biri dominant

motivni aniqlash va unga erishish jarayonida motivatsion sohaning yondash komponentlarini ham inobatga olgan holda faoliyat yuritish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Soatov.A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Qarshi: Fan va ta'lim. 2022.-102 b.
2. Urinova L.Sh. Diqqatning MDH psixologlari tomonidan o'rganilishi. O'zMU xabarleri jurnali. Yanvar 2023. 199-202 b.
3. Urinova L. Вестник интегративной психологии. "Роль развития качеств внимания в учебной деятельности учащихся". 2022.-372 с.
4. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Darslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010.-336-39 b.

PEDAGOGIK NIZOLAR TURLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Erkinov Muslimbek Mo'yiddin o'g'li

Turon universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi.

erkinovmuslimbek2020@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy maktablari tizimida "o'qituvchi-o'quvchi", "o'qituvchi va ota-ona", "o'qituvchi-ma'muriyat", shuningdek, "o'qituvchi-o'qituvchi" nizolarining kelib chiqish sabablari hamda unlarining oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida bo'lib, ushbu masala yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqotchilar fikrlariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nizolar, ta'lim, tarbiya, konfliktogen, konstruktiv, "aqliy hujum", hamdardlik, qarama-qarshilik.

Annotation This article is about the reasons for the origin of the "teacher-student", "teacher and parent", "teacher-administration", "teacher-teacher" disputes in the system of secondary schools and measures to prevent them, and was brought to the opinion of a number of scientific researchers on this issue.

Key words: conflict, education, upbringing, conflict, constructive, "mental attack", sympathy, confrontation.

KIRISH. Jahon ta'lim tizimida global o'zgarishlar natijasida erkin fuqaro shaxsini tarbiyalashga bo'lgan e'tibor yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llash, gumanizm, tolerantlik, ijtimoiy intellekt, insonlar bilan o'zaro munosabatda kommunikativlik kabi fazilatlarni rivojlantirish texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishga undamoqda. YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha qabul qilingan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "ta'lim oluvchilarda muloqotda hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish" dolzarb vazifa sifatida belgilanib, ularning ijtimoiy tajriba orttirishi uchun tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxslararo munosabatlarda kirishimlilik, madaniyatlilik, xushfe'llik, xushmuomalalikni maromiga yetkazish prinsiplariga amal qilish, mazkur sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan yirik loyihalar amaliyotga tatbiq etilmoqda [1]

Jahon va ilmiy tadqiqot ta'lim muassasalarida mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilib, dunyoning turli mintaqalari va alohida davlatlarida destruktiv holatlarning kuchayishi natijasida yoshlar, ayniqsa, ta'lim oluvchilarining individual-psixologik va ijtimoiy rivojlanishida ijtimoiy muhit, yon-atrofdagilarning ta'sirini tadqiq qilish, o'smir va o'spirin yoshidagi o'quvchilarda yuqori darajadagi asabiylik va qo'zg'aluvchanlik, o'zgalar va yon-atrofdagilar bilan munosabatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga fiziologik hamda ijtimoiy-psixologik omillar bilan tavsiflanuvchi bu o'zgarishlar ta'lim oluvchi ruhiyatida ham yuz berib, pedagogik jamoada ta'lim sub'ektlari orasida turli nizolar va ziddiyatlarning paydo bo'lishiga sabablarini hamda ularni kamaytirish yo'llarini belgilash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Maktab, boshqa har qanday ta'lim muassasasi singari, nafaqat o'quv jarayoni, balki bir-biri bilan aloqa qiladigan, bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan mutlaqo boshqa odamlarning guruh

o'zaro ta'siri bunday o'zaro ta'sir jarayonida ko'plab ziddiyatli vaziyatlar yuzaga keladi, ishtirokchilar va umuman ta'lim muassasasi ushbu ziddiyatli vaziyatlarni turli yo'llar bilan hal qilishga intilishadi.

ADABIYOTLARNING TAHLILI. Jahon psixologiyasida o'quv jarayonining muhim qismi bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar tizimi sifatida nizolarni ifodalovchi psixologik va pedagogik omillar A. Y.Antsupov, N.V.Grishina, B.P.Jiznevskiy, Y.L.Kolominskiy kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Rus psixologlari A. S. Belkin, T. V. Dragunova, E. T. Lixachev, N.I.Boldirev, V.A.Suxomlinskiy, E.N.Badanov, I.V.Kuzmina, A.K.Markova, D.M.Mitina hamda E.I.Rogov tomonidan o'quvchilarning axloqiy yetukligini aniqlash vositalari, shuningdek, o'quv faoliyatidagi ziddiyatli vaziyatlarni konstruktiv ravishda hal qilish borasida tadqiqot ishlarini olib borilgan. Keyinchalik bu mavzu V.M.Afonkova, D.I.Bojovich, G.M.Boltunova, T.V.Dragunova, V.I. Zagvyazinskiy va boshqalarning asarlarida davom etdi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI. Nizolarga borgan ob'ektlarga qarab, mavzuni ko'rib chiqishning to'rtta asosiy turini ajratish mumkin:

1. o'qituvchi-o'quvchi;
2. o'qituvchi-ota-ona;
3. o'qituvchi-ma'muriyat;
4. o'qituvchi-o'qituvchi nizolari.

Nizolarni pedagogik jarayonda mohirona ishlatish uchun, albatta, nazariy asosga ega bo'lish kerak: dinamikani va barcha tarkibiy qismlarni bilish lozim. Darhaqiqat, nazariy bilimlarsiz ziddiyatli vaziyatning mohiyatini tushunish va uni hal qilishning to'g'ri usullarini topish mumkin emas.

A. G. Isaeva fikriga ko'ra, pedagogik nizolarning xususiyatlari ajralib turadi:

- tomonlarning turli xil ijtimoiy holatlari. Shunga ko'ra, nizolardan chiqishning samarali shaklini topish jarayoni ancha qiyin.

- vaziyatga boshqacha qarash. Ko'pincha o'qituvchi har doim ham raqibni tushuna olmaydi va u o'z navbatida his-tuyg'ularga berilib ketadi.

- tashqi kuzatuvchilarning mavjudligi. Maktab jamoat joyidir va har qanday vaziyat o'quvchilar uchun yorqin namunaga aylanadi. O'qituvchi har doim nizolarga duch kelganda buni yodda tutishi kerak. O'qituvchi har qanday sharoitda o'quv jarayonini olib borishi kerak.

- maktab jamiyatning namunasidir! Ushbu modeldagi o'qituvchi jamiyatdagi xulq-atvor normalarining asosiy ko'rsatkichidir.

- xato qila olmaslik. Nizolarni hal qilishda o'qituvchining har qanday noto'g'ri qadami muqarrar ravishda yangi muammolar va to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin [2].

Har qanday nizolarning paydo bo'lishi uchun ikkita omil bo'lishi kerak: ziddiyatli vaziyat va voqea [2].

S.Yu. Temina ta'kidlaganidek, nizolar turli harakatlarda namoyon bo'lishi mumkin:

1. Konfliktogen. G'azab, jazoni qo'llash, o'quvchining shaxsini salbiy baholash, uni haqorat qilish, masxara qilish va h.k.

2. Nizolarga chidamli. Muammoni hal qilishni davom ettirish va kechiktirish, murosali harakatlar.

3. Konstruktiv. Vaziyat rivojlanishining noqulay yo'nalishini o'zgartirish bo'yicha harakatlar [3].

Birinchi turdagi harakatlar keskinlikning kuchayishiga va nizolarning kuchayishiga yordam beradi, o'qituvchining asosiy funksiyasiga javob bermaydi - o'quvchilar shaxsini rivojlantirish uchun eng qulay sharoitlarni yaratish. Ikkinchi turdagi harakatlar pedagogik muammoni hal qilmaydi, chunki ular ziddiyatli vaziyatni kechiktirishga olib keladi va vaqt o'tishi bilan uni samarali hal qilish imkoniyatini murakkablashtiradi. Uchinchi turdagi harakatlar, agar ulardan yetarli va malakali foydalanilsa, o'qituvchiga o'quv guruhining paydo bo'lgan psixosotsiyal tarangligini yumshatishga, o'z funksiyalarini bajarishga va ma'lum vaqt ichida mavjud nizolarni hal qilishga imkon beradi.

Nizoli vaziyatlarning ayrim turlarini, paydo bo'lish sabablarini va ularni qanday hal qilishi:

O'quvchi — o'quvchi nizolari. Bolalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, shu jumladan maktab hayotida ham keng tarqalgan. Bunday holda, o'qituvchi qarama-qarshi tomon emas, lekin ba'zida o'quvchilar o'rtasidagi nizoda ishtirok etish kerak.

O'quvchilar o'rtasidagi nizolarning sabablari:

- "hokimiyat" uchun kurash
- raqobat
- yolg'on, g'iybat
- haqorat
- xafagarchilik
- o'qituvchining sevimli o'quvchilariga dushmanlik
- shaxsga nisbatan shaxsiy adovat
- o'zaro munosabatsiz hamdardlik
- qiz (o'g'il) uchun kurash.

Bunday kelishmovchiliklarni konstruktiv tarzda qanday hal qilish kerak? Ko'pincha bolalar ziddiyatli vaziyatni kattalarning yordamisiz mustaqil ravishda hal qilishlari mumkin. Agar o'qituvchining aralashuvi hali ham zarur bo'lsa, buni xotirjam shaklda qilish muhimdir. Bolaga bosim o'tkazmasdan, omma oldida kechirim so'ramasdan, maslahat bilan cheklanib qolish yaxshiroqdir. Agar o'quvchi ushbu muammoni hal qilish algoritmini o'zi topsa yaxshi bo'ladi. Konstruktiv ziddiyat bolaning tajribasiga ijtimoiy ko'nikmalarni qo'shadi, bu unga tengdoshlari bilan muloqotda yordam beradi, kattalar hayotida unga foydali bo'lgan muammolarni hal qilishni o'rgatadi.

Ziddiyatli vaziyatni hal qilgandan so'ng, o'qituvchining bola bilan suhbat muhimdir. O'quvchini ismi bilan chaqirish yaxshi, u ishonch va xayrixohlik muhitini his qilishi muhimdir.

Bola tez-tez janjallashadi va do'stlari hamda sevimli mashg'ulotlari bo'lmasa, bo'sh vaqtlari ko'p bo'ladigan bo'lsa, tajovuzni ko'rsatadi. Bunday holda, o'qituvchi o'quvchining ota-onasi bilan suhbatlashishi, bolani uning manfaatlariga muvofiq to'garaklar yoki sport seksiyalariga borishni tavsiya etish orqali vaziyatni to'g'irlashga harakat qilishi mumkin. Qo'shimcha to'garaklar dars ortiqcha keraksiz mashg'ulotlarga vaqt qoldirmaydi, qiziqarli va foydali o'yin-kulgi, yangi tanishlar ortirishga yordam beradi.

O'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- ta'lim vositalari haqida tomonlarning turli xil g'oyalari
- ota-onaning o'qituvchini o'qitish usullaridan noroziligi
- shaxsiy yoqtirmaslik
- ota-onaning bolaga asossiz baho bermaslik haqidagi fikri.
- O'quvchining ota-onasi bilan ziddiyatni hal qilish usullari:

Agar maktabda ziddiyatli vaziyat yuzaga kelsa, uni xotirjam tushunish muhimdir. Odatda, hamma narsa quyidagi tarzda sodir bo'ladi: ziddiyatli odam o'z xatolariga ko'z yumadi, shu bilan birga ularni raqibidan qidiradi [3].

Vaziyat ehtiyotkorlik bilan baholanganda va muammo bayon etilganda, o'qituvchiga ota-onaga bilan ziddiyatning asl sababini topish, ikkala tomonning harakatlarining to'g'riligini baholash, nizoli vaziyatlar konstruktiv hal qilish yo'lini belgilash osonroq bo'ladi.

Rozilik yo'lidagi keyingi qadam o'qituvchilar va ota-onalarning ochiq muloqoti bo'lib, unda tomonlar tengdir. Vaziyatni tahlil qilish o'qituvchiga ota-onaga muammo haqida o'z fikrlari va g'oyalarini ifoda etishga, tushunishni namoyish etishga, umumiy maqsadni aniqlashtirishga va birgalikda mavjud vaziyatdan chiqish yo'lini topishga yordam beradi

“O'qituvchi — o'quvchi” nizolari. Bunday nizolar, ehtimol, eng tez-tez uchraydi, chunki o'quvchilar va o'qituvchilar birgalikda ota-onalarga va bolalarga qaraganda kamroq vaqt sarflashadi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi nizolarning sabablari:

- o'qituvchilarning talablarida birlikning yo'qligi
- o'quvchi uchun ortiqcha talablar
- o'qituvchi talablarining nomuvofiqligi
- o'qituvchining o'zi tomonidan talablarni bajarmaslik
- o'quvchi o'zini kam baholangan deb hisoblaydi
- o'qituvchi o'quvchining kamchiliklari bilan kelisha olmaydi
- o'qituvchi yoki o'quvchining shaxsiy fazilatlarini (asabiylashish, nochorlik, qo'pollik).

O'qituvchi va o'quvchi nizolarini hal qilish

Nizolarga olib kelmasdan, keskin vaziyatni yumshatish yaxshiroqdir. Buning uchun siz ba'zi psixologik usullardan foydalanishingiz mumkin.

Achchiqlanish va ovozning ko'tarilishiga tabiiy reaksiya shunga o'xshash harakatlardir. Ko'tarilgan ohanglardagi suhbatning natijasi nizolarning kuchayishi bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining to'g'ri harakati o'quvchining zo'ravon reaksiyasiga javoban xotirjam, do'stona, ishonchli ohang bo'ladi. Tez orada bola o'qituvchining xotirjamligini his etgan holda o'zinida ham xotirjamlik his etadi [4].

Norozilik va asabiylashish ko'pincha dars topshiriqlarini bajarmaydigan orqada qolgan o'quvchilardan kelib chiqadi. Mas'uliyatli vazifani ishonib topshirish va uni yaxshi bajarishga ishonch bildirish orqali o'quvchini akademik yutuqlarga ilhomlantirish va noroziliklarini unutishga yordam berish mumkin.

O'quvchilarga nisbatan do'stona va adolatli munosabat sinfdagi sog'lom muhitning kaliti bo'ladi, tavsiya etilgan tavsiyalarga rioya qilishni qiyinlashtiradi.

Pedagogik ziddiyatni hal qilish algoritmi.

- Nizolarning mohiyatini aniqlang: uning sabablari, ishtirokchilari, oqibatlarini.
- Vaziyatni tahlil qilish va nizolarni hal qilish uchun jamoa tuzing: unga faqat bitta to'g'ridan-to'g'ri guvohlar, hamkasblar, sinf jamoasi kirishi mumkin.
- Nizolarni tahlil qilishda yetakchining rolini aniqlang.
- Vaqt va joyni aniqlang. Qarama-qarshilik o'rtasida vaziyatni hal qilishni boshlamaslik muhimdir. Har bir inson tinchlanishi va konstruktiv suhbatga moslashishi kerak.
- Qoidalarni belgilang: xalaqit bermang, haqorat qilmang, yolg'on gapirmang.
- Ikkala tomonning pozitsiyasini tinglang. Suhbat davomida savollarga javob bering. Nima bo'ldi? Nima uchun bu sodir bo'ldi? Raqiblar o'rtasida qanday his-tuyg'ular paydo bo'ldi?

Keyin qanday bo'lish kerak? Vaziyatni hal qilish bo'yicha takliflarni to'plang. Masalan, "aqliy hujum"ni o'tkazing. Umumiy ro'yxatdan tanlang, ikkala tomonni ham qondiradigan taklif [5].

XULOSA VA TAVSIYALAR. Xulosa qilar ekanmiz, buyuk Chex pedagogi Yan Amos Komineskiyning asarlaridagi quyidagi fikrini keltiramiz, "O'qituvchilik har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq darajada turadi" [6] Gohida bir kishi bitta bolaga tarbiya beraolmasligi mumkin, lekin muallim bolalarga ilmu-adab o'rgatadi, bu mashaqqatlarni o'z boshidan kechiradi. Shu bois muallimga qulluq qilsa arziydi. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixologiyada ham pedagogikada ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatni, ijtimoiy psixologik munosabatlardan foydalanishni bilishi, oldini qaytara olishi zarur. Bo'lajak pedagog pedagogik nizolarning yuzaga kelish asoslari bilan tanishishi ya'ni bunday nizolarni kelib chiqish sabablarini anglashi, shu o'rinda turli nizolarni oldini olish, bartaraf etish usullari haqida nazariy bilimlarni amaliyotda keng tatbiq eta olishi lozim. Shunday ekan bo'lajak pedagoglardan yuksak bilim, tajriba, o'z kasbiga sadoqat va mahorat talab etiladi.

Nizolar har qanday qarama-qarshiliklardan dalolat berganligi sababli, ularni anglashga harakat qilish kerak va shundan keyingina ushbu qarama-qarshiliklarni eng konstruktiv usul bilan olib tashlash kerak. Shuningdek, o'z vaqtida hal qilingan nizolar kuchaymaydi va to'planmaydi. O'z navbatida, shaxslararo munosabatlarda ham, pedagogik faoliyatning samaradorligida ham ijobiy aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). 6p. 26P.
2. Sementsova, E. I.,. Maktab nizolari: turlari, echimlari, usullari va misollari.01.12.2013.[Internet-resurs] - kirish rejimi: <http://pedsovet.su>
3. Isayeva, A. G. Pedagogik nizolarni hal qilish texnologiyasi. [Internet-resurs] kirish rejimi: <http://www.rastut-goda.ru>
4. Temina S. Yu. Maktabdagi nizolar yoki nizolar maktabi. -M.-:2002, -144 b.
5. Xolmuminova B. A. Pedagogik nizolarning sabablari va ba'zi xususiyatlari // yosh olim. -2016. -№10.
6. Komineskiy. Y. A. "Buyuk didaktika". "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent.: - 1975-yil.
7. Erkinov M.M. "Socio-psychological aspects of conflict situations between teachers and students", "Science and innovation". international scientific journal. volume 2, ISSUE 5, may 2023. UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ.

SIMMETRIYA HISSI PSIXIK HODISA SIFATIDA

Normirzayev Yunus Rajabali o'g'li

Turon universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada simmetriya hissi, uni shakllantirish masalalari, simmetriya hissini psixik jarayonlar bilan bog'liqligi, simmetriya hissi odamlar uchun ko'pincha go'zallik va tartibni ifodalovchi, hushyorlik va xavfsizlikni his qilishga yordam beradigan asosiy omil sifatida yuzaga kelishi o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *simmetriya hissi, idrok, ko'rish idroki, ijodiy tafakkur, tasvir, shakl.*

Annotation. *The article examines the sense of symmetry, issues of its formation, the connection between the sense of symmetry and mental processes, the fact that the sense of symmetry often represents beauty and order for people and is the main factor helping them feel cheerful and safe.*

Key words: *sense of symmetry, perception, visual perception, creative thinking, image, form.*

KIRISH. Emotsiya va his-tuyg'ular psixologiyaning alohida katta sohasidan biridir. Amerikalik olim D.G. Mayersning biroz soddalashtirilgan ta'rifiga ko'ra psixologiya odamlarning fikrlashi, his qilishlari va harakatlarini o'rganadi[1].

Ushbu mantiqdan kelib chiqib, his-tuyg'ular psixologiyaning ma'lum bir qismini tashkil qiladi, deb hisoblashimiz mumkin. Shu bilan birga, psixologiya fanida inson hissiy kechinmalarining qonuniyatlari va mexanizmlari to'g'risida juda ko'p bilim to'planganiga qaramay, adabiyotlarda simmetriya hissi kabi hissiy hodisa haqida alohida va hajmli ma'lumotlar yo'q. Lug'atlarda bu hodisaning ta'rifi keltirilmagan, darsliklarda ushbu tuyg'uni o'z ichiga olgan hissiy kechinmalarining tasnifi yo'q. Turli xil psixologiya tarmoqlarida masalan (individual, yosh, gender, ijtimoiy, kasbiy va boshqalar) bu hodisaning xususiyatlarini ochib beradigan ma'lumotlar mavjud emas. Garchi nufuzli olimlar tomonidan simmetriya hissi kabi tushunchalar qadim zamonlardan beri insonga xos bo'lganligi haqidagi qarashlar mavjud bo'lsada.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Akademik V.I. Vernadskiy o'zining "Yer biosferasi va uning atrof-muhitining kimyoviy tuzilishi" ("Химическое строение биосферы Земли и ее окружения") fundamental asarida simmetriya hissi va uni kundalik hayotda ifodalashning haqiqiy istagi insoniyatda paleolit davridan beri mavjud edi, deb yozgan edi.[3]

Shuningdek, L.N. Tolstoy tomonidan berilgan savollar ham psixologik tadqiqotchilar uchun juda qiziqarlidir. "O'smirlik" ("Отрочестве") asarida shunday deydi: "Bir kuni qora doska oldida turib, unga bo'r bilan turli xil figuralarni chizarkanman, birdan hayron bo'ldim: nega simmetriya ko'zni quvontiradi? Simmetriya nima? Bu tug'ma tuyg'u. U nimaga asoslanadi? Hayotda hamma narsada simmetriya bormi?" [2]

Simmetriya "yunoncha" so'zdan olingan bo'lib "mutanosiblik", "bir xillikni o'lchash" degan ma'noni anglatadi.

Simmetriya hissi — bu insonning muhitidagi shakl, tuzilish yoki tartibni muvozanatli va simmetrik deb qabul qilishdan hosil bo'ladigan estetik his. Bu hissiyot ko'plab sohalarda, jumladan san'at, tabiat, arxitektura, va psixologiyada muhim rol o'ynaydi. Simmetriya hissi

odamlar uchun ko'pincha go'zallik va tartibni ifodalovchi, hushyorlik va xavfsizlikni his qilishga yordam beradigan asosiy omil sifatida yuzaga keladi.[1]

A. Maslou o'zining "Motivatsiya va shaxs" ("«Мотивация и личность»") asarida simmetriya hissini eng yuqori ehtiyojlardan biri - estetik ehtiyojning o'ziga xos ko'rinishi deb hisoblaydi.[4]

Simmetriya hissi, shuningdek, insonning estetik talablari va hissiyotlariga ham bog'liq. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlar simmetrik yuzlar yoki obyektlarga ko'proq ijobiy munosabatda bo'lishadi. Bu holat "simmetriya afzalligi" deb nomlanadi, ya'ni simmetrik shakllar yoki yuzlar ko'proq jozibali va go'zal deb qabul qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Simmetriya hissi haqidagi tushuncha, ayniqsa, insoniyatning estetik va psixologik tafakkurida katta o'rin tutadi. Simmetriya nafaqat san'at va tabiatda, balki inson hissiyotlari va umuman ruhiy holatlarda ham o'z aksini topadi. Bu hisni yanada chuqurroq tushunish uchun, quyidagi jihatlar va misollarni ko'rib chiqish mumkin:

Simmetriya hissi go'zallik va jozibadorlikning markaziy omilidir. Psixologlar ko'pincha simmetrik shakllar va yuzlar insonning go'zallikni qanday idrok etishiga katta ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Misol uchun, yuz simmetriyasining go'zallikka ta'siri ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Yuz yoki tanalar simmetrik bo'lganda, odamlar ularni ko'proq jozibali deb bilishadi.

Biror narsaning simmetrik bo'lishi, uning tartibga solingan va boshqariladigan deb qabul qilinishiga olib keladi. Shu sababli, ko'plab psixologik tadqiqotlar simmetriya va tartibning odamlarning hissiy holatiga ta'sir qilishini ko'rsatgan. Masalan, stressni kamaytirish va umumiy ruhiy barqarorlikni saqlash uchun simmetriya hissi bo'lish muhimdir.

Simmetriya hissi inson tajribasida muhim o'rin tutadi, chunki u go'zallik, tartib, xavfsizlik va salomatlikni ifodalaydi. Shu bilan birga, simmetriya o'zining estetik ahamiyati bilan birga psixologik va biologik xususiyatlarga ham ta'sir qiladi. Bu hissiyotlarning tafakkurimizdagi o'rni, san'at, tabiat va insoniyatning umumiy ruhiy holatida muhim rol o'ynaydi.

Shakllarni idrok etishda simmetriya hissi juda muhim rol o'ynaydi. Shakllarni tanib olishda simmetriya hissi quyidagi jihatlariga ta'sir qiladi. Masalan: Simmetriya odamning vizual idrokiga juda ta'sir qiladi. Shakllar va tasvirlar simmetrik bo'lganda, miyamiz ularni tezda tanib oladi. Bu esa simmetrik shakllar miyaning ba'zi hududlarida ko'proq faoliyatni talab qilmasligi sababli, ular kamroq energiya sarflaydi va tezroq idrok qilinadi. Odamlar tabiatda ko'rilgan simmetrik shakllarni boshqa shakllardan ko'ra tezroq eslab qoladi.

Simmetriya idrokni yaxshilaydi, shakllarni tez va aniq aniqlashga yordam beradi, estetik va psixologik jihatdan odamlar uchun jozibali bo'ladi. Bu insoniyatning tabiiy idrok mexanizmlaridan biridir va ko'plab sohalarda - san'at, dizayn, arxitektura, va hatto ilmiy tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega.

Bolalarning tafakkur jarayonlarida simmetriya hissining o'rni juda muhimdir, chunki simmetriya bolalarga nafaqat vizual idrokni rivojlantirishda, balki kognitiv (aql) va motor (harakat) ko'nikmalarini shakllantirishda ham katta yordam beradi. Simmetriya bilan ishlash, bolalar uchun dunyoni tushunish va muhitga moslashishda o'ziga xos o'quv jarayonini tashkil qiladi[5].

XULOSA VA TAVSIYALAR. Simmetriya bolalar tafakkurida estetik va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bolalar simmetrik naqshlar va tasvirlar orqali san'at va dizaynni o'rganishni boshlaydilar. Simmetriya, ularni ranglar, shakllar va naqshlar yordamida yaratuvchanlikni rivojlantirishga ilhomlantiradi. Bolalar simmetrik tasvirlarni ko'rib, ularni

yaratishda o'z tasavvurlarini kengaytiradilar. Simmetriya bolalarning tafakkur jarayonlarida katta ahamiyatga ega. U bolalarga shakl va strukturani tushunish, kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish, matematik fikrlashni o'rgatish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, motor ko'nikmalarini oshirish va ijtimoiy emotsional rivojlanish uchun muhim asos yaratadi. Shuning uchun, bolalar ta'limi va rivojlanishida simmetriya hissini qo'llash ularning umumiy tafakkur salohiyatini mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi.

Bolalarning tafakkurini rivojlantirish ularning muvaffaqiyatli ta'lim olishining asosiy shartlaridan biridir. Yaxshi fikrlash, xotira va ijodkorlik bilan bog'liq ko'plab faoliyat sohalarida muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi. O'qish faoliyatining boshida matematika, o'qish va yozish sohasidagi fundamental bilimlarni o'zlashtirish muvaffaqiyatini belgilaydigan muhim omil bu mantiqiy fikrlashdir. Aqliy faoliyatning bu turini rivojlantirish uchun yuqorida muhokama qilingan simmetriya tushunchasi alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Майерс, Д.Г. “Психология” [Текст] / Д.Майерс / Перевод с англ. И.А. Карпиков, В.А. Старовойтова; Худ. обл. М.В. Драко. – Мн.: ООО «Попурри», 2001. – 828 с.
2. Толстой, Л.Н. “Отрочество” [Текст] / Л.Н.Толстой // Полное собрание сочинений в 90 томах / Под общей ред. В.Г. Черткова. – М.: РГБ, 2006. – Т. 2. – С. 3-75.
3. Вернадский, В.И. “Химическое строение биосферы Земли и ее окружения” [Текст] / В.И. Вернадский. – М.: Наука, 2001. – 376 с.
4. Маслоу, А. “Мотивация и личность” [Текст] / А. Маслоу, пер. с. англ. – 3-е изд.– СПб Питер, 2008. – 352 с.
5. Исмаилов, А.Д. Развитие образного мышления младших школьников на занятиях декоративно-прикладным искусством: Автореф. дис. ... канд. психол. наук [Текст] / А.Д. Исмаилов. – М., 1988. – 18 с

VOYAGA YETMAGANLARDAGI AGRESSIV XULQ – JINOYATCHILIK VA XUQUQBUZURLIKNI KELITIRIB CHIQRUVCHI ASOSIY OMIL SIFATIDA

Sadatova Nodira Musurmonovna

Turon universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada agressiv xulq-atvorli voyaga yetmaganlar bilan munosabatda bo'lish, agressiv xulqning ko'rinishlari, agressiyaning paydo bo'lishidagi turli omillar va ularni bartaraf etish choralari bo'yicha ma'lumot olish va ta'sir etish bo'yicha kerakli hamda samarali tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *agressiya, agressiv xulq, adaptatsiya, frustratsiya, stress, emotsional inkluziya, tarbiyasi qiyin o'smirlar, jinoyatchilik, psixologik ta'sir, psixologik xususiyat, pubertat davri, o'tish davri, krizis davr, qiyin davr*

Annotation. *This article provides the necessary and effective recommendations on how to deal with minors of aggressive behavior, the manifestations of aggressive behavior, obtaining and influencing information on various factors in the occurrence of aggression and measures to eliminate them.*

Key words: *aggression, aggressive behavior, adaptation, frustration, stress, emotsional inkluziya, difficult adolescents to educate, crime, independent life, values, puberty, transitional period, crisis period, difficult period*

KIRISH. Bugungi kunda mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning taqdiri, uning ijtimoiy himoyasi davlatimiz siyosatining asosiy va ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu boisdan, mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bilan bir qatorda, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ertangi kuni, ularning jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida davlat miqyosida ulkan darajadagi ishlar amalga oshirilmogda[1].

Bugungi globallashuv davrida yoshlar ma'naviyatini asrash, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oyalar ta'siridan saqlash hamda mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarb vazifadir. Albatta, yoshlarni buzg'unchi g'oyalar ta'siriga olishni istaydigan kuchlar juda ko'p.

Ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, bolalar va o'smirlar xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va ularning sabablarini o'rganmasdan turib, uni faqatgina statistik jihatdan tahlil qilish bilangina bunday hodisalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bo'lmaydi. Shunga ko'ra, tarbiyadagi nuqsonlar va voyaga yetmaganlarda jinoyat xulqining paydo bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillari hamda sabablarini har tomonlama o'rganish zaruriyati kelib chiqadi[1].

Voyaga yetmaganlardagi agressiv xulq jinoyatchilik va huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan biri sifatida ko'riladi. Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda insonlararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xarakteristikalaridan biri agressivlikdir. Psixologiyada "agressiya" tushunchasi turlicha yondashuv asosida tahlil qilingan bo'lib, bir guruh tadqiqotchilar agressiyaning negativ xulq-atvor modeli sifatida baholasalar, yana bir guruh tadqiqotchilar bu xulq-atvorning pozitiv

tomonlari ham mavjudligini ta'kidlaydilar. Agressiv xulq-atvor shaxsning ijtimoyilashish jarayonida bir qator asosiy funksiyalarni bajaradi. Meyorga muvofiq, u qo'rquvdan qutqaradi, o'z qiziqishlarini himoya qilishga ko'maklashadi, tashqi xavfdan himoya qiladi, adaptatsiyaga ko'maklashadi. Bu borada agressiyaning ikkita turi haqida fikr yuritish mumkin: yaxshi sifatli adaptiv va destruktiv – dezadaptiv.

Voyaga yetmaganlardagi agressiv xulq, odatda, bir necha omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan: Psixologik omillar: Voyaga yetmagan shaxslarda emotsional va psixologik rivojlanish davrida to'g'ri xulq-atvorni formalashtirish murakkab bo'lishi mumkin. Agar ular o'z his-tuyg'ulari va stressini boshqarishni o'rganmasa, agressiv reaksiyalar paydo bo'lishi ehtimoli yuqori. Oila va muhit: Voyaga yetmaganlarning oilasi va yaqin muhiti ularning xulqiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar oilada agressiv xulqlar ko'rsatilsa yoki zo'ravonlikka duch kelsa, bu bolaning harakatlariga ham ta'sir qilishi mumkin. Jamiyat ta'siri: Madaniyat va jamiyat standartlari ham agressiyaning rag'batlantirishi yoki kamaytirishi mumkin. Masalan, ba'zi madaniyatlarda zo'ravonlikni qabul qilish odatiy hol sifatida qabul qilish mumkin. Ta'lim jarayoni: Maktab yoki ta'lim muassasalaridagi munosabatlar ham voyaga yetmaganlarda agressiv xulqning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Tengdoshlar o'rtasidagi tajribalar, masalan, (kechirish) kabi holatlar, o'z navbatida agressiyaning keltirib chiqaradi. Salbiy ta'sir etish manbalari: Televideniye, video o'yinlar va internet orqali yo'llangan kontent ham voyaga yetmaganlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agressiv xulqni kamaytirish uchun e'tibor berish kerak bo'lgan yo'nalishlardan biri – bolalarning emotsional inkluziyasini ta'minlash, ularga his-tuyg'ularini ifodalashi uchun imkoniyat yaratishdir. Bundan tashqari, oilaviy munosabatlarni yaxshilash, ijobiy rol modellari bilan ta'minlash ham muhimdir [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mavzu bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ular agressiyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni, shuningdek, samarali profilaktika usullarini aniqlashga qaratilgan.

Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan nuqtai nazarlar ichida eng mashhuri U.Makdaugoll, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning "inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi" degan qarashlaridir. Bu nazariya agressiya haqidagi dastlabki nazariya bo'lib, ammo u amaliyotda o'z tasdig'ini topmadi.

Freyd o'zining dastlabki ishlarida quyidagi fikrni ilgari surgan: insonga xos barcha fe'l-atvor bevosita yoki bilvosita erodan, ya'ni hayot instinktidan yaraladi. Erosning quvvati (libidosi) xayotni mustahkamlashga, saqlab qolishga va ko'paytirishga yo'naltirilib, bu agressiyaning ham keltirib chiqaradi. Birinchi jahon urushi zo'ravonliklari tajribasini boshdan kechirgan Freyd, agressiyaning kelib chiqishi va mohiyati haqida fikr yuritarkan, u ikkinchi asosiy instinkt - tanatos – o'limga ishtiyoqning mavjudligini taxmin qildi. Bu instinktning quvvati buzg'unchilikka va hayotni to'xtatishga yo'naltirilgandir. Shunday qilib, tanatos agressiyaning tashqariga chiqarishga va boshqalarga yo'naltirishiga bevosita sabab bo'ladi.

Freydning fikricha, tanatos energiyasi tashqariga yo'naltirilmasa, bu inson psixikasining buzilishiga olib keladi. Shuning uchun agressiyaning tashqi namoyon bo'lishi tanatosning bunday buzg'unchi kuchini susaytirishi va natijada yanada xavfli harakatlarning paydo bo'lish ehtimolini kamaytirishi mumkin.

K.Lorens agressiyaga nisbatan evolutsion yondashuv tarafdorlaridan biri bo'lgan va uning bu pozitsiyasi Freydning pozitsiyasi bilan o'xshash ekanligini namoyon qilgan. K.Lorens ta'limotiga ko'ra, agressiya insonlarga va boshqa tirik jonzorlarga xos bo'lgan hayot uchun

kurash tug'ma instinktidan kelib chiqqan. U bu instinkt uzoq evolutsiya davrida rivojlangan, deb taxmin qiladi va uning uchta muhim vazifasini ajratib ko'rsatadi. Birinchisi, hayot uchun kurash instinkti turli xil biologik tur vakillarini dunyo bo'ylab katta geografik kengliklarga tarqatib yuborad, bu esa oziq-ovqat resurslarining maksimal sarflanishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, agressiya biologik turning genetik fondi yaxshilanishini ta'minlaydi, chunki faqat eng kuchli va quvvatli individumlarga o'zidan o'zidan avlod qoldira oladi. Uchinchidan, kuchli tur va vakillariga o'zini himoya qila oladi va avlodining tirik qolishini ta'minlay oladi[3].

Aslini olganda, o'smir shaxsining rivojlanishi uchun agressiv namoyishlarning o'zi unchalik xavfli emas, balki ularning natijalari va atrof-dagilarning noto'g'ri reaksiyasi xavflidir. Agar zo'ravonlik – e'tibor, tan olish, hukmronlik, pulga ega bo'lish, yoki boshqa huquqlarni bersa, o'smirlarda kuch ustuvorligiga asoslangan xulq-atvor shakllanishi mumkin, bunday holatlar esa kattalarning ham ijtimoiy faoliyati asosini tashkil etishi kuzatiladi (masalan, kriminal guruhlarda).

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ishning maqsadiga aniq yetish uchun to'g'ri metodologiyaga ega bo'lish lozim. Agressiv xulqni oldini olish bo'yicha psixoprofilaktik tadbirlarni tashkil etishning o'ziga xosligi hozirgi kun uchun muhim hisoblangan ilmiy gipoteza(faraz)larni, bu sohaga doir nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyatda qo'llash mavzumizni yortishdagi ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi. Shu sababda dastlab mavzuga doir mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali agressiyani oldini olish bo'yicha psixoprofilaktik tadbirlarning nazariy asoslari o'rganiladi. Psixoprofilaktik tadbirlarning amalga oshirilishi kuzatiladi va ularning samaradorligi baholanadi. Tadqiqot kuzatishlari natijasi asosida agressiv xulqni oldini olish bo'yicha samarali psixoprofilaktik tadbirlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Voyaga yetmaganlardagi agressiv xulq ko'rinishlari, asosan, ularning emotsional va psixologik rivojlanishi bilan bog'liq. Agressivlik ko'pincha ularning stress, frustratsiya yoki boshqa negativ his to'g'ridagi reaksiyalaridan kelib chiqadi. Quyida bunday xulqlarning ba'zi asosiy ko'rinishlari va ularning ehtimoliy sabablari keltirilgan:

1. Fiziologik agressiya: Bu turdagi xulq, boshqa insonlarga zarar yetkazish yoki jismoniy tajovuz qilish bilan ifodalanadi. Bularga tishlash, tirnash yoki boshqa jismoniy harakatlar kiradi.

2. Verbal agressiya: So'zlar bilan tahdid qilish va haqoratlash orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalash. Bunday holatlarda voyaga yetmaganlar o'zidan katta bo'lgan kishilarga yoki tengdoshlariga qarshi shunchaki so'zlar bilan ham ta'sir o'tkazishga harakat qilishadi.

3. Sotsial agressiya: Bunda voyaga yetmaganlar boshqa odamlarni ijtimoiy aloqalardan chetlatish, gap-so'z tarqatish yoki hazil qilish orqali ta'sir o'tkazadilar.

4. Emotsional agressiya: Ushbu holatda voyaga yetmaganlar o'z his-tuyg'ulari bilan manipulyatsiya qilishni o'rganadilar. Ular o'z ehtiyojlari uchun boshqalarni manipulyatsiya qilish uchun emotsional bosim qilishi mumkin.

Agressiv xulqlarning sabablari:

- Stress va frustratsiya: Voyaga yetmaganlar stressli vaziyatlarga duch kelishganda, ular agressiv reaksiyalar ko'rsatishi mumkin.

- O'rnak olish: Oiladagi tarbiya, do'stlar orasidagi munosabatlar va media ta'siri voyaga yetmaganlarning agressiv xulqini shakllantira oladi.

- O'zini emotsional nazorat etmaslik: Emotsional instinktlarni nazorat qilish qobiliyatsizligi ham agressivlikka olib kelishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Shaxsning agressiv xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi boshqa xususiyat – uning frustratsiyani o'tkazish qobiliyati hisoblanadi. Ma'lum bo'lishicha, frustratsiya – bu maqsad yoki ehtiyojini qoniqtirishi yo'lidagi to'sqinlikdan kelib chiqqan holat. Ba'zi bir mualliflar frustratsiyani – agressiv xulq atvorning yetakchi sabablaridan biri deb hisoblaydilar. Umuman olganda, frustratsiya keng tarqalgan hodisa va insonlar uni bartaraf etish qobiliyatlari bilan farqlanadilar. Agar agressiv xulq-atvor frustratsiyani bartaraf etishiga muvaffaqiyatli ko'maklashsa, u o'rgatish qonunlariga muvofiq, kuchayishga ko'proq ehtimoli mavjud. Bu vaziyatda, insonning frustratsiyaga yuqori seziluvchanligi bo'lsa, muammolar paydo bo'lishi mumkin, shu bilan birga agar unda frustratsiya bartaraf etilishining ijtimoiy ruxsat etilgan usullari ishlab chiqilmagan bo'lsa.

Eng bahsli muammolardan biri shaxsning agressiv xulq-atvoriga ommaviy axborot vositalarining ta'siri muammosini hisoblash mumkin. OAV negativ ta'sirining tarafdorlari quyidagi ma'lumotdan kelib chiqadilar, insonlar qachon o'zini agressiv tutadilar, eng avvalo, boshqalar agressiyasini kuzatib turib.

Televideniye orqali agressiv xulq-atvorni shakllantirish mexanizmi quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin:

- meyoridan ortiq teleko'rsatuvlarga qiziqish; agressiv xayollar; o'zini personaj (qahramon) bilan taqqoslash;
- muammolar yechimi va insonlarga ta'sir ko'rsatishning agressiv usulini o'zlashtirish;
- agressiv harakatlarni takrorlash;
- shaxslararo munosabatlarda muammolarni yechish uchun agressiyani qo'llash;
- qo'llab-quvvatlash; agressiv odatlar;
- rivojlanmagan ijtimoiy va o'quv ko'nikmalari;
- frustratsiya – teleko'rsatuvlarni meyoridan ortiq ko'rish va boshqalar.

Agressiv xulq-atvorning kuzatish orqali shakllanishini bir nechta shartlarni bajarish orqali amalga oshirish mumkin. Birinchidan, ko'rayotgani real bo'lib, shaxsiyatiga tegib o'tishi kerak. Ikkinchidan, ko'rgani aynan agressiya sifatida qabul qilinishi kerak. Uchinchidan, qachonki tomoshabin o'zini agressorga tenglashtirsa, agressiya o'tadi, ammo aniq shaxs uchun agressiya obekti filmdagi agressiya qurboni sifatida tasavvur qilinadi. O'rganishning keyingi prinsipial sharti, filmdagi qahramon agressiya natijasida maqsadiga yetadi yoki rohatlanadi, bu esa tomoshabin uchun ahamiyatli.

Umuman olganda, agressiv sahnalarni ko'rish, ko'pchilik kattalarga tahmin qilinganiga nisbatan to'g'ri, negativ ta'sir ko'rsatmaydi, chunki kuzatuvni o'zi ichki va tashqi shartlar majmui bilan belgilaydi. Zo'ravonlik sahnalariga insonlarning reaksiyasi turlicha bo'lishi mumkin: nafrat, yoqimsiz, virtualizatsiya (tasvir etilgan hodisalarni noreal sifatida qabul qilish), faqatgina ba'zi bir vaziyatlarda – qoyil qolish va o'xshashga intilish. Bunga qaramasdan OAV (shuningdek, internet saytlaridan no'rin foydalanish) bolalar va o'smirlar rivojlanishiga negativ ta'siri haqiqiy xavfni keltiradi.

Masalan, oila jipsligining past darajasi, janjalkashlik, bola va ota-ona o'rtasida yaqinlikning kamayishi, bolalar o'rtasidagi yomon, o'zaro munosabatlar, oilaviy tarbiyaning noadekvat usuli, ko'pincha, juda qattiq jazolarni qo'llaydigan ota-onalar, meyoridan ortiq nazorat qiladigan yoki aksincha, nazorat qilmaydigan, bunday ota-onalar o'z bolalarining agressiyasi va quloq solmasligi bilan ko'proq to'qnashadilar. Shuningdek, onaga nisbatan otaning agressiyasi bolaga ifodalangan negativ ta'sir ko'rsatadi (jismoniy zo'rqlash yoki ochiqchasiga ma'nan kamsitish).

Ilm-fanda “tarbiyasi qiyin o‘smirlar”, “xatar guruhiga kiruvchi bola” degan atamalar mavjud. Bu atama bugungi kunda nafaqat pedagog, psixolog, sotsiologlar, balki ijtimoiy ish xodimlarini ham o‘ziga jalb etadi. Sababi bu atamalar zamirida muayyan shaxsning taqdiriga bog‘liq holat mujassam. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunida “ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan - voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan yoxud uni ta‘minlash, tarbiyalash va unga ta‘lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo‘lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g‘ayri-ijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan”, - deb ta‘rif beriladi[4].

Psixologik nuqtai nazardan jinoyatchilik yoki huquqbuzarlikka moyilligi bo‘lgan voyaga yetmaganlarda bo‘sh vaqt, hissiy-irodaviy nazoratning past darajasi, o‘zini tuta bilmaslik va o‘ziga ishonmaslik, o‘zidan qoniqmaslik, o‘z-o‘zini baholashning va bilishga oid faollikning pastligi, o‘qishni istamaslik, kuchli taassurotlar olishga intilish bilan xarakterlanadilar, shuningdek, ular xavotirli, intizomsiz, nosog‘lom turmush tarzini olib boradilar.

Agressiv xulqni bartaraf etish uchun bir nechta samarali choralar mavjud. Ushbu choralar insonning his-tuyg‘ularini boshqarishga, stressni kamaytirishga va munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi:

O‘zini anglash: Agressiv xulqning sabablarini aniqlash muhim. Nima uchun aggressiv bo‘layotganingizni tushunish, bu xulqni o‘zgartirishda birinchi qadamdir. Emotsiyalarini tanish va ularni boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish. Bu insonga o‘z hissiyotlarini tushunishga va ifodalashga yordam beradi.

Tinchlanish usullari: Meditatsiya, yozish, nafas olish mashqlari va yoga kabi tinchlantiruvchi usullardan foydalanish. Bu usullar stressni kamaytirishga va emotsional barqarorlikka yordam beradi.

Kommunikatsiya: O‘z his-tuyg‘ularingizni konstruktiv tarzda ifodalash muhim. Boshqalar bilan ochiq va samimiy muloqot qilish agressiyani kamaytirishga yordam beradi. Ijobiy muomala qilish, ijobiy munosabatlarni rivojlantirish hamda konfliktlarni hal qilish usullarini o‘rganish zarur.

Davomiy jismoniy faoliyat: Sport bilan shug‘ullanish, yugurish yoki boshqa jismoniy faoliyat turlari agressiyani kamaytirishda samaralidir.

Mas‘uliyat olish: O‘zingizdan kutilgan xulqlarni to‘g‘ri qabul qilib, agressiv reaksiyalar uchun mas‘uliyat oling. Odamlarga o‘z fikrlarini aytish imkoniyatini berish va ularning fikrlarini tinglash muhimdir.

Kasbiy yordam: Agar agressiv xulq odatiy hayotga o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatayotgan bo‘lsa, psixolog yoki psixoterapevtidan professional yordam so‘rash maqsadga muvofiqdir.

Muammolarni hal qilishda ijobiy yondashuvlarni qo‘llash; muammolarni keng ko‘lamda baholash va yechim izlash. Tezkor qarorlar o‘rniga fikrlab qaror qilish, vaziyatdan chetlanib ketish yoki keraksiz vaziyatlarga kirmaslik.

XULOSA. Xulosa shuki, har bir ota-ona farzand tarbiyasida xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka xarakat qilishi zarur. Farzandingizga doimo namuna bo‘ling. Sababi, dono xalqimiz aytganidek “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”. Siz ham shunga amal qiling. Oyda bir marta oilaviy yig‘ilishni o‘tkazishga xarakat qiling (farzandingiz bilan yaxshi munosabatda bo‘ling, u sizning haqiqatdan ham yordam berishga intilayotganingizga ishonch hosil qilsin). Farzandingizning kuchli tomonini e‘tirof qilib turing. Har bir insonning zaif qirralari bo‘lgani kabi, albatta, kuchli

tomonlari ham bo'ladi. Farzandingizning bo'sh vaqtini to'g'ri va samarali taqsimlang. Farzandingizni diqqat bilan eshiting. Uning fikrlari bilan qiziqing. Ba'zan u bilan ham hisoblashing. Chunki unda mening ham fikrlarimni inobatga olishyapti, degan ishonch hosil bo'lishi nihoyatda muhim. Farzandingizning tarbiyasi yuzasidan ustozlarining fikr-mulohazalarini ham tinglang. Ular bilan maslahatlashing va birgalikda yordam bering. Sizning maqsadingiz muammoning yechimini topish – buni esdan chiqarmang. Farzandingizning kamchiliklari to'g'risida emas, balki uning fe'l – atvori, ayni vaqtdagi xatti-harakatlari haqida ham suhbatlashing, har bir yo'nalish bo'yicha ustozlari, murabbiylariga uning tarbiyasi bo'yicha barcha masalalar yuzasidan sizga murojaat qilishlarini iltimos qiling. Farzand tarbiyasi ma'uliyat. Chunki siz nafaqar o'z farzandingizni balki yurtning farzandini tarbiyalayapsiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sadatova.N.M. Voyaga yetmaganlar tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlarning oldini olishga qaratilgan sharqona tarbiya usullari va psixologik qarashlar. "Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari" respublika ilmiy-uslubiy konferensiya materiallari to'plamlari 2024. 352-362 b.

2. Садатова.Н.М. Вестник интегративной психологии. "Психологические аспекты профилактики преступного поведения несовершеннолетних". 2024.-207 с.

3 N. Ismoilova D. Yuldasheva. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) Tashkent. 2021g

4. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. o'quv-uslubiy qo'llanma.T., 2014. 185 bet

XULQ OG'ISHINI OLDINI OLIISH BO'YICHA PSIXOPROFILAKTIK TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOSLIGI

To'rayev Ozod Uyg'un o'g'li

Turon universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktik tadbirlarni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari batafsil tahlil qilinadi. Turli yosh guruhlari uchun mos psixoprofilaktik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishning muhim jihatlari, shu jumladan, individual va guruhli psixologik yordam, ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar va ta'limning roli ko'rib chiqiladi. Maqolada samarali profilaktika uchun zarur bo'lgan omillar, ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olish muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Xulq og'ishi, psixoprofilaktika, profilaktik tadbirlar, ijtimoiy-psixologik profilaktika, individual yondashuv, guruhli mashg'ulotlar, ijtimoiy moslashuvchanlik, ta'lim, davlat siyosati, bolalar, o'smirlar, kattalar.

Annotation. This in the article behavior deviation prevent to take aimed at psychoprophylactic events organization of reaching to oneself typical aspects in detail analysis will be done. Various young groups for suitable psychoprophylactic programs working exit and done increase important aspects, that including individual and group psychological help, social flexibility to develop aimed at exercises and of education role see is released. In the article effective prevention for necessary was factors, socio-cultural context into account to take discussion will be done.

Key words: Behavior deviation, psychoprophylaxis, preventive activities, socio-psychological prevention, individual approach, group activities, social flexibility, education, state politics, children, teenagers, adults.

KIRISH. Xulq og'ishi – bu jamiyat uchun jiddiy muammo bo'lib, uning oldini olish uchun samarali profilaktik choralar ko'rish zarur.

Psixoprofilaktika – bu xulq og'ishlarining oldini olishga qaratilgan psixologik tadbirlar majmuasi. Ushbu tadbirlarni tashkil etishning o'ziga xosligi turli omillarga bog'liq, jumladan, maqsadli auditoriya (bolalar, o'smirlar, kattalar), xulq og'ishining turlari va ijtimoiy-madaniy kontekst.

Yoshlar o'rtasida xulq og'ishini barvaqt oldini olish to'g'risida nafaqat profilaktika idoralari, Ichki ishlar va Sog'liqni saqlash, ta'lim, sport va turizm, madaniyat vazirliklari tomonidan rioya qilingan ijtimoiy nazorat va cheklovlar pozitsiyasidan kelib chiqib qarash noo'rin.

Deviant xatti-harakatlarning ijtimoiy profilaktikasini kompleks rejalashtirish quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zlaydi:

- Fuqarolar va mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlarini kamaytirish va kelgusida butunlay yo'q qilish;
- Jamiyatga zarar yetkazadigan va noqonuniy xatti - harakatlarga olib keladigan yoki ularning amalga oshirilishiga yordam beradigan ijtimoiy me'yorlarning buzilishini oldini olish;
- Ijtimoiy rivojlanishning salbiy tomonlarini bartaraf etish;
- Alkogolizm va giyohvandlikka qarshi kurashish, huquqbuzarlikni keltirib chiqaradigan oilada, ishda, jamoat hayotida o'zini tutishning salbiy shakllarini bosqichma-bosqich yo'q qilish;

- Fuqarolarning asotsial xatti-harakatlariga qarshi turadigan, davlat va mehnat intizomiga rioya qilishga yordam beradigan ijobiy ijtimoiy jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirish;
- Fuqarolarning ongi va uyushqoqlik darajasini oshirish, qonuniy ko'rsatmalarga hurmatni shakllantirish;
- Ekologik intizomni tarbiyalash, bu sohada ekologik madaniyat va bilimlarning ko'tarilishi, har bir insonning tabiatga ongli va ehtiyotkorona munosabatini shakllantirish[2].

Xulq og'ishlarining ijtimoiy profilaktikasi subyektlari davlat va xo'jalik organlari, kasaba uyushma, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, mansabdor shaxslar va huquqbuzarliklarning oldini olish bilan shug'ullanadigan fuqarolardir. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari profilaktika ishlarida ishtirok etishga da'vat etiladi[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mavzu bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ular xulq og'ishlarining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni, shuningdek, samarali profilaktika usullarini aniqlashga qaratilgan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tarmoqlarida deviant xulq-atvor masalalari, shuningdek, deviant xulq-atvorni oldini olish, uni tadqiq etish ko'plab xorij olimlari, xususan E.Dyurkgeym, R.Merton, A. Adler, K.Yung, E.Bleyler, O.Gross, V.Shtekel, S.Shpilreyn, Z.Freyd, E.Veyss, P.Fedem, V.Rayx, E.Fromm va boshqa olimlar asarlarida o'rganilgan[4].

Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: "Deviant xulq - atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan faqat o'zini emas, balki boshqalar manfaati uchun g'amxo'rlik qiladigan, boshqalar uchun o'z manfaatlaridan kechishga tayyor bo'lish hodisasi hisoblanadi (hudbinlikning aksi va teskarisi) aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir". Jumladan, italiyalik psixiatr Ch. Lombrozo Italiya qamoqxonalariidagi 14 ming maxbus ustida tekshirish olib borib, "jinoyatchilar tug'ma bo'lishadi" degan xulosaga keladi[5].

Uning shogirdi E.Ferri jinoyatchilik sotsiologiyasi asarida ushbu omilga qo'shimcha ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni ham ko'rsatadi. Keyinchalik ushbu ta'limotlar turli tanqidlarga uchragan bo'lsada, hozirgi kungacha ham G'arb sotsiologiyasining ba'zi namoyondalari ushbu ta'limotning u yoki bu yo'nalishlarini rivojlantirib kelishmoqda[6].

TADDIQOT METODOLOGIYASI. Ishning maqsadiga aniq yetish uchun to'g'ri metodologiyaga ega bo'lish lozim. Xulq og'ishini oldini olish bo'yicha psixoprofilaktik tadbirlarni tashkil etishning o'ziga xosligi hozirgi kun uchun muhim hisoblangan ilmiy gipoteza(faraz)larni, bu sohaga doir nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyatda qo'llash mavzumizni yortishdagi ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi. Shu sababda dastlab mavzuga doir mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali xulq og'ishini oldini olish bo'yicha psixoprofilaktik tadbirlarning nazariy asoslari o'rganiladi. Psixoprofilaktik tadbirlarning amalga oshirilishi kuzatiladi va ularning samaradorligi baholanadi. Tadqiqot kuzatishlari natijasi asosida xulq og'ishini oldini olish bo'yicha samarali psixoprofilaktik tadbirlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA. Ma'lumki, bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish tadbirlari eng avvalo, xulq og'ishini keltirib chiqaradigan shart-sharoit va sabablarni bartaraf qilishni taqazo qiladi. Masalaning dolzarbligidan kelib chiqqan holda bugungi kunda butun dunyo miqyosida, shu jumladan Respublikamizda voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq

og'ishining oldini olish borasida bir qator ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda[1].

Haqiqatdan ham o'sib kelayotgan yosh avlodning ertangi kunimiz, kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, bolalar va o'smirlar o'rtasidagi turli xil g'ayriqonuniy, shu jumladan jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, har qachongidan ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo'ladi. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishda eng avvalo, jinoyatchilik xulqining ijtimoiy - psixologik, individual - psixologik, sotsiologik, hududiy va kriminologik xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan qonunbuzarliklarning oldini olish ishlari umumiy va maxsus-individual tarzda olib borilishi bilan xarakterlanadi. Umumiy ijtimoiy chora-tadbirlarga jamiyatni ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalqning turmush tarzi va mikro muhit munosabatlarini yaxshilash, fuqarolarning madaniy, ma'naviy va ma'rifiy salohiyatini o'stirish va boshqalar kiradi. Maxsus-individual xarakterdagi tadbirlar sifatida esa bolalar va o'smirlarning shaxs xususiyatlari, ularning psixologiyasi, dunyoqarashi, qadriyatlar oriyentatsiyasi, hayotiy pozitsiyasi, onglik darajasi va ijtimoiylashuv xususiyatlarini hisobga olgan holda chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash tushuniladi. Ushbu masalani yechish uchun tabiiy ravishda shaxsning motivatsion sohasiga aloqador bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Jinoyatchilik xulqi motivatsiyasi qaysidir ma'noda shaxsning umumiy yo'nalishi va vaziyat o'rtasidagi o'zaro aloqasiga bog'liq bo'ladi.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, jinoyatchilik xulqi motivatsiyasi kriminogen vaziyatga nisbatan shaxsning ijobiy yo'nalishi va fazilatlarining susayishiga, faol kriminogen vaziyatlarga nisbatan shaxsning ijobiy yo'nalishi va fazilatlarini beqarorligiga, kriminogen vaziyatlar bilan shaxsning salbiy xislatlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorligi va boshqa omillar asosida namoyon bo'ladi.

Voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsining umumiy yo'nalishi tahlili jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni nafaqat jinoyatchilik xulqi va salbiy illatlarga ega bo'lgan o'smirlar va yoshlar o'rtasida olib borish, balki sog'lom xulqli o'smirlar va yoshlar o'rtasida ham ularni olib borish zaruriyatini ko'rsatadi. Ushbu fikrdan ko'rinadiki, o'smir tomonidan sodir etilgan jinoiy harakat uning xulqiga emas, balki situatsion vaziyatlarga ko'ra sodir etilganda o'smir shaxsining ijobiy sifatleri va jinoyatchilikning sodir etilishiga sabab bo'luvchi omillar to'g'risidagi ma'lumotlarni bermaydi. Shuningdek, bunday vaziyatlarda o'smirda tarbiyaviy profilaktik tadbirlar olib borilganda ham jinoiy harakatning oldini olishga yordam berib bo'lmaydi. Shuning uchun ham situatsion vaziyatlarga bog'liq bo'lgan jinoyatlarning oldini olishda o'smir shaxsining xususiyatlarini, uning ijobiy yoki salbiy fazilatlarini hamda ularning xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutish maqsadga muvofiqligini unutmaslik kerak[7].

XULOSA. Yoshlarda xulq og'ishini oldini olishda ularning qiziqishlarini inobatga olish, ular bilan samarali va muntazam kompleksli tadbirlarni uyushtirish, emotsional barqarorlikni saqlashga yordam beruvchi ijtimoiy-psixologik treninglar o'tkazish muhim vazifalardan biridir. Xulq og'ishini aniqlashda haqiqiy deviant yoshlar bilan solishtirgan holda yoshlarning qaysi xususiyatlarini korreksiya qilish lozimligi ko'rinadi. Bunda samarali metodlardan foydalanish muammoni bartaraf etishning omili bo'lib xizmat qiladi.

Deviant xatti-harakatlarning oldini olishni kengaytirish va kuchaytirish bo'yicha zarur choralar sifatida quyidagilarni ta'kidlash o'rinli:

1) Oldini olish kompleks, ya'ni turli xil ijtimoiy himoya tuzilmalari, huquqni muhofaza qilish idoralari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi kerak.

2) Oldini olish usullari va vositalari deviant xulq-atvorning o'ziga xos turlariga mos kelishi kerak. Oldini olishning asosiy vositasi o'spirinning xulq-atvorini belgilaydigan xavf omillarini rivojlanishining dastlabki bosqichlarida aniqlangan bo'lishi lozim.

3) Repressiv choralarni sezilarli darajada kengaytirish. Yosh jinoyatchilarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish muddatlarini qisqartirish, jazoni ijro etishni keyinga qoldirish, shartli ravishda ozod qilish va eng muhimi, qamoqqa olish shartlarini o'zgartirish joizdir.

4) Davlat, jamoat, xayriya va boshqa tarkibiy aloqalarni o'z ichiga olgan ijtimoiy yordamning moslashuvchan va kengaytirilgan tizimini yaratish. «O'z-o'ziga yordam berish» tamoyiliga asoslangan jamoat tashkilotlari barcha yoshlarni to'liq nazorat ostiga olishi kerak, bu dastlabki bosqichlarda ijtimoiy og'ishlarni aniqlashga imkon beradi.

5) Profilaktika maqsadida haqiqiy insoniy qadriyatlarini (oil, mehnat, Vatan, din, ezgulikka ishonish) o'rni va yetarli darajada targ'ibotini o'tkazish vazifasi bo'lgan ommaviy axborot vositalarini jalb qilish zarur.

Shunday qilib, erta profilaktika tadbirlari ijtimoiy nazorat nuqtai-nazaridan emas, balki ulg'ayib kelayotgan yosh avlodda xulq og'ishish dinamikasini pasaytirish tarafidan tashkillashtirilishi lozim. Bunda pedagogik ta'sir va oilaviy muhit hamda diniy qadriyatlarning o'rni alohidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shoumarov G', Umarov B., Akramova F. Yoshlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilining oldini olish bo'yicha psixologik maslahatlar. – Toshkent-2015. B-17.

2. Раттер, М. Помощь трудным детям. Пер. с англ. Е. Алексеевой, С. Нуровой. – М.: Апрель-Пресс, 2009.С-46

3. Лелюх, В. Ф. Проблемы девиантности и социально-правовой адаптации молодежи / В. Ф.Лелюх. – М.: Эксмо, 2006.С-58.

4. Ганнушкин П.Б. Клиника психопатий. Их статистика, динамика, систематика (1933) – В кн.: Избр. Труды М.,2004, С-116

5. Хван А.А., Зайцев Ю.А., Кузнецова Ю.А. Стандартизация опросника А. Басса и А. Дарки. /Психологическая диагностика, 2008, № 1, С- 35-58.

6. Теоретические и прикладные вопросы психологии Часть II Прикладные проблемы психологии. Под ред. А. А. Крылова. — СПб: Издательство С.-Петербургского университета, 2005. С - 163.

7. Игошев К.Е. Опыт социально-психологического анализа личности несовершеннолетних правонарушителей. М.2007, С.67-68.

O'ZBEKISTONDA "PAXTA ISHI" QATAG'ONI KELIB CHIQISHINING TARIXIY ASOSLARI (QASHQADARYO VILOYATI BA'ZI MISOLLARI ORQALI)

Suyarov Nurbek Rustamovich

Turon universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustabid sovet hokimiyatining O'zbekistonda uyushtirgan oxirigi qatag'oni – "paxta ishi"ning kelib chiqishining sabablari tarixiy-tahliliy bayon etilgan.

Kalit so'zlar: inqiroz, zulm va zo'rovonlik, sotqinlik, "desantchilar to'dasi", tuxmat va maloma, "manaviy zarar", "Karib inqirozi", "Afg'oniston muommosi".

Annotation. This article describes the historical and analytical reasons for the emergence of the "cotton case" - the last repression organized by the Soviet government in Uzbekistan.

Key words: crisis, tyranny and violence, betrayal, "gang of paratroopers", slander and accusation, "moral damage", "Caribbean crisis", "Afghan problem".

KIRISH. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da, "qatag'on" so'zi ikki xil ma'noda qo'llanilishi ko'rsatilgan. Birinchi holatda "ta'qiq", "man" ma'nolarini bildirsa, ikkinchi holatda esa "repressiya" ma'nosida qo'llanilishi atytib o'tilgan(1). O'tmish tariximizda sovet hokimiyati tomonidan sodir etilgan qatag'on siyosati siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-mafkuraviy sohalarda amalga oshirildi. Jumladan, 1937–1953-yillarning o'zida O'zbekistonda 100 ming odam qatag'on qilingan bo'lib, ulardan 13,5 mingi otib yuborilgan(2). Sovet davlati tomonidan amalga oshirilgan qatag'onlik siyosatining oxirgi davri, O'zbekistonda XX asrning 80-yillarida "Paxta ishi", keyinroq "O'zbeklar ishi" degan nom ostida tarixga kirdi. Ushbu qatag'onning boshlanishi jarayonlari hamda uning salbiy oqibatlarini manbalarda turlicha talqin qilinib kelindi.

SSSR Kommunistik partiyasi Bosh kotibi M.S.Gorbachyov bu davr xususida quyidagicha fikr bildirgan edi: "70-yillarning ikkinchi yarmida xo'jalik ishida izdan chiqish ko'payaverdi. Qiyinchilik birin-ketin yig'ilib, keskinlashib boraverdi, hal qilinmagan muammolar ko'paya bordi. Ijtimoiy-iqtisodiy holatda biz "turg'unlik" deb aytayotgan holat yuzaga chiqdi. Sotsial-iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi o'ziga xos mexanizm vujudga keldi" (3). Yuqorida e'tirof etilgan turg'unlik, aslida masalaning tub mohiyatiga to'g'ri va oqilona ko'z bilan qaralganda zo'rovonlik yoki bosqinchilik asosida barpo etilgan, halokatga mahkum sovetlar saltanatining inqirozi edi. Bu bo'hron ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma'naviy hayotning barcha sohalarini o'zida qamrab olgan edi(3). Yillar davomida Kompartiya boshqa sohalar kabi, paxta hosildorligini oshirish uchun ketma-ket besh yillik rejalarni oshirib borar, bu rejalar faqat ulkan raqamlarga tayanilar, katta-katta butun sonning ortidan quvish avj olgan edi. Yerlarning chala o'zlashtirilib, belgilangan vaqtda "topshirishga", yerning meliorativ holatining buzilishiga, har yili bir xil ekinlar ekib, katta miqdordagi sarf-xarajat qilinishiga sabab bo'la boshladi. Oqibatda buyruqbozlik tizimi kuchayib, qattiq nazorat, tazyiq o'tkazish holatlari ko'paydi. Bu holat nafaqat O'zbekistonda, balki ayni davrda barcha sovet davlati tarkibidagi respublikalarda katta muammolarni vujudga keltirdi. Sobiq sovet davlati rahbariyati mazkur inqiroziy holatni mavjud tuzum negizida deb emas, yuzaga kelgan salbiy illatlarda deb bildi. Sabab emas, oqibat izlandi va baholandi.

XX asrning 80-yillariga kelib sovet davlatida yuz berayotgan inqirozli holat tobora chuqurlashib bordi. Mazkur davrda sobiq ittifoq respublikalari orasida ichki ziddiyatlar yanada kuchaydi. Bu jarayon butun mamlakatni halokat yoqasiga olib keldi. Sovet ittifoqi bu davrda keskin iqtisodiy inqirozlar girdobida qolib, o'z hukmronligining so'nggi bosqichini boshidan kechirayotgan edi. Mamlakat hududida uzoq vaqtdan buyon davom etib kelayotgan ma'muriy-buyruqbozlik usuli iqtisodiy sohani uning tarmoqlarini boshi berk ko'chaga solib qo'ydi. Natijada mamlakat hududlari bo'ylab maxfiy iqtisodiy siyosat kuchayib bordi.

O'zbekiston SSR Kompartiyasining XXII s'ezdida respublikaning 1980-yillar ikkinchi yarmidagi ahvoli chuqur tahlil qilindi. Unda mazkur davr haqida quyidagi xulosalar chiqarildi: jumladan, "Respublika barcha iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatda o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, ittifoqdagi respublikalar orasida oxirgi o'rinlardan birida turganligi, aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha esa o'rtacha ittifoq darajasining atiga 40 foizini tashkil etadi" deb e'tirof etildi(4).

Aynan shu davrda mustabid sovet tuzumining nooqilona, talonchilik siyosati O'zbekistonda turmush kechirish darajasining sobiq ittifoq bo'yicha eng past o'rinlarga tushishiga olib kelgan(5). Shuningdek, O'zbekistonda vazirliklar, xo'jaliklar, idoralar fan-texnika taraqqiyotiga oid qarorlar e'lon qilinsa-da, tadbirlarni uzluksiz bajarmaslik oqibatida mavjud moddiy-texnik ahvol xarob holga kelib qoldi. Birgina Qashqadaryoning o'zida 1983-yilda o'tkazilgan o'rganishlar natijasida Yakkabog' tumani Engels nomli, Shahrisabz tumani V.I.Lenin nomli, "Pravda", Engels nomli kolxozlarida, Talimarjon tumani 1-sonli, 4-son "Turkmaniston" nomli, 11-son "SSSRning 50 yilligi", Dehqonobod tumanidagi Krupskaya nomli sovxozlarda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan turli xil texnik vositalarning achinarli ahvolga kelib qolganligi ko'rsatilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan dalillar sovet mustamlakachilik tizimining asl qiyofasini yaqqol ochib berdi. Fan va texnika yutuqlaridan qishloq xo'jalik ishlarida yetarlicha foydalanilmasligi hamda zaharli ximikatlar (butefos, merkaptoz va hokazo)dan haddan tashqari ko'p foydalanish, ularni saqlash va ishlatishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilishi og'ir oqibatlariga olib keldi. Viloyatda ekologik vaziyat yomonlashib, aholi salomatligiga jiddiy putur yetkazdi. Yangi yerlarni o'zlashtirish davrida yo'l qo'yilgan xatoliklar natijasida ekin maydonlarining agrotexnik holati buzilib, tuproq, suv va havoning zaharlanishiga hamda g'alla va sabzavot ekinlariga, hatto chorva mollariga ham o'zining ta'sirini ko'rsatdi. Bu esa, og'ir oqibatlariga olib kelib, aholi o'rtasida turli kasalliklar va bolalar o'rtasidagi o'lim holatlarining ko'payishiga sabab bo'ldi. Biroq paxta yetishirishni ko'paytirish markazning asosiy siyosati sifatida saqlab qolindi.

Sovet davlatidagi rejali iqtisodiyot hech qanday iqtisodiy qonuniyatlar va obyektiv sabablarni tan olmas edi. Reja qanday bo'lmasin bajarilishi shart va zarur edi. Markaziy boshqaruv bir tomondan O'zbekistonga bajarib bo'lmaydigan rejani taqdim etar, ikkinchi tomondan esa o'zbek paxtakorlarining og'ir mehnatiga juda past narx belgilar, bu ishi bilan O'zbekistonda qo'shib yozishni keltirib chiqarardi. Rejani bajarmaslik partiyadan o'chirilib, mansabdan ajralish yoki jinoiy javobgarlikka tortilishgacha olib borar edi. Rejani bajarish uchun kolxoz va sovxozlarning rahbariyati yuqoriga noto'g'ri axborot berish va qo'shib yozish (pripiska)ga majbur bo'lgan edi.

Sovet hukumati o'zlarini go'yoki yetarlicha haq to'layotgandek tutishar, O'zbekistondagilar ham bunga javoban hamma rejalar bajarilayotgandek qilib ko'rsatishar edi. Qo'shib yozish fosh bo'lmasligi uchun partiya rahbariyatiga sovg'a qilishlar odat tusiga kirdi. Kolxoz va sovxoz

raislari raykomlarga, ular obkomlarga, undan respublika partiya rahbariyatiga “hurmat” ko’rsatishar, “aysbergning cho’qqisi” Kremldagi oliy rutbali partiya rahnamolariga borib taqalar edi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning yangi mustamlakachilik rejasiga ko’ra respublika iqtisodiyoti bir tomonlama, faqat “xomashyo” bo’lishi oldindan belgilab qo’yilgan edi. Respublika xalq xo’jaligining bir tomonlama (paxtachilikka) ixtisoslashganligi, inson sog’ligi uchun zararli bo’lgan kimyo va boshqa ishlab chiqarish korxonalarining aholi zich joyda joylashtirilishi, qishloq xo’jaligida, ayniqsa, paxtachilikda kimyoviy moddalardan, zararli pestitsidlardan keng foydalanish atrof-muhit, atmosfera, millionlab aholi yashaydigan punktlarning ahvolni yanada murakkablashtirib yubordi. Orol dengizining quriy boshlashi ahvolni yanada qiyinlashtirdi hamda ushbu muammo yuzasidan sovet hukumati jo’yali choralar ko’rmadi. Bu hol nafaqat O’zbekiston uchun balki barcha Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham ekologik halokatni yuzaga keltirdi. Tub islohotlar o’tkazishda sustkashlik qilish ichki vaziyatning keskinlashuviga, yomon oqibatlarga olib kelish xavfini tug’dirdi. Ayniqsa, qurg’oqchilik bo’lgan 1982-yilda bu holat yaqqol sezildi(13). Boshi berk murakkab vaziyatdan chiqish yo’lini qiyinchilik bilan izlash boshlandi.

XX asrning 80-yillarida qabul qilingan rasmiy hujjatlarda, ko’plab ilmiy-tadqiqot ishlarida 70-yillarning oxiriga kelib sovet davlati tarkibidagi respublikalarda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning o’ta markazlashtirilgan tizimi o’zini o’nglab bo’lmas salbiy oqibatlarni keltirib chiqarganligi ko’rsatildi. Jumladan, tarix fanlari doktori, professor X.Yunusovning ta’kidlashicha, bajarilishi lozim bo’lgan masalalar avval partiya tashkilotlarida ko’rilib, so’ngra ijrochi tashkilotlarga topshirilgan, natijada mamlakat xo’jaligi funksiyasi butunlay partiyaning qo’lida qolgan edi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi “sotsialistik musobaqa” deb atalgan yo’l ham tashqi tomondan muvaffaqiyatli ko’rinsa-da, biroq rejalashtirilgan yo’nalishlar aslida “jadallashtirish va majburlash” siyosatiga asoslangan edi. Bu holat O’zbekistonda, ayniqsa, sezildi. Chunki respublika qishloq xo’jaligini bir tomonlama va asosan ekstensiv(6) yo’l bilan rivojlantirishga e’tibor qaratilgan, bu yaroqsiz usul 80-yillarda O’zbekiston qishloq xo’jaligini turg’unlik holatiga solib qo’ydi.

Yuqoridagi omillar sababli ittifoq tarkibidagi barcha respublikalarda sovet davlati va uning yalg’onlar bilan to’yintirilgan kommunistik mafkurasiga ishonch susayib, odamlarning mehnat unumdorligi tushib ketgan edi. Bu jarayon xalq xo’jaligining turli sohalarida poraxo’rlik, qo’shib yozish, suiiste’molliklar orqali hashamdor rejalarni bajarishga urinish, shuningdek, korrupsiyalashgan nepotizmga olib keldi. Natijada eng quyi bo’g’indan tortib, to markazgacha bo’lgan tizimda nosog’lom vaziyat vujudga kelgan edi. Ana shunday paytda markaziy boshqaruv idorasi, uning eng yuqori organlari oldida o’zlarini nafaqat O’zbekiston, balki butun ittifoq (mustamlakalar)da vujudga kelayotgan iqtisodiy-ijtimoiy bo’xron aybdorlarini jazolayotgan qilib ko’rsatish, ommaning diqqat e’tiborini asosiy muammolardan chalg’itish masalasi turar edi.

1980-yillarda butun O’zbekistonda bo’lgani singari Qashqadaryo vohasi aholisi orasida ham ishsizlik muammosi mavjud edi. Sovet davrida ishsizlik haqida ochiqcha gapirilmas, bu holat 1930-yillardayoq tugatilgan, deb hisoblanar edi. Qolaversa, paxta kompaniyasi davrida butun qishloq aholisi dalaga chiqqanligi hisobiga jamoatchilikda “ishsizlik yo’q” degan fikrni uyg’otar edi. Aslini olganda, o’zbek qishloqlaridagi ishsizlik muammosi sovet hukumati olib borgan noto’g’ri demografik siyosatning natijasi edi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi og’ir demografik vaziyat, ishchi kuchiga bo’lgan ehtiyoj, paxta dala plantatsiyalarining kengayishi

sovet davlatini aholi o'rtasida tug'ilishni rag'batlantirishga majbur qildi. Tug'ilishni rejalashtirmaslik oqibatida respublikada ishsizlik muammosi vujudga keldi.

Tarixchi Feruza Izzat fikricha(1c): "Paxta ishi"ning ildizlarini Brejnev va Rashidov orasidagi munosabatlarga taqasak bo'ladi. 1974-yilda O'zbekiston 5 million tonna paxta topshirib, "plan"ni ortig'i bilan bajaradi. Aslida rejada 1,5 million tonna belgilangandi. Lekin ob-havo juda yaxshi kelib, hosil ortig'i bilan topshirilgan. Keyin Brejnev o'zi kelgan va mukofot bergan. 1976-yilda Toshkentda kompartiya s'ezdi bo'lgan va o'sha yerda Rashidov: "Bundan buyog'iga har yili 5 million tonna paxta beramiz, 1983-yilga chiqib, 5,5 million tonnaga chiqaramiz", degan paytda Brejnev ham majlisda bo'lgan va Rashidovga "Undan ham ko'paytirishning iloji yo'qmi? 6 million tonna qila olmaysizlarmi?", deb so'ragan. Shu bilan Rashidov "harakat qilamiz" degan. Endi "yo'q" deb bo'lmaydi-ku! Rashidov Brejnev bilan yaqin aloqada bo'lgan. U juda yaxshi siyosatchi edi. Qayerda qanday gapirish, qanday harakat qilish kerakligini juda yaxshi bilgan. Ammo o'sha paytda hammaning oldida "yo'q, bo'lmaydi, qila olmaymiz" deya olmagan. Fojianing kelib chiqish ildiz o'shandan boshlangan".

Boshqa tomondan esa, sobiq sovet davlatida salbiy holatlar nafaqat O'zbekistonda kuzatildi, balki ayni davrda barcha respublikalarda iqtisodiy-ijtimoiy vaziyat achinarli holatga kelgan hamda jamiyat hayotida mavjud holatochiqdan ochiq ko'zga tashlana boshlangan edi. Ana shunday vaziyatda sovet davlati mavjud inqirozni go'yoki aybdorlarini jazolash maqsadida yangi qatag'on siyosatini amalga oshirish orqali bartaraf etmoqchi bo'ldi. Masalaning muhim jihati shundaki, jiddiy siyosiy o'yin – navbatdagi qatag'onga o'zbek xalqi keng ko'lamda tortildi, millatimizning boshiga yangi kulfatlar keldi.

2019-yilda Rossiyalik tarixchi, maxsus xizmatlar va SSSR tarixi bo'yicha o'nlab kitoblar muallifi Aleksandr Kolpakidi O'zbekiston SSR va uning rahbari Sharof Rashidovning sovetlar siyosatidagi islom vektorida tutgan o'rni hamda "Paxta ishi"ning haqiqiy sabablari haqida gapirdi: "Biz tushunamiz – qo'shib yozish, hiyla-nayranglar, poralar... Lekin savol tug'iladi: bu korrupsiyaga eng botgan respublika edimi yoki yo'q. Hozir istalgan odam shunday deydi: yo'q, albatta. Boltiqbo'yi va ikkita Kavkazorti respublikalarida – xafa qilmaslik uchun ular nomini aytmayman – korrupsiyaning ta'siri juda katta edi. Lekin nima uchun ularga hech kim tegmagan? Keyinchalik bu respublikalarning rahbarlari qayta qurishda katta rol o'ynadi. Nima uchun prokuratura brigadasini korrupsiyaga butunlay botib ketgan Stavropol o'lkasiga tashlashmadi?" (1d).

Tarixchining so'zlariga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kompaniya bahonasi bilan O'zbekistonga berilgan zarba tashabbusi Andropovdan chiqqan, u o'z dunyoqarashi bo'yicha g'arbga yaqin va bozor munosabatlari pozitsiyasiga ega bo'lgan.

"O'zbek ishi"ni kim boshlagan? Gdlyan va Ivanovni hamma biladi. O'zbekiston KGB raisi Levon Melkumovni deyarli hech kim bilmaydi. Bularning barini Andropov, Melkumov, Gdlyan, Ivanovlar qilishdi. U yerda boshiga ikki marta o'q uzib, o'z joniga qasd qilganlar bo'lgan. Va bu "korrupsiyaga qarshi kurash" deb atalgan", – dedi olim tarixchi Fyodor Razzoqovning ushbu mavzuga bag'ishlangan kitobi bo'yicha bergan intervyusida.

Olimning ishonch bildirishicha, Rashidov sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishiga qarshi chiqqani va islom olami bilan munosabatlarni mustahkamlashni xohlagani Paxta ishining yashirin sababiga aylangan.

"Rashidov har doim Afg'onistonga qo'shinlar kiritilishi xato bo'lganini ko'rsatib kelgan va urushni tugatishni talab qilgan. U musulmon respublika yetakchisi sifatida bundan manfaatdor

bo'lgani aniq. Bu mamlakatimizning musulmon dunyosi bilan munosabatlariga juda kuchli geosiyosiy zarba bo'ldi", – dedi Aleksandr Kolpakidi.

1982-yil 10-noyabrda KPSS MK Bosh sekretari L.I.Brejnev vafot etdi(1c). Uning o'rniga chiqqan mamlakatning yangi siyosiy arbobi Y.Andropov O'zbekiston borasida keskin bayonotlar berdi. Uning O'zbekistonga nisbatan ba'zi harakatlari "paxta ish" kabi qatag'onni boshlashga ishora qilgan. Sobiq KGB raisi Y.Andropov hamda 1959–1983-yillarda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining Birinchi Kotibi bo'lgan Sharof Rashidov o'rtasida Afg'oniston va tashqi siyosatning ba'zi jabhalari("Karib inqirozi(1g)" masalasi)da eski nizo mavjud edi.

Y.Andropov 1983-yilning fevral oyida KPSS MK Siyosiy byurosi O'zbekistonda paxtachilik sohasidagi ko'zbo'yamachiklarni tekshirish yuzasidan maxsus qaror qabul qiladi. SSSR prokuraturasiga maxsus tergov komissiyasini tuzishni topshiradi. SSSR Bosh prokurori P.Rekunkov bu ishga har qanday noqonuniy usullardan tap tortmaydigan, keskin harakatlar qilishga moyil ikki xodimi – T.Gdlyan va N.Ivanovlar boshchiligidagi komissiya guruhini shakllantirib, ularga O'zbekistonda tergov harakatlariga bevosita rahbarlik qilishni yuklaydi(1h). Tergov guruhidagilarning soni 200-300 nafar kishidan iborat bo'lib, a'zolari soni doimo o'zgarib va ko'payib turgan. Tergov guruhining vakolatlari keng va shuning uchun vazifalarni tartibsiz, nazoratsiz amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Dastlab bu jinoyat ishi [Buxoro](#) viloyat OBXSS boshlig'i A.Muzaffarov va savdo xodimi Sh.Qudratovga nisbatan ochilgan edi. Ushbu jinoyat ishi OAV tomonidan keng yoyildi va muhokamaga sabab bo'ldi. Keyin boshqa jinoiy ishlar ochilib, zanjir kabi bir-biriga ulanib ketdi.

1983-yilning 31-oktabrida Sh.Rashidov vafot etdi(8). Bu esa T.Gdlyan boshchiligidagi tergov guruhiga yanada qo'l kelgan. Endi gdlyanchilar O'zbekistonda keng ko'lamda qamash va o'zlariga hamtovoq bo'lgan ba'zi nashrlar yordamida Respublikaning sobiq rahbarlari hamda xalqning nomiga bo'htonlar yog'dirish, o'zlari qilayotgan boshbodoqliklarni xaspo'shlash, oqlash ba'zida esa go'yoki O'zbekistondagi "qahramonliklar" qilayotganligini tarqatish tizimini yo'lga qo'yishdi(1e).

SSSR Prokuraturasining mas'ul xodimi Viktor Ilyuxin "O'zbeklar ishi" bo'yicha uzoq tekshiruvlar olib borib, ochiqdan ochiq Gdlyan va Ivanov boshchilik qilgan tergovchilar guruhi tomonidan amalga oshirilgan xunrezliklar xuddi 1937–38-yillarni eslatganligini yozadi(18).

Markaziy boshqaruv organlari tomonidan o'ylab topilgan uydirma "Paxta ishi" tufayli yuzlab qonunbuzarliklar to'lqini I.Usmonxo'jayev boshliq respublika rahbariyatining Moskva oldida "qulluq" qilib, uning irodasini bajarishga "jon-jahdi" bilan kirishgani, O'zbekistonda markaziy boshqarma nima xohlasa shuni qilganligi respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yanada murakkablashtirdi. Xalq xo'jaligini chuqur tanazzulga olib kelgan izdan chiqish jarayonlari, xalq ijtimoiy manfaatlarining nazar-pisand etilmasligi kabi boshqa omillar bilan birgalikda KPSS ning ulkan, lekin kutilayotgan natijalarni bermayotgan iqtisodiy siyosati butun ijtimoiy-siyosiy tizimning oqsayotganini ko'rsatib qo'ydi. Chunki bu vaqtga kelib, xalqning bunyodkorlik g'ayrati davlat partiya tuzilmalari tomonidan butunlay siqib qo'yilgan edi. Sovet iqtisodiyoti jahonda yuz berayotgan yangiliklarga butunlay e'tibor bermaydigan bo'lib qoldi, mutaassibli va puxta emasligi bilan yaqqol ajralib qoldi(9).

1985-yilda hokimiyat tepasiga M.Gorbachyovning chiqishi bilan jinoiy ish siyosiyashtirilib, "O'zbeklar ishi"ga aylantirildi. Mamlakat miqyosida o'zbek xalqiga nisbatan misli ko'rilmagan darajada tuhmat uyushtirildi, go'yoki o'zbeklar Ittifoq qozoniga hech narsa bermay,

boqimandalik bilan kun kechiradi, hamma o'g'irliklarga faqat o'zbeklarga aybdor degan bo'htonlarni tarqatishib, ularni haqorat qilish, jirkanish, ustidan kulishdek salbiy holatlar sun'iy ravishda avj oldirildi. Oqibatda bu qatag'ondan faqat oddiy xalq jabr chekdi. Minglab odamlar – respublika rahbarlaridan tortib oddiy tabelchisiga qadar qamoqqa olindi. Aslini olganda, yuqorida ta'kidlanganidek, Markaziy boshqaruv bu ishni ittifoq miqyosida bosh ko'tarayotgan norozilik kuchlariga saboq bo'lishi uchun boshlagan edi.

Yuqoridagi holat O'zbekiston tarixida mashum rol o'ynagan, "Paxta ishi" qatag'onining avj olishiga katta sabablardan biri bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1984-yil iyun oyi plenumida ham ta'kidlanadi: "O'zbekiston qishloq xo'jaligining asosiy mahsuloti hisoblangan "oq oltin", ya'ni paxtaning rejasini to'ldirish respublika aholisining internatsional burchi deb hisoblanadi. Lekin joylardagi partiya tashkilotlari tomonidan yetarlicha mexanizatsiyalash, sug'orish tizimini takomillashtirish kabi amaliy tadbirlar tashkil etilmadi. Moddiy-texnik bazaning eskirganligi, respublika agrosanoat kompleksining tarmoqlari o'z darajasidan ancha past ishlayotganligi bildirildi. Ko'p jihatdan rahbar va mutaxassislar keng miqyosda iqtisodiy eksprementlarni o'tkazishda tashabbuskorlik qilmagani, mehnat jamoalarida mehnatni tashkil etish va rag'batlantirishning boshqa ilg'or formalari joriy etilmagani, iqtisod bilan yetarlicha qiziqmaganligi qayd etib o'tish zarur.

Yildan yilga to'xtovsiz oshirib borilgan rejalar, ajratilayotgan mablag'lardan foydalanishda tizim uchun yetarlicha yangiliklar yaratilmasligi, Markaz tomondan "faqat va faqat paxta va uning rejasini" asosiy kun tartibiga qo'yildi. Qishloq xo'jaligi sohasida bo'rttirilgan hisobotbozlik, byurokratiya, dabdababozlik, qo'shib yozish, avj oldi. Qishloq xo'jaligi va chorvachilikda mavsumiy tayyorgarliklar paytida amaliy ko'maklar o'rniga kommunistik mafkuraning targ'ibotini tashkil etish diqqat markazda bo'ldi.

Shuningdek, xalq xo'jaligi rahbarlik formalari metodlarini tubdan yaxshilash, rejalashtirishda saviyani ko'tarish juda muhim ahamiyat kasb etar edi. Ushbu masala ko'tarilgan XVI plenumda so'zga chiquvchilar tomonidan xo'jalik organlariga industrial texnologiya keng joriy etilmaganligi, sug'oriladigan yerlardan, foydalanish samaradorligi ta'minlanmaganligini, yerlarga faqat paxta ekish ortidan yerlarning meliorativ holati butkul izdan chiqib qolganligini qayd etib o'tiladi.

O'zbekiston Kommunistik partiyasining XVI plenumi hamda kompartiyaning Qashqadaryo viloyati qo'mitasi buyruqlarining bajarilishiga bag'ishlangan 1985-yilning 5-aprel sanasida o'tkazilgan VIII yig'ilish bayoniga ko'ra, viloyatda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, paxta tolasining rejasini to'ldirmaslikning asl sababi sifatida kadrlar, ularning salohiyatsizligi muammosi deb qaraladi. Yig'ilishda so'zga chiqqan kolxozchidan tortib, sovxoz mudirigacha, hatto oliygoh rektorlari mavjud tizimli muammoning asl sababini kadrlar muammosiga qaratishdi. Ushbu yig'ilishda qatnashgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi kotibi E.A.Aytmurodov ham kadrlar muammosini asosiy Markazga chiqarib, viloyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, xususan, qishloq xo'jaligidagi o'sishning ta'minlanmaganligiga "kadrlarni tarbiyalash, tanlash va joylashtirishda "lenincha tamoyillar"ni buzilganini alohida ta'kidlab o'tadi(20). Aslida vaziyat faqat kadrlar muammosi bilan bog'liq emas edi. Respublikada ishchi va xizmatchilarning boshqaruv xodimlari haddan tashqari ko'p edi. Ba'zi vazirliklar bo'linmalarida ishlovchilarning 30% ini, Goskomselxoznika bo'linmalarida 27% ni boshqaruv xodimlari tashkil etar edi. Har bir kolxoz yoki sovxozga o'rta hisobda agrosanoat kompleksining yuzdan ortiq boshqaruv xodimi

to'g'ri kelardi. Jiddiy kamchiliklar va nomutanosibliklar, foydalanilmayotgan zaxiralarning ko'pligi sekin-asta muammolarning ortib borishiga olib keldi.

80-yillar oxirlariga kelib, O'zbekiston xalqi og'ir va nochor iqtisodiy kambag'al ahvolga tushib qolgan edi. Shuningdek, ana shunday tizimsizlik tufayli iqtisodiy qiyin vaziyatni xalqimiz yana bir siyosiy qatag'onlik – "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" bilan bir vaqtda boshidan o'tkazishi uchun har jihatdan zamin yaratildi. O'zbekistonga yuzlab, minglab kadrlar yuborildi. Bu "kadrlar desanti" tarkibida o'zbek xalqi, turkiylar va musulmonlarga nisbatan qalbida nafrat va shovinizm g'oyalari burqsib turgan jallod-fashistlar ko'p edi. Ular butun SSSRda vujudga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy buhron oqibatlarini bartaraf etish o'rniga, asl sababdan chalg'itish yo'llariga o'tib, o'zbek xalqiga navbatdagi qatag'onlik uyushtirishni boshlab yubordilar.

O'zbekiston Kompartiya MQning XVI plenumi va unda Inomjon Usmonxo'jayevning Markazdan O'zbekistonga kadrlar bilan "yordam berish"ni so'rab qilgan murojaatidan so'ng bu ish avj oldi(2). Dastlab, respublika, viloyatlar partiya qo'mitalari rahbarlari, o'rinbosarlari keyinchalik prokurorlari o'rnini Markazdan yuborilgan "kadrlar desanti" egallay boshladi. Jumladan, 1984-yilning o'zida ichki ishlar organlarining eng yuqori lavozimlariga 150 nafar "kadrlar" keltirildi. Muhim, hal qiluvchi lavozimlardan mahalliy o'zbeklar butunlay chetlashtirildi yoki ular juda kamchilikni tashkil etardi. Mavjudlari ham arziyas soha va lavozimlarga qoldirilgandi(12).

"Paxta ishi", "o'zbeklar ishi" Moskvaning topshirig'i va ko'rsatmasi bilan amalga oshirilgan bo'lsa-da, o'sha davr ba'zi rahbarlarning Markazga yoqish va mansabini saqlab qolishga bo'lgan e'tiqodi sabab qilingan ishlari uning asosiy jaholat izi va o'zagi O'zbekistonning o'zida bo'lganligini aniq isbotlaydi. O'zbekiston ushbu to'lqinlar oldida nihoyatda himoyasiz qoldi. Respublikaning siyosiy elitasi ma'nan ezilgan, tushkunlikka yuz tutgan edi. 1989-yilda yaqindagina Ministrlar Sovetining rahbari bo'lgan shaxs ham, respublika partiya Markazkomining birinchi kotibi ham qamoqda saqlanayotganini aytishning o'zi kifoya. O'sha paytlarda SSSRning hech bir respublikasida bunday og'ir ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy vaziyat kuzatilmagan. Tobora kuchayib borayotgan siyosiy bo'shliq, ijtimoiy himoyasizlik, aholi sonining keskin ko'payishi va diniy ekstremistlar ta'sirining ortib borishi O'zbekistonda nosog'lom kuchlarning zo'ravonligi yuzaga kelishi uchun shart-sharoitlar yaratib berdi.

1988–1989-yillarda O'zbekiston SSR Kommunistik partiya markaziy qo'mitasining birinchi kotibi lavozimida ishlagan Rafiq Nishonov davrida ham mavjud ahvol keskinlashdi. Ayniqsa, "Paxta ishi" masalasida o'zbek xalqining qonuniy manfaatlarini emas, sovet davlatining manfur qatag'onini qo'llab-quvvatlashi, mavjud vaziyatni yanada murakkablashtirib yubordi.

XULOSA. O'zbekistondagi tergov guruhi o'z faoliyatining dastlabki davridanoq, asosan, partiya ko'rsatmalariga tayanib ish olib bordi. Tergov guruhi tashkil etilib, ularga respublika ustidan to'laqonli boshqaruv nazoratini o'rnatish topshirildi. T.Gdlyan guruhining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari davrida butun mamlakatda turli shov-shuvlarga sabab bo'lgan uydirmalarni tergovchilarning o'zlari to'qib chiqardilar. XX asrning 80-yillarida o'tkazilgan qatag'on siyosati davlat va hukumat rahbarlari, huquq-tartibot organlari xodimlari (militsiya, prokuror, sudya), qishloq xo'jaligi sohasi xodimlari (rais, paxta punkt mudiri, hisobchi, agronom, klassifikator, kassir, iqtisodchi, brigadir, paxta topshiruvchi vakil, punkt ishchisi, traktorchi, texnik xodim), xalq xo'jaligi tarmoqlari, maishiy xizmat va ta'lim sohasi xodimlariga nisbatan amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 259.
2. Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда совет бошқарув тизимидаги раҳбар ходимларнинг қатағон қилиниши ҳақида янги маълумотлар. / Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2012. – Б. 42.
3. Шамсутдинов Р ва бошқалар. Ватан тарихи. 3-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 419.
4. Каримов И. О ходе и основных направлениях перестройки, задачах обеспечения суверенитета и экономической самостоятельности Ўзбекской ССР, месте и роли Коммунистической партии Ўзбекистана в новой политической системе страны и республики. Политический доклад ЦК XXIII съезду Компартии Ўзбекистана, 4 июня 1990 года. – Ташкент: Ўзбекистон, 1990. – С. 7.
5. Социологические исследования. – Москва: Наука, 1989. – №1. – С. 14.
6. Юнусова Х.Э. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистонда ижтимоий иқтисодий жараёнлар ва маънавий ҳаёт. Тарих фан. докт. илм. дар. олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент, 2009. – В. 30.
7. Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945–1983 йиллар). – Тошкент: Фан, 2020. – Б. 136.
8. Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти. (1945–1983 йиллар). – Тошкент: Фан, 2020. – Б. 298.
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи, Ўзбекистон совет мустамлакачилик даврида (иккинчи китоб). М.Жўраев, Р.Нурилин ва бошқ. – Тошкент: Шарқ: 2000. – Б. 631
10. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. Учинчи китоб. – Андижон: Андижон нашриёт – матбаа. 2004. – Б. 598.
11. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. Учинчи китоб. Андижон нашриёт – матбаа. 2004. – Б. 599.
12. Азизхўжаев А., Умарова Н. Чин ўзбек иши. – Тошкент: Ўзбекистон., 2003. – Б. 254.
13. Ўз МА, Р-2772-фонд, 1-рўйхат, 1258-иш, 260-варақ.
14. Qashqadaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati arxivi manbalari.
15. 15.Surxondaryo viloyati Sudi, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati arxivi manbalari.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi arxivi Qashqadaryo filialining manbalari.
17. Payon Ravshanov: "Qashqadaryo: istiqloq arafasida. 1986-1989 yillar". 260 b.
18. Viktor Ilyuxin., "Qabohat yohud..("O'zbeklar ishi" degan uydirma xususida)" kitobi.
19. Ўз МА, Р-2772-фонд, 1-рўйхат, 1261-иш, 43-варақ.
20. Қашқадарё ВДА. 1-фонд, 32-рўйхат, 2-иш, 70–80-варақ
21. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/qotil-qoli-qilich-soldi-mast> - «Qotil qo'li qilich soldi mast...» Yana o'sha mash'um «Paxta ishi» . - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyev maqolasi.
22. <https://daryo.uz/2023/08/24/sharof-rashidov-hayoti-xuddi-sovet-ittifoqining-tugilishi-oyoqqa-turishi-va-chokishiga-oxshaydi-tarixchi-ozbekistonni-24-yil-boshqargan-rahbar-haqida>
23. <https://daryo.uz/2018/05/04/ozbekistonlik-ziyolilar-telman-gdlyanni-javobgarlikka-tortishni-talab-qild>
24. https://kun.uz/news/2019/05/21/kgb-ozbekistonga-qarshi-tarixchi-paxta-ishining-yashirin-sabablarini-malum-qildi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F05%2F21%2Fkgb-ozbekistonga-qarshi-tarixchi-paxta-ishining-yashirin-sabablarini-malum-qildi&sa=X&ved=2ahUKEwifm_mMyqfnAhWQ-KQKHd-IC14QFjAEegQIChAB#!
25. <https://lex.uz/docs/-111453>
26. <https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/safar-kattaboyev/>
27. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbek-ishi-va-paxta-ishi-musibatining-ildizi-qaerda-edi>
28. Хлопковое дело // <https://ru.wikipedia.org/wiki>
29. <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/shuhrat-barlos-gdlyan-jazolansa-tarixiy-adolat-tiklanadi>
30. <https://www.youtube.com/watch?v=7caIXBStylg> – Paxta ishi, hujjatli film, 2020 yilning 27 dekabr. Ushbu hujjatli film 2016-yil oktabr oyida tuzilgan Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondi doirasida tayyorlangan. Ushbu fondni tashkil etilganligi O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 25-yanvardagi PQ-2744-sonli qarorida tasdiqlangan.

IX – XII ASRLARDA NASAF VOHASIDA YOZMA ADABIYOT NAMUNALARINING VUJUDGA KELISHI

Xo'jayorov Asilbek Otabek o'g'li

Osiyo texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada IX – XII asrlarda Nasaf vohasida yozma adabiyot namunalarining vujudga kelishi, shu davrda faoliyat olib borgan voha ijodkorlari faoliyati haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, IX – XII asrlarda vohada ilmiy-adabiy jarayonlar shakllanishining tarixiy ildizlari va asoslari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Nasaf, adabiy hayot, yozma adabiyot, shoirlar, olimlar, turkiy til, arab tili, fors tili, "Majlisi tadrir", Varasiniy Nasafiy, Makhul Nasafiy, Ibrohim Nasafiy, Mustag'firiy Nasafiy, Ahmad Ustug'dodiziy, Abu Hafs Nasafiy, Hakim So'zaniy, Muayyiddin Nasafiy, Shahobiddin Ahmad, Abu Bakr Nasafiy.

Annotation. This article provides information about the emergence of written literature in the Nasaf oasis in the 9th-12th centuries, the activities of the oasis writers who worked during this period. It also discusses the historical roots and foundations of the formation of scientific and literary processes in the oasis in the 9th-12th centuries.

Key words: Nasaf, literary life, written literature, poets, scientists, Turkish language, Arabic language, Persian language, "Majlisi tadrir", Varasiniy Nasafiy, Makhul Nasafiy, Ibrahim Nasafiy, Mustag'firiy Nasafiy, Ahmad Ustug'dadiziy, Abu Hafs Nasafiy, Hakim So'zaniy, Muayyiddin Nasafiy, Shahobiddin Ahmad, Abu Bakr Nasafiy.

KIRISH. Ajdodlarimizning islom dunyosida shar'iy va dunyoviy ilmlar qatorida adabiyot, nafis san'at, xalq amaliy san'ati rivojlanishiga qo'shgan hissalar juda ulkandir. Masalan, Abu Mansur as-Saolibiy (961–1038) XI asrning 30-yillarigacha Xuroson va Movarounnahrda yashab, arab tilida ijod etgan 124 nafar shoirni sanab o'tadi. As-Saolibiydan keyin ham yurtimizda arab tilida ijod qilgan ko'plab adiblar yashagan [1].

Nasafda adabiy hayotning shakllanishi o'zbek adabiyotining umumiy taraqqiyoti tarixi bilan chambarchas bog'liq. IX – X asrlardayoq Nasafda yozma adabiyot namunalari vujudga kelgan edi [2]. XI asrlarda Nasafdin yetishib chiqqan shoirlar, olimlar an'anaga ko'ra, asosan fors tilida ijod etishgan. Chunki, Muqaddasiy ta'kidlaganidek, uzoq asrlar mobaynida Buxoro va unga qo'shni bo'lgan joylarda turkiy til bilan bir qatorda qadimiy sug'd tilining bir qancha shevalari iste'molda bo'lib kelganki, bundan Nasaf aholisining ma'lum bir qismi mustasno emas edi [3].

Movarounnahrda X asrda bo'lgan "Majlisi tadrir"ning Nasafda o'tishi, unga islomning nufuzli namoyandasining kelishi bu shaharning o'sha davrdagi ilmiy va madaniy mavqeini ko'rsatadigan dalillardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mo'g'ullar bosqiniga qadar Nasafda ilm-fan va madaniyat ancha yuqori pog'onaga ko'tarilgan. Shahar bu davrlarda Samarqand va Buxoro bilan raqobat qila oladiga darajaga yetadi. Ma'lumki, somoniylar davri Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim o'rin egallaydi. Somoniylar hokimiyatini boshqargan-yillarda ilm-fan va adabiyotga katta e'tibor berilgan. Bu esa Buxoro va unga qo'shni bo'lgan joylarda ham ma'daniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Hokimiyat tepasiga somoniylar kelgach, arab tili asta-sekin o'z o'rnini fors tiliga bo'shatib bera boshlaydi. Fors tili endi ilm-fan va badiiy adabiyot tili sifatida maydonga chiqadi. Bu davrda yashagan buxorolik, samarqandlik, nasaflik shoirlar o'z asarlarini ana shu tilda yozadilar. O'zbek adabiyoti tarixida ko'p asrlardan buyon an'ana bo'lib kelayotgan zullisonaynlik – o'zbek va fors-tojik tillarida ijod etish ildizi shu davrga to'g'ri keladi [4].

X asr oxirlarida yashagan geograf Muqaddasiy Nasaf shahrida o'tkazilgan bir "Majlisi tadrish" haqida yozib qoldirgan. Muqaddasiy o'sha davr olimlarining o'z ilmiy ishlarini tarqatish va yoyishda qo'llaydigan ikki usuli haqida so'zlaydi. Odatda, fiqhga oid suhbat va bahslar masjidlarda o'tkazilgan. Shu bilan birga, olimlar o'z uylarida yoki maxsus rabotlarda ma'ruzalar tashkil etganlar. Buni o'rta asrdagi ilmiy kongress desak, fikr aniqroq bo'ladi. Ilmiy kongress majlisi tadrish uzoq davom etgan, unga odatda chet ellardan ham olimlar taklif etilgan. Majlisi tadrish usuli olimlarning ilmiy ishlariga, yangi tadqiqotlariga baho berish yig'inigina bo'lib qolmay, uni boshqa mamlakatlarga yoyish imkonini ham bergan. Chet ellardan taklif etilgan olimlar ma'lum bir shaharga kelar ekan, munozara tashkil etish, o'zi bilgan va bahslashishni istagan olimlarni to'plash huquqiga ega bo'lgan.

Professor Abduqodir Hayitmetov o'rta asrlar ilm-fanidagi o'ziga xos jihat haqida gapirib, uning adabiyotshunoslikka ham dahli borligini quyidagicha ko'rsatadi. "Adabiy majlislar, adabiy munozara va suhbatlar o'rta asrlarda adabiyotshunoslar, shoirlar va adabiyotga yaqindan qiziquvchi barcha kishilar uchun adabiy ijod ustida, adabiy asarlar ustida fikr almashish uchun matbuot bo'lmagan zamonlarda adabiyot taraqqiyotida bunday yig'ilishlarning ahamiyati juda katta bo'ldi. Shuning uchun ham hokim sinf ideologiyasini adabiyot orqali ham xalqqa singdirmoqchi bo'lgan podshohlar u davrlarda shoirlarni o'z saroyiga yig'ib, ularning adabiy to'planishlariga ham ma'lum darajada e'tibor berdi. Buning isboti uchun biz somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, xorazmshohlarning saroylaridagi adabiy yig'ilishlarini eslab o'tsak kifoya" [5].

TADVIQOT METODOLOGIYASI. X – XI asrlarda arab tili hali ma'lum ta'sirga ega edi. Buxoro, Samarqand shaharlarida mahalliy turkiy aholidan chiqqan olimlar, adiblar arab tilida ilmiy-badiiy asarlar yaratishda davom etayotgan edilar. Bu asrlarda nasaflik ziyolilar faoliyatida ham arab tili katta rol o'ynagan. Bu jihatdan Abu Hafs Nasafiy, Abul Barakat Nasafiylarning ilmiy merosi xarakterli hisoblanadi.

X asr oxirlariga kelib turkiy sulola – qoraxoniylar somoniylardan hokimiyatni tortib oladi. Qoraxoniylardan bo'lgan turk hukmdorlari davrida fors tilida ijod qilish an'ana tusini olgan edi. Turk hukmdorlari forsiy tilda ijod qiluvchi shoirlarga rahnamolik qilar, hatto o'zlari ham bu tilda she'rlar yozar edi [6].

Qoraxoniylar davrida taomilga kirgan bu xildagi "madaniy siyosat" ko'p vaqtlargacha o'z ta'sirini saqlab keldi. Chunonchi, XI – XIV asrlarda yashagan bir qancha qashqadaryolik adiblar (masalan, Shahobiddin Nasafiy, Abu Hafs Nasafiy, Hakim So'zaniy va boshqalar) asosan fors tilida ijod qildi. Shu tariqa, fors tilidagi adabiyotning rivojiga turkiy xalqlar ham katta hissa qo'shadi [7].

NATIJARLAR VA MUHOKAMA. O'rta asrlarda Nasaf vohasidan yetishib chiqqan bir qancha olimlar adabiyot va tilshunoslikka oid faoliyat bilan ham shug'ullanishgan. Tarixchi va hadisshunos olim **Abul Horis Asad ibn Hamdavayh al-Varasiniy Nasafiy** (vaf. 928) ana shulardan hisoblanadi. Nasaf viloyatining Varasin qishlog'ida tug'ilgan. Abdulkarim Sam'oniyy u haqda shunday yozadi: "Bu kishi muhaddis, chiroyli tasnif qiluvchi olimlardan bo'lib, Nasaf

shahrining iftixori edilar. Nasaf ahli u kishi nomini faxr bilan tilga olar edi. Bu kishi uylaridan ko'p chiqmas edi. Agar chiqsalar ham qo'llarida siyohdon, qalam va daftar bo'lar edi" [8].

Hamdavyah al-Varasiniy o'z davrining mashhur kishilaridan ta'lim olgan. Xususan, Tufayl ibn Zayd at-Tamimiy, Musanno ibn Ibrohim al-G'ubdiniy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy va boshqa o'z zamonasining ko'p olimidan ta'lim olgan. Abulkarim Sam'oniyy allomaning bir qator asarlarini sanab o'tgan. "Al-Bo'ston" ("Bo'ston"), "al-Ajoib" ("Ajoyib"), "Axbor ul-Hasan val-Husayn" ("Hasan va Husanning xabarlarini"), "al-Maqtal" ("Jangnoma"), "Mafoxiratu ahlu Kesh va Nasaf" ("Kesh va Nasaf ahlining faxrli kishilari") kitoblari shular jumlasidan hisoblanadi. So'nggi asari shaharlar tarixi va mashhur shaxslarga bag'ishlangan. Sam'oniyy ham o'zining "Kitob al-ansob" asarini yozishida ushbu asardan ko'p o'rinlarda foydalanganligini aytadi. Allomaning "Kitob an-nasab" ("Nisbalar haqida kitob") deb nomlangan asari esa tilshunoslikka oid bo'lgan. Afsuski, bu asarlar bizning davrimizicha yetib kelmagan [9].

Abu Muti' Makhul Fazl Nasafiy (vaf. 930) arabiyshoir va adib hisoblanadi [10]. U "Kitob fi fazli Subhanalloh" ("Subhanalloh so'zining fazilatlarini haqida kitob"), "Kitob fi-t-tasavvuf" ("Tasavvuf haqida kitob"), "Al-lu'luyot fi mavoiz" ("Mulklar marvaridi") singari asarlar yozgan [11].

"Al-lu'luyot fi mavoiz" asari bizga qadar yetib kelgan. U 153 bobdan iborat bo'lib, kitobda pand-nasihatlari, hadislar va allomaning o'zi yozgan she'rlar jamlangan [12]. Mazkur asar 1835-yili Mahmud ibn Hasan ibn Qozi Oraj tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Asarning tarjimasi Sankt-Peterburgdagi M.Ye.Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxonaning Sharq qo'lyozmalari bo'limida PNS-18 raqami ostida saqlanadi. U xattot Muhammad Sharif ibn Mir Solih Qoratog'iy tomonidan ko'chirilgan. Asarning 1868-yili ko'chirilgan o'zbekcha tarjimasi ham mazkur kutubxonada saqlanadi. Forscha tarjimaning bir nusxasi O'z FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar jamg'armasida 2662/1 ashyoviy raqam ostida mavjud [13].

Abul Muti' Nasafiy asari fors tiliga tarjima qilingandan 33-yil o'tgach, uning o'zbekcha tarjimasi ham yaratiladi. "Al-lu'luyot fi mavoiz"ning o'zbekcha tarjimasi bevosita originaldan emas, yuqorida aytilgan Qozi Oraj "Munis al-inson" asari asosida bajarilgan, o'zbekcha nusxaning tarjimoni noma'lum, asarning 1868-yilda ko'chirilganligi ma'lum. O'zbekcha tarjimada ham "Munis al-inson" nomi saqlab qolingan. Leningradda, kutubxona qo'lyozmalar bo'limida Abul Muti' Nasafiy asarining o'zbekcha tarjima nusxasi TNS-16 raqami bilan qayd etilgan. Abul Muti' Nasafiy axloqiy-didaktik hikoyatlarda to'g'rilik, halollik, rostgo'ylik, yaxshilik, ilmga intilish g'oyalari ulug'laydi [14].

Abu Usmon Said ibn Ibrohim Nasafiy (vaf. 952) taniqli tilshunos va adabiyotshunos olim bo'lgan. Allomaning hayoti va ilmiy merosi haqida tarixiy manbalarda nihoyatda kam ma'lumotlar uchraydi. Abdulkarim Sam'oniyy uning "Al-adab vash-shi'r" ("Adabiyot va she'riyat haqida kitob") asari mavjudligini qayd etib o'tgan [15].

Abul Abbas Ja'far ibn Muhammad Mustag'firiyy Nasafiy (962 – 1041) fiqh va hadisshunoslikda, tarix va tilshunoslikda keng kamrovi bilim sohibi bo'lgan. Olim turli mavzulardagi 10 dan ortiq kitob, jumladan, "Nasaf va Kesh tarixi" nomli 2 jildli mufassal asar muallifi hisoblanadi. Afsuski, bu kitob bizgacha yetib kelmagan. Shuningdek, ushbu asarida nasaflik va keshlik 43 ta olim, shoir va din arboblari haqida hikoya qiladi. Abdulkarim Sam'oniyyning yozishicha, bu asarda X – XII asrlarda Nasaf va Keshda yashagan mashhur olim, shoir va din arboblari haqida qimmatli ma'lumotlar bo'lgan. Muallif ularni 80 toifaga bo'lib tasvirlagan [16].

Sam'oniylar o'zining "Kitob al-ansab" asarini yozishda "Nasaf va Kesh tarixi" kitobidan unumli foydalangan, undan parchalar keltirgan. Shuningdek, olim va tarixchining 18 nafar ustozlari va shogirdlari haqida ma'lumot bergan. Mazkur tarixiy asarda muallifning 4 nafar ustozlari va 2 nafar shogirdlari haqida ham ma'lumot berilgan. Mustaqil ravishda ushbu asaridan tashqari yana bizning davrimizgacha yetib kelmagan "Samarqand tarixi" nomli asarini ham yozgan [17].

Abu Ahmad Muhammad ibn Ahmad Ustug'dodiziy (vaf. hijriy 439 (milodiy 1048) shayx va adabiyotshunos olim sifatida nom qozongan. G'aznaviy davlati (961 – 1186) hukmdori Mahmud G'aznaviy (997 – 1030) bu shaxsni o'z saroyiga taklif etgan. Olim G'azna shahriga borib, sultonning farzandlariga adabiyot ilmidan saboq bergan. So'ngra katta obro'-e'tibor bilan Nasafga qaytib kelgan [18]. Keyinchalik vatanlariga qaytib, doimo ibodat bilan mashg'ul bo'lgan. Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Buxoriy va Abu Is'hoq Ibrohim ibn Abu Bakr ar-Roziydan ta'lim olgan. O'zlaridan esa Abu Muhammad Abdulaziz Naxshabiy ta'lim olgan [19].

Abu Hafs Nasafiy. Abu Hafs Nasafiy Abul Hasan Kasbaviy (vaf. 485/1092 y.) dan adabiyot ilmini o'rgangan [20]. Abu Hafs Nasafiy "al-Manzumatu-n-nasafiya fi-l-xilofiyot", "Nazmu-l-Jomi'i-s-sag'ir" asarlarida hanafiy fiqhini birinchilardan bo'lib nazmga tushirgan. Shuningdek, "Al-Ash'or bi-l-muxtor mina-l-ashor" (She'rlardan tanlangan she'rlar) nomli to'plamda olimning eng mashhur she'rlari jamlangan. U 20 jilddan iborat bo'lib, manbalarda "al-Ash'or" tarzida ham uchraydi. "Kitob al-Qand" tarkibida kelgan she'rlari XI – XII asrlarda Movarounnahrda shakllangan she'riyat haqida qimmatli ma'lumotlar beradi [21]. Jumladan, "Kitob al-qand" asarida keltirilgan hadislaridan aksariyatini o'z tili bilan she'riy uslubda ham sharhlab o'tgan [22].

Shuningdek, uning "Ujolat an-Naxshabiy li dayfixi-l-Mag'ribiy" (an-Naxshabiyning o'z mehmoni al-Mag'ribiyga) she'riy asari bo'lganini Abdulkarim Samoniy asarida zikr qilib o'tadi [23].

Abu Hafs Nasafiy arab tili grammatikasiga doir asarlar ham yaratgan. Nosir Muhammad "Nasaf va Kesh allomalari" deb nomlangan asarida allomaning "Sharh al-g'arib" ("Ma'nosi mavhum so'zlar sharhi") asari uchta qo'lyozma nusxasi bizning davrimizgacha yetib kelganligini ta'kidlab o'tadi [24].

Abu Hafs Nasafiyning eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Matla' an-nujum va majma' al-'ulum" to'plamida alloma tavsif etgan 40 ta mavzu orasidan salmoqli qismi adabiyot va tilshunoslik ilmlariga oiddir. Jumladan, insho (2 ta mavzu), arab tilshunosligi (8 ta mavzu), she'riyat (2 ta mavzu), she'r san'ati ilmi (2 ta mavzu), maqollar (2 ta mavzu) kabi bo'limlardan iborat [25].

Xususan, ushbu asarning Insho bobidan o'rin olgan birinchi mavzu "Yozish qoidalari va ritorika boblariga oid 50 ta bo'lim" deb nomlanadi. Unda podshoh yoki vazirga murojaat qilishning qonun-qoidalari, shuningdek, biron-bir odam farzand ko'rganda, musofir safaridan qaytganda va h.k.larga maktub yozish qoidalari kabi ma'lum ma'noda rasmiy yozishmalardan namunalar keltiradi [26].

"Matla' an-nujum va majma' al-'ulum" asarining she'riyat bobi sahobalar, shoirlar, xalifalar, sultonlar hamda mashhur olimlar va ma'rifat ahlining she'riy parcha namunalarini o'z ichiga olgan. Mazmunan ular ishq, qashshoqlik, qarilik, betoblik, taqdir va zamondan shikoyat, hazil-mutoyiba, axloq-odob haqida, shuningdek, pand-nasihati va hikmatli so'zlardan iborat. Abu Hafs Nasafiy arab tilidagi ayrim she'rlarning forscha tarjimasini ham beradi. Shu bilan birga bu yerda muallifning o'z she'rlari ham o'rin olganligi diqqatga sazovordir.

Hakim Soʻzaniy. Shamsiddin Muhammad ibn Ali Soʻzaniy (Hakim Soʻzaniy) 1091-yili Nasaf shahrida tugʻilgan. Yoshlik-yillari shu yerda oʻgan. Soʻngra tahsil olish uchun Buxoro shahriga borgan. Bu yerda bir soʻzangarga (igna yasovchi) shogird tushib, mahoratli usta boʻlib yetishgan. Ayni paytda, gʻazal va qasidalar bilan tanilgan.

Tojikistonda chop etilgan “Suxanvaroni sayqali roʻyi zamin” tazkirasida taʼkidlanishicha, Soʻzaniy Buxoroda tahsilini tugatgach, Qoraxoniylar saltanatining oʻsha paytdagi siyosiy markazi boʻlgan Samarqand shahriga kelgan va xon saroyiga xizmatga kirgan. Bu davrda u Soʻzaniy Samarqandiy nomi bilan ham shuhrat topadi [27].

Shoir Soʻzaniy hayoti va ijodiyoti yetarli tadqiq etilgan emas. Biroq, shoir oʻzining mashhur zamondoshlari tomonidan eʼtirof etilishi, adabiyotshunoslik asarlarida ijobiy baho olishiga koʻra, zamonasining peshqadam ijodkorlaridan biri boʻlgan. Masalan, XIII asrda yetishgan buxorolik adib va adabiyotshunos Muhammad Avfiy “Lubob ul-albob” asarida shoir Soʻzaniy ijodiga yuksak baho beradi [28].

Davlatshoh Samarqandiy oʻzining “Tazkirat ush-shuaro” kitobida Soʻzaniy haqida shunday yozadi: “... xushtaʼb va zarifsuxan odam edi. Yoshligida puxta tahsil oldi, ammo taʼbi hazilga juda moyil edi. U tahsil olgan madrasa ulamolari oʻzaro til biriktirib, hamxonalaridan birini Soʻzaniy hajv qilishga koʻndirdilar. U kishi Suzaniyga nozik hajvlar aytgan va Soʻzaniy unga munosib javob bergan. U hajvlarni ushbu kitobda keltirish munosib emasdir...” [29].

Abdurahmon Jomiy oʻzining “Bahoriston” asarida Soʻzaniy haqida qisqacha maʼlumot berib, sheʼrlaridan namuna keltiradi. Jomiydek adabiyot bilimdoni eʼtiboriga sazovor boʻlishning oʻziyoq Soʻzaniy sheʼriyat sanʼatini puxta egallagan ijodkor boʻlganligidan dalolat beradi [30]. Mazkur tavsifdan koʻrinadiki, Soʻzaniy mohir soʻz ustasi boʻlgan va “askiya” uslubida ajoyib javoblar qaytargan.

Soʻzaniy Amʼaqi Buxoriy, Sanoiy, Anvari, Muizziy, Adib Sobir, Rashid Samarqandiy kabi shoirlar bilan zamondosh boʻlgan. Ularning mushoira va ijodiy davralarida ishtirok etgan. Ayni paytda, Lomeiy Buxoriy, Jannatiy, Shams Xola, Shatranjiy kabi shoirlarga ustozlik qilgan. Shamsiddin Suzaniy 80-yildan ortiqroq umr koʻrgan va 1174/75-yili vafot etgan. Samarqanddagi Chokardiza qabristonida imom Abu Mansur Moturidiy va Abu Hafs Nasafiy qabri yoniga dafn etilgan. Shoirning 10 – 12 ming misrani oʻz ichiga olgan sheʼrlar devoni Dushanbe shahrida saqlanadi. Oʻz FA Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar fondidagi “Majmaʼ al-gʻaroyib” tazkirasida ham Soʻzaniy ijodidan namunalar mavjud [31].

XII asrda faoliyat olib borgan nasaflik ijodkorlardan biri **Muayididdin Nasafiy** hisoblanadi. Muhammad Avfiy oʻzining “Lubob ul-albob” [32] tazkirasida Muayididdin Nasafiy “Ustod ush-shuaro” (“Shoirlar ustodi”) deb ataydi. Muayididdin Nasafiy asarlari oʻz davrida nihoyatda mashhur boʻlgan. “Uning sheʼrlar devoni qizil gugurt va tillorang yoqut kabi aziz va kamyobdir”, deb yozadi Muhammad Avfiy.

Muayididdin Nasafiy garchi Nasafda tugʻilgan boʻlsa-da, Samarqandda yashagan va qoraxoniylar hukmdorlar vafida qasidalar bitgan. Jumladan, “Pahlavonnoma” nomli masnaviyi qoraxoniylar hukmdori Pahlavon Jaloliddinga bagʻishlangan. Afsuski, shoirning sheʼrlar devoni va yuqorida tilga olingan “Pahlavonnoma” masnaviyi bizgacha yetib kelmagan.

XII asrda Movarounnahrda yashagan boshqa shoirlar singari Muayididdin ham qashshoqona hayot kechirgan. Uning qasidalar va qitʼalarida aks etgan turmush uqubatlaridan shikoyat ana shundan dalolat beradi. “Lubob ul-albob”da shoirning ikki qasidasi, bir qitʼasi va bir ruboiysi keltirilgan [33].

Muayididdin Nasafiyning o'g'li **Shahobiddin Ahmad** (XII asrning ikkinchi yarmi) ham davrining taniqli so'z ustalaridan biri bo'lib yetishgan. U asosan Samarqandda, Abulmuzaffar Ruknuddin Qilich Tamg'ochxon Mas'ud ibn Hasan (1162 – 1173) davrida yashagan. Bu hukmdor sha'niga bir qator qasidalar yozgan.

Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'zining “Majma' an-navodir fi chahor maqolat” asarida saljuqiylar sulolasi podshohlarining nomlarini abadiylashtirgan shoirlar qatori Shahobiddin Ahmadning ham nomini tilga olgan. Kitobda Shahobiddin Nasafiyning saljuqiylar davrining ko'zga ko'ringan shoirlari qatorida tilga olinishining o'zi ham nasaflik shoirning adabiy hayotda tutgan mavqeini bilgilash uchun kifoya qiladi [34].

Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Chahor maqola” asarining 1963-yil A.N.Boldirev tahririda bosilgan ruscha nashriga izoh yozgan adabiyotshunos Z.N.Vorojeykinaning e'tirof etishicha, Shahobiddin Nasafiy sermahsul ijodkor bo'lgan, ammo uning “she'rlaridan faqat Rukniddin Mas'udni ulug'lovchi bir necha qasidalar yetib kelgan” [35].

Shoirning she'rlar devoni bizgacha yetib kelmagan. “Lubob ul-albob” va “Majma' ul-fusaho” tazkiralarda uning uch-to'rt qasidasi keltirilgan. Taniqli Eron olimi Said Nafisiy qadimiy qo'lyozmalardan uning yana bir necha qasidasini topib, “Tarixi Bayhakiy” kitobiga ilova tarzida chop ettirgan edi [36].

Muhammad ibn Abu Bakr Nasafiy (XII asr oxiri – XIII asr boshlari) nasaflik taniqli olim, shoir va mudarris hisoblanadi. Samarqand madrasalarida dars bergan. “Lubob ul-albob”, “Javome' ul-hikoyot va lavome' ur-rivoyot” asarlarining muallifi bo'lgan mashhur adib Nuriddin Muhammad Avfiyga ustozlik qilgan. Abu Bakr Nasafiy Sharafiddin Husom taxallusi bilan ijod qilgan. Shoirning “Nashkanad” (“Sinmaydi”) radifli qasidasi nihoyatda mashhur bo'lgan [37].

XULOSA.

Nasafda adabiy hayotning shakllanishi o'zbek adabiyotining umumiy taraqqiyoti tarixi bilan chambarchas bog'liq. IX – X asrlardayoq Nasafda yozma adabiyot namunalari vujudga kelgan edi. Bu davrlarda Nasafdan yetishib chiqqan shoirlar, olimlar an'anaga ko'ra, asosan arab tilidan, keyinchalik fors tilida ijod etishgan. Bu davrda Abul Horis Hamdavayh Varsiniy Nasafiy, Abu Muti' Makhul Fazl Nasafiy, Abul Abbos Mustag'firy Nasafiy, Abu Hafs Nasafiy, Shamsiddin Muhammad ibn Ali So'zaniy, Muayididdin Nasafiy kabi ijodkorlar samarali faoliyat ko'rsatishgan. Shuningdek, voha allomalari aniq va tabiiy fanlar sohalarida ham izlanishlar olib borishgan. Masalan, Abu Hafs Nasafiyning “Matla' an-nujum va majma' al-'ulum” qomusiy to'plamida astronomiya, matematika, tibbiyot va zoologiya ilmlariga oid boblar mavjud. Bu allomalar dunyoviy va diniy fanlar bilan uyg'un holda shug'ullangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эркаев А. Янги Ўзбекистон: мўлжал – Учинчи Ренессанс. – Тошкент: “Маънавият”, 2021. – Б.41 – 42. (96 б.)
2. Равшанов П. Адабий саҳифалар. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1985. – Б.55.
3. Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии... – Соч., т. 2, ч. 1. – Москва, 1963. – С.465.
4. Бартольд В.В. Общие работы по истории Средней Азии... – Соч., т. 2, ч. 1. – Москва, 1963. – С.247.
5. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Тошкент, 1970. – Б.309.

6. Стеблева И.В. Развитие тюрских поэтических формы XI века. – Москва, 1971. – С.4.
7. Равшанов П. Адабий саҳифалар. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1985. – Б.19.
8. Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансоб). Таржимонлар: Абдулғафур Бухорий, Комилжон Раҳимов. – Тошкент: “Nilol-Nashr”, 2017. – Б.317.
9. Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари (IX – XX асрлар). 2-нашр. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2006. – Б.24 – 25.
10. Базарбаева Н. Абу Мутиъ Макхул Насафий. Илмий рисола. – Тошкент: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2022. – Б.11. (36 б.)
11. Массиньон Л. Essai sur les Origines de Lezique Technique de la Mustique Musulmane. – Paris, 1922. – P.241.
12. Паздавий Абу-л-Йуср Муҳаммад. Китоб усули-д-дин / X. Питер нашри. – Қоҳира: Дор ихйау-л-кутуби-л-арабийа, 1383/1963. – Б.241
13. Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари (IX – XX асрлар). 2-нашр. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2006. – Б.25.
14. Равшанов П. Адабий саҳифалар. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1985. – Б.17.
15. Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари (IX – XX асрлар). 2-нашр. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2006. – Б.27.
16. Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари (IX – XX асрлар). 2-нашр. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2006. – Б.27 – 28.
17. Камолиддинов Ш. Китаб ал-ансаб Абу Са’да Абдалкарима ибн Мухаммада ас-Сам’ани как источник по истории и истории культуры Средней Азии // Под редакцией П. Г. Булгакова. – Ташкент: Фан, 1993. – С.146.
18. Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари (IX – XX асрлар). 2-нашр. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2006. – Б.29.
19. Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансоб). Таржимонлар: Абдулғафур Бухорий, Комилжон Раҳимов. – Тошкент: “Nilol-Nashr”, 2017. – Б.274.
20. Камолиддинов Ш. Китаб ал-ансаб Абу Сада Абдалкарима ибн Мухаммада ас-Самани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. – Ташкент: “Фан”, 1993. – С.17.
21. Аллоқулов А. Абу Ҳафс Насафийнинг “Ақоид” асари ва унинг шарҳлари таҳлили. – Тошкент: “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2022. – Б.42.
22. Ўрта аср шарқ алломалари ва мутафаккирлари энциклопедияси. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2016. – Б.260.
23. Камолиддинов Ш. Китаб ал-ансаб Абу Са’да Абдалкарима ибн Мухаммада ас-Сам’ани как источник по истории и истории культуры Средней Азии // Под редакцией П. Г. Булгакова. – Ташкент: Фан, 1993. – С.154.
24. Носир Муҳаммад. Насаф ва Кеш алломалари (IX – XX асрлар). 2-нашр. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2006. – Б.34.
25. Муҳаммадаминов С. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Матла’ ан-нужум ва мажма’ ал-‘улум” асари ва унинг Марказий Осиё ислом илмлари ривожига тутган ўрни (XI аср охири

MAMLAKATIMIZDA TARIXIY OBYEKTLARNI ASRASH VA ULARDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Murod Allayev

IIV Qashqadaryo akademik litseyi

Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston madaniy meros ob'ektlarini asrab-avaylash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Shahrizabz, Arxitektura va shaharsozlik, Butunjahon merosi, Arxeologiya merosi, Madaniy meros, "Me'mor" ta'mirlash uyushmasi, O'zbekturizm, turizm sohasi, rekonstruksiya.

Annotation. This article analyzes the ongoing efforts to preserve cultural heritage sites in Uzbekistan and the opportunities for developing the tourism sector.

Key words: Shakhriyabz, Architecture and Urban Planning, World Heritage, Archaeological Heritage, Cultural Heritage, "Me'mor" Restoration Association, O'zbekturizm, Tourism Sector, Reconstruction.

KIRISH. Mustaqillikning dastlabki-yillaridan boshlab, O'zbekiston hukumatining ustuvor yo'nalishlaridan biri tarixiy shaharlar va obidalarni asrab-avaylash va tiklash bo'ldi. Buyuk davlat va jamoat arboblari, allomalar yubileylari munosabati bilan keng ko'lamda ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Bu jarayonda nafaqat obidalarni asl holiga qaytarish, balki ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishga ham alohida e'tibor qaratildi. Jahon miqyosida madaniy meros ob'ektlarini himoya qilishga bo'lgan e'tibor ortib borishi O'zbekistonga YUNESKO bilan hamkorlikni kuchaytirishga turtki bo'ldi.

1992-yil 27 iyulda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi va aynan shu-yilning 20 oktyabrda Vazirlar Mahkamasining 424-sonli qarori asosida Dastur qabul qilindi. Bu milliy turizmni tashkil qilish uchun asos bo'ldi [1]. 1993-yil O'zbekiston 120 dan ortiq davlatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (VTO)ga a'zo bo'ldi [2].

Madaniyat ishlari vazirligi qoshidagi Yodgorliklarni saqlash bosh boshqarmasi tomonidan 1992-yilda Madaniy merosni asrash to'g'ridagi qonun ishlab chiqildi [3] va O'zNIPI instituti va "Me'mor" ta'mirlash uyushmasiga ta'mirlash va tiklash ishlari yuklatildi [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tarixiy va madaniy yodgorliklar O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni bilan huquqiy muhofazaga olingan. Qolaversa, bir qator huquqiy hujjatlar ham qabul qilinmoqdaki, ular obidalarning tiklanishiga, qayta chiroy ochishiga sabab bo'ldi [5].

O'zbekiston tarixiy-madaniy meros bo'yicha xalqaro qonunlar, konvensiyalarni o'rganish va qabul qilishga alohida e'tibor qaratdi. Hozirgi kunda O'zbekiston bo'yicha to'rtta madaniy-tarixiy ob'ekt – Xiva shahridagi Ichan qal'a 1991-yilda, Buxoro shahrining tarixiy markazi 1993-yilda, Shahrizabz shahridagi Amir Temur va temuriylar davri me'moriy yodgorliklari 2000-yilda, Samarqand shahrining tarixiy yodgorliklari 2001-yilda YUNESKOning "Butunjahon tarixiy-madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi [6]. Samarqand shahri "The Huffigton Post" internet nashri tomonidan inson o'z umri davomida hech bo'lmasa bir marta borib ko'rishi shart bo'lgan dunyodagi 50 shahardan biri sifatida e'tirof etilgan [7].

1992-yili O'zbekiston va Turkiya davlatlari hukumatlari tuzgan o'zaro shartnomaga muvofiq madaniy aloqalarni yanada kuchaytirish maqsadida Turkiyadan bir guruh kishilar respublikamizga tashrif buyurishdi. Ulardan Turkiya Respublikasi Madaniyat vazirining o'rinbosari Yahyo Oqsuybey, vazirlik bosh boshqarmasi boshlig'i Ilxon Shamshekbey, vazirlikning mas'ul xodimlari Dug'on Chevekbey, Murdjella Kaxverknlar Qashqadaryo viloyatida ham mehmon bo'lishdi. Ular viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i Mamatqul Rajabov hamrohligida viloyat musiqali drama teatriga tashrif buyurishdi, xalq og'zaki ijodining ravnaq topishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan ayrim baxshilarning chiqishlarini tingladi, amaliy san'atimiz namunalari, tarixiy va madaniy yodgorliklarimiz bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, ikki mamlakat vakillari o'rtasida tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash sohasida hamkorlik aloqalarini o'rnatishga kelishib olindi [8].

1972-yilda YUNESKO tomonidan qabul qilingan rezolyutsiya va 1983-yilda BMT tomonidan belgilangan "Yodgorliklar va tarixiy joylarni asrash xalqaro kuni" O'zbekiston uchun madaniy merosni saqlash bo'yicha xalqaro standartlarni qo'llashga turtki bo'ldi. O'zbekiston bir qator tarixiy shaharlari va obidalar majmuasini YUNESKOning "Butunjahon madaniy va tabiiy merosi" ro'yxatiga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Xiva Ichan-Qal'asi (1991), Buxoro tarixiy markazi (1993), Shahrisabzdagi Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari (2000) va Samarqand tarixiy yodgorliklari (2001) shu ro'yxatga kiritilgan. Samarqandning "Butunjahon merosi" ro'yxatiga kiritilishi uning jahon miqyosidagi ahamiyatini yanada oshirdi va sayyohlik salohiyatini kengaytirdi. Samarqandning dunyodagi eng go'zal shaharlar qatoriga kiritilishi esa uning turizm sohasidagi o'rnini yanada mustahkamladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. O'zbekiston madaniy meros obyektlarini turizm sohasida qo'llash orqali iqtisodiy rivojlanishga erishishga harakat qilmoqda. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasining tashkil etilishi (1992) va Jahon turizm tashkilotiga a'zo bo'lish (1993) turizm sohasini rivojlantirish uchun muhim qadamlar bo'ldi. Tarixiy obidalarni ta'mirlash va tiklash ishlari turizm infratuzilmasini yaxshilash bilan birga amalga oshirilmogda. Mehmonxonalar, transport va boshqa xizmatlarning rivojlanishi sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

1997-yilning to'qqiz oyi mobaynida Xiva va Buxoro shaharlarining 2500-yillik yubileylariga tayyorgarlik ko'rish munosabati bilan tarix va madaniyat yodgorliklarida davlat byudjeti hisobidan 259,1 mln so'mlik ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi. Bu mablag'ning 74 mln. so'mi Xiva, 185,1 mln. so'mi Buxoro shahridagi obyektlar uchun sarf qilindi [8].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O'zbekistonda sohani rivojlantirishning huquqiy asoslari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etib borildi. 1995-yili "Arxitektura va shaharsozlik" bo'yicha qonun qabul qilindi. Ushbu yangi qonunga muvofiq tarixni, madaniy boyliklarni, iqlimni, hududimizga xos bo'lgan holatlarni e'tiborga olgan holda 148 ta milliy-davlat "Qurilish me'yorlari va qoidalari" ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etib borildi. Tarixiy va madaniy yodgorliklar O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi hamda "Arxeologiya merosi ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunlari bilan huquqiy muhofazaga olingan [9].

1996-yil aprel oyida O'zbekiston "Butunjahon madaniyat va tabiat merosini saqlash konvensiyasi"ga qabul qilindi. Mazkur konvensiyaning umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan boyliklarini hisobga olish "Butunjahon merosi ro'yxati"ga 1996-yil iyun oyida respublikaning 22 ta tarixiy yodgorligi ro'yxati yuborildi [10]. O'zbekiston Respublikasi YUNESKO tashkilotining

teng huquqli a'zosi sifatida [11] Xivadagi Ichanqal'a qo'riqxonasi (1990) hamda Buxoroning tarixiy markazida (1993) joylashgan yodgorliklar, Shahrisabz shahridagi Amir Temur va temuriylar me'moriy yodgorliklari (2001) va Samarqand shahri markazidagi tarixiy yodgorliklar (2002) Xalqaro jahon madaniy merosi qo'mitasiga 13 ta mashhur yodgorliklar sifatida ro'yxatga olindi [12].

1996-yil 14 martda Vazirlar Mahkamasining "Toshkentda O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzurida Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"gi hamda "Xalqaro Amir Temur jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. 1996-yilning aprel oyida Parijda, YUNESKO qarorgohida Amir Temur tavalludining 660-yilligi keng nishonlandi. Eng quvonarlisi shundaki, 1996-yilning 26 aprelida "Amir Temur" ordenini ta'sis etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yilning 28 avgustidagi farmoniga asosan Samarqand va Shahrisabz shaharlari Amir Temur ordeni bilan mukofotlandi. 1996-yilning 18 oktyabrda Toshkent shahrida Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Shu kuni Samarqand va Shahrisabzda ham Amir Temur haykallarining tantanali ochilish marosimi xalqaro miqyosda keng jamoatchilik o'rtasida tashkil etildi [13].

"O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi" loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 2 iyundagi farmoniga muvofiq ishlab chiqilib, unga shaharsozlik sohasini xalqaro darajaga ko'tarish, shuningdek, aholi punktlarini rejalashtirish va qurishga, respublika hududlarini rejalashtirishga nisbatan shaharsozlik talablarining asosiy qoidalarini qonuniy ravishda mustahkamlash zaruratidan kelib chiqib yondashildi.

2001-yil 30-avgustda "Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi yangi qonun qabul qilindi. Milliy qonunchilik tizimidagi ushbu ijobiy o'zgarish sohada jadal sur'atlar bilan ish yuritish va respublikada mavjud madaniy meros ob'yektlarini hisobga olish, ularning texnik holatidan kelib chiqqan holda barcha imkoniyatlarni ishga solib, qurilish-ta'mirlash va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi [14].

2002-yil 29-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 269-sonli qarori qabul qilindi [15].

Respublikada yetti mingdan ortiq yodgorliklar bo'lib, ularning 2500 tasini arxitektura yodgorliklari tashkil etadi, 2700 dan ziyodi arxeologiya va 1000 dan ortiq mahobatli san'at yodgorliklari davlat himoyasiga olingan. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan 2008-yil 7 avgustda imzolangan 938-sonli qaror asosida muqaddas qadamjolarini saqlash va obod etish xayriya jamg'armasini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar naqadar muhim ekanligini ko'rsatish mumkin [16].

1991 - 2009-yillar mobaynida turli mavzularda xalqaro miqyosda 25 ta tadbir o'tkazildi. Bu tadbirlar respublikadagi shaharlar, tarixiy shaxslar hamda bevosita yoki bilvosita tarixiy-madaniy yodgorliklar bilan bog'liq [17].

O'zbekistonning har bir hududi tarixiy jarayonlarda ishtirok etgan bo'lsa ham, bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida jami 1321 ta moddiy-madaniy meros ob'yektlari mavjud bo'lib, shundan 1043 ta arxeologiya, 210 ta arxitektura, 43 ta monumental, 35 ta diqqatga sazovor joylar mavjud [18].

Ma'lumki, O'zbekistonda mavjud tarixiy obidalarining 411 tasi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Islom madaniyati obidalarini asrab-avaylash va tarixiy obidalariga boy davlat sifatida O'zbekiston 9-o'rinni egallab turibdi [19]. Madaniy tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'yektlardan 545 tasi arxitektura, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi san'at va 5500 dan ortig'ini arxeologik ob'yektlar tashkil etadi [20].

XULOSA. Jahon sayyohlik tashkiloti (YUNVTO)ning 2011-yil oktyabr oyida Janubiy Koreyada o'tgan Bosh assambleyasida O'zbekiston Respublikasi ikkinchi marta BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya kengashi a'zosi etib saylandi. Bu maqomga dunyoning kam sonli davlatlari sazovor bo'lgan. Mamlakatimizning ushbu tashkilotga a'zoligi doirasida va xalqaro maydonda tarixiy-madaniy merosimizni ommalashtirish, shuningdek, turizm industriyasini rivojlantirish maqsadida 2014--yilning iyun oyida Ispaniyaning Santyago-de-Kompostela shahrida bo'lib o'tgan BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya kengashining 98-sessiyasida Ijroiya kengashning navbatdagi 99-sessiyasini Samarqandda o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilindi [21].

Bu xalqaro maydonda O'zbekiston obro'sining tobora oshib borayotganidan va mamlakatimizning ulkan sayyohlik salohiyati jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etilayotganidan yorqin dalolatdir [22]. O'zbekiston madaniy merosini asrab-avaylash va turizm sohasini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Turkiya bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar tarixiy obidalarini ta'mirlash va tiklash ishlarini yuqori sifatli amalga oshirishga yordam bermoqda. Bunday hamkorlik nafaqat moliyaviy yordamni, balki texnologik tajriba almashinuvini ham o'z ichiga oladi. Madaniy almashinuv dasturlari orqali O'zbekistonning madaniy merosini dunyoga targ'ib qilish imkoniyatlari kengaymoqda. O'zbekiston madaniy merosini asrab-avaylash va turizmni rivojlantirish bo'yicha kelajakdagi rejalar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

-zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali obidalarini saqlash va tiklash ishlarini yanada takomillashtirish

-turizm infratuzilmasini rivojlantirish va sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish

-madaniy meros ob'yektlarida zamonaviy turizm turlarining (ekoturizm, agroturizm va boshqalar) rivojlantirish

- madaniy merosni targ'ib qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish

-yoshlar orasida vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini tarbiyalashda madaniy merosni faol ishlatish.

O'zbekiston madaniy meros ob'yektlarini asrab-avaylash va ular orqali turizmni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va xalqaro hamkorlik madaniy merosni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi. Kelajakda turizm sohasini yanada rivojlantirish orqali O'zbekistonning jahondagi o'rnini mustahkamlash va mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-447-сонли “Ўзбектуризм” МКнинг ташкил этиш тўғрисида” ги фармони // Халқ сўзи, 1992 йил 27 июль.

2. Жаҳон Туризм Ташкilotи Бош Ассамблеясининг Бали шаҳрида (Индонезия) бўлиб ўтган мажлиси, 1993 йил. X сессия Манба: Основополагающие документы ЮНВТО. Том 1. Февраль, 2016. – С.19 – 21.

3. Ўз МА, М-7-фонд, 1-рўйхат, 61-иш, 162-варак
4. Ўз МА, М-1-фонд, 1-рўйхат, 9-иш, 14-варак
5. Жонимов Б. Халқимизнинг бебаҳо мулки // Қашқадарё, 2015 йил 18 апрель.
6. Савриев Ж. Навоий вилояти тарихий ёдгорликлари таъмирланишининг асосий йўналишлари (1991 – 2020 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Бухоро, 2020. – Б.21 – 22.
7. Манзурова Н. Ўзбекистоннинг сайёҳлик салоҳияти Японияда намойиш этилмоқда // Қашқадарё, 2015 йил 29 сентябрь.
8. Маданий меросга бой ўлка // Қашқадарё ҳақиқати, 1992 йил 13 октябрь.
9. Савриев Ж. Навоий вилояти тарихий ёдгорликлари таъмирланишининг асосий йўналишлари (1991 – 2020 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Бухоро, 2020. – Б.23.
10. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари миллий базаси маълумоти.
11. Ўз МА, М-7-фонд, 1-рўйхат, 369-иш, 81-варақ.
12. Ҳошимов М. ЮНЕСКО фаолиятида диний бағрикенглик тамойиллари (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Тарих фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2009. – Б.11 – 13.
13. Мансуров Р. Меъморий ёдгорликларни сақлаш ва таъмирлаш // Мозийдан садо, 2004 йил 3-сон. – Б.4 – 5.
14. Примова З. Йиллар ўтса-да унутилмайди // Кеш, 2014 йил 14 октябрь.
15. Абриев Р. Мустақиллик йиллари Ўзбекистонда тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш тарихи (Зарфашон воҳаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2018. – Б.16.
16. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2002 й., 14-сон, 113-модда.
17. Бағрикенглик – барқарорлик ва тараққиёт омили / Масъул муҳаррир А.Ачилдиев. – Т.: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2007. – Б. 11-32.
18. Каримов И.А. “Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир” рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Тошкент. 2012. – Б.89 – 90.
19. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳамда Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланган қарор ва фармонлар ижроси юзасидан Қашқадарё вилоятининг туризм соҳасида эришилган натижалар тўғрисида маълумот // Қашқадарё вилояти маданий мерос бошқармаси маълумоти, 2022 йил 14 март.
20. Ruziyeva D.I. Ways of development and promoting of cultural tourism in Uzbekistan // Economics and management: theory and practice: Collection of scientific articles. Vol. 2. - VerlagSWGimexGmbH, Nürnberg, Deutschland, 2014. - Pp. 99-102.
21. Джалилов О.З. Проблемы и перспективы развития историко-культурного туризма в Узбекистане (1991–2010 гг.). Автореф. дисс... канд. ист.наук. – Ташкент, 2011. – Б.4.
22. ЎЗА. Самарқандда жаҳон сайёҳлик форуми // Қашқадарё, 2014 йил 4 октябрь
23. Умарова И. Самарқанд нуфузли анжуман мезбони // Қашқадарё, 2014 йил 6 сентябрь.

ODAM GENOMI LOYIHASI VA UNING TIBBIYOTGA TA'SIRI: ODAM GENOMI LOYIHASINING NATIJALARI VA ULARNING TIBBIYOT SOHASIDAGI QO'LLANILISHI

Turayev.Y.Sh.

Turon universiteti

Tibbiyot kafedrası katta o'qituvchisi, p.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada odam genomi loyihasi, bu loyihaning kelib chiqish tarixi, xronologiyasi, odam genomi loyihasining maqsadi, amaliy natijalari va bu loyihaning tibbiyotdagi o'rni, hamda ahamiyati, tibbiyot sohasida ushbu loyiha orqali erishilgan natijalar haqida umumiy ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Genom, DNK, HPG, sekvenslash, BAC "bakterial sun'iy xromosomalar", genetik diagnostika, prenatal diagnostika.*

Annotation: *This article discusses the Human Genome Project, including its origins, chronology, objectives, practical outcomes, and its significance in medicine. It provides an overview of the contributions of this project to the medical field and highlights the advancements achieved in medicine through the implementation of this project.*

Key words: *Genome, DNA, HGP, sequencing, BAC "bacterial artificial chromosomes," genetic diagnostics, prenatal diagnostics.*

KIRISH. Organizmning DNKini tashkil etadigan nuklein kislotasi sekanslari yoki genlari to'plami *uning genomidir*. Asosan, *genom* - bu organizmni qurish uchun molekulyar rejadir.

Inson genomi *Homo sapiens*ning 23 xromosom jufti DNKdagi genetik koddir, shuningdek inson mitoxondriyalarida topilgan DNK. Tuxum va sperma hujayralari tarkibida uch milliarddan ortiq DNKli tayanch juftlaridan iborat 23 xromosomalar (haploid genom) mavjud.

Somatik hujayralar (masalan, miya, jigar, yurak) 23 xromosom juftligiga (diploid genomiga) va olti milliard tagacha tayanch juftligiga ega. Asosiy juftlarning taxminan 0.1 foizi bir kishidan boshqasiga farq qiladi. Inson genomi taxminan 96 foizni tashkil etadi, bu esa eng yaqin genetik nisbiy bo'lgan turdagi shimpanziyaga o'xshashdir.

Xalqaro ilmiy tadqiqot jamiyati inson DNKini tashkil etuvchi nukleotid tayanch juftlarining ketma-ketlik xaritasini yaratishga harakat qildi. Qo'shma Shtatlar hukumati 1984 yilda Human Genome Project yoki HGP ni haploid genomning uch milliard nukleotidini tartibga solish maqsadida rejalashtirishni boshladi. DNKni loyiha uchun kam sonli anonim ko'ngillilar etkazib berdi, shuning uchun tugallangan inson genomi hech bir insonning genetik ketma-ketligini emas, balki inson DNKining mozaikasi edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. **Inson genomining loyiha tarixi va xronologiyasi:** Inson genomining loyihasi (Human Genome Project - HGP) — bu inson genomining to'liq genetik kodini dekodlash va xaritalashni maqsad qilgan global ilmiy loyiha bo'lib, 1990-yildan 2003-yilgacha davom etgan. Rejalashtirilgan bosqich 1984 yilda boshlangan bo'lsa-da, HGP 1990 yilgacha rasman ishga tushirilmagan.

Loyihaning kelib chiqishi va maqsadi.

- Inson genomining loyihasi ilmiy hamjamiyat tomonidan molekulyar biologiya va genetikani chuqur o'rganish uchun yaratildi. Loyihaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- Inson DNKsi tarkibidagi barcha nukleotidlar (taxminan 3 milliard) ketma-ketligini aniqlash.

- Inson genomidagi barcha genlarni aniqlash va ularning joylashuvini xaritalash.

- Genlar funksiyasini tushunish.

- Genetik ma'lumotni saqlash, tahlil qilish va tarqatish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish.

- Boshqa tirik organizmlarning genomlarini o'rganish orqali taqqosiy genetik tadqiqotlarni rivojlantirish.

Loyihaning tarixiy bosqichlari:

1. Loyihaning boshlanishi (1984-1990-yillar).

1980-yillarning o'rtalarida ilm-fanning rivojlanishi va molekulyar biologiyada yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi inson genomini o'rganish imkoniyatini yaratdi. 1988-yilda AQSh Milliy Sog'liqni Saqlash Instituti (NIH) va Energetika Departamenti (DOE) loyihaning ilmiy rejasini tasdiqladi. 1990-yilda rasmiy ravishda HGP ishga tushirildi.

2. Loyihaning rivojlanishi (1990-2000-yillar).

Loyihada bir nechta davlatlar ishtirok etdi: AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Xitoy. Ishni tezlashtirish uchun avtomatlashtirilgan sekvenslash (genetik ma'lumotni dekodlash) texnologiyalari ishlab chiqildi.

3. Oldindan natijalar va genomning qoralama nusxasi (2000-yil)

2000-yilning iyun oyida inson genomining dastlabki qoralama nusxasi e'lon qilindi. Ushbu yutuq tufayli loyihaning asosiy maqsadlari yakuniy bosqichga o'tdi.

4. Loyihaning yakuni (2003-yil).

2003-yilning aprel oyida HGP muvaffaqiyatli yakunlandi. Bu inson genomining 99% qismi yuqori aniqlikda sekvenslanganini anglatadi. Loyihaning yakunida aniqlangan genlar soni 20,000-25,000 oralig'ida ekanligi ma'lum bo'ldi.

O'sha paytda olimlar xaritaning to'ldirish uchun 15 yil vaqt kerakligini taxmin qildilar, lekin texnologiyadagi o'zgarishlar 2005 yilga qaraganda 2003 yil aprel oyida yakunlandi. AQSh Energetika vazirligi (DOE) va AQSh Milliy Sog'liqni Saqlash Institutlari (NIH) 3 milliard dollarlik davlat moliyalashtirilishining katta qismi (umumiy qiymati 2,7 milliard AQSh dollarini tashkil etganligi sababli).

Jinslarni tartibga solish qanday ishlaydi? Inson genomining xaritasini yaratish uchun olimlar 23 ta xromosomalarning DNKlarida asosiy juftlik tartibini aniqlashlari kerak edi (agar siz X va Y jinslarining xromosomalarni hisoblasangiz, albatta, 24). Har bir xromosoma 50 milliondan 300 milliongacha tayanch juftligiga ega bo'lgan, ammo DNKning ikki juftlikdagi tayanch juftlari bir-birini to'ldiruvchi (ya'ni, timin va guanin juftlari bilan adenin juftlari tsitozin bilan), chunki DNK spiralining bir ipi tarkibini avtomatik ravishda ta'minlaydi qo'shimcha ustunlar haqida ma'lumot. Boshqacha qilib aytganda, molekulaning tabiati vazifani soddalashtirdi.

Kodni aniqlash uchun bir nechta usul ishlatilgan bo'lsa-da, asosiy usul BAC ishlatilgan. BAC "bakterial sun'iy xromosomalar" ni anglatadi. BACdan foydalanish uchun inson DNK uzunligi 150,000 dan 200,000 tagacha tayanch juftligiga bo'linadi. Fragmanlar bakterial DNKga kiritildi, shuning uchun bakteriyalar ko'paytirilganda inson DNK ham takrorlandi.

Ushbu klonlash jarayoni ketma-ketlik uchun namuna yaratish uchun etarli DNKni taqdim etdi. Inson genomining 3 milliardli tayanch juftligini qoplash uchun taxminan 20 000 turli xil BAC klonlari ishlab chiqildi.

BAC klonlari inson uchun barcha genetik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "BAC kutubxonasi" deb nomlangan narsalarni yaratdi, ammo bu "kitoblar" ning buyrug'ini aytishning usuli yo'q edi. Buni bartaraf etish uchun har bir BAC klonini boshqa klonlarga nisbatan o'z pozitsiyasini topish uchun inson DNKga qayta bog'langan.

Keyinchalik, BAC klonlari sekanslama uchun uzunligi 20,000 tagacha juft juftlarga bo'linadi. Ushbu "subklonlar" sequencer deb nomlangan mashinaga o'rnatildi. Sekanser 500 dan 800 tagacha juft juft juft juftlarni tayyorladi, bu kompyuter BAC kloniga mos kelish uchun to'g'ri tartibda to'plandi.

Inson Genomu Loyihasining (Human Genome Project - HGP) asosiy maqsadlari quyidagilar edi:

- *Inson DNKsi ketma-ketligini aniqlash.*
- Inson genetik material (DNK)dagi barcha nukleotidlar ketma-ketligini aniqlash (taxminan 3 milliard nukleotid).
- *Genlarni aniqlash va xaritalash.*
- Inson genomidagi barcha genlarning joylashuvini topish va ularning funktsiyalarini o'rganish. Tadqiqotlar natijasida insonda taxminan 20,000–25,000 gen mavjudligi aniqlandi.
- *Genomni strukturaviy va funktsional tahlil qilish.*
- Har bir genning molekulyar tuzilishini va organizm faoliyatiga ta'sirini o'rganish.
- *Genetik kasalliklarni tushunish.*
- Genetik kasalliklarga olib keladigan mutatsiyalarni aniqlash va ularning sabablarini o'rganish.
- *Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish.*
- Genetik ma'lumotni sekvenslash, tahlil qilish va saqlash uchun yuqori samaradorlikka ega yangi texnologiyalarni yaratish.
- Boshqa organizmlarning genomlarini o'rganish
- Model organizmlar (masalan, sichqonlar, bakteriyalar, mayda zamburug'lar) genomlarini tahlil qilish orqali ularni inson genomi bilan taqqoslash va asosiy biologik jarayonlarni tushunish.
- *Genetik ma'lumotni ochiq ulashish.*
- Olingan barcha genetik ma'lumotlarni ilmiy hamjamiyat va jamiyat bilan ochiq ulashish orqali tadqiqotlarni tezlashtirish.
- Bioetika va axloqiy masalalarni o'rganish
- Genetik ma'lumotdan foydalanishning ijtimoiy va axloqiy jihatlarini ko'rib chiqish, maxfiylikni ta'minlash va diskriminatsiyaga qarshi choralarni ishlab chiqish.
- *Dori vositalari va tibbiy muolajalarni rivojlantirish.*
- Genetik ma'lumotlardan foydalanib yangi dori vositalarini ishlab chiqish va shaxsiylashtirilgan davolash usullarini yaratish.
- *Loyihaning asosiy natijalari va ahamiyati.*
- Genetik bilimlarni kengaytirish: Loyihadan oldin inson genomi haqida juda cheklangan ma'lumot mavjud edi. HGP inson organizmini genetik darajada chuqur tushunish uchun eshik ochdi.
- Tibbiyotda genetik diagnostika va davolash: Loyihadan olingan ma'lumotlar genetik kasalliklarni aniqlash, yangi dori vositalarini ishlab chiqish va individual davolash rejalarini yaratishda foydalanilmoqda.

- Biotexnologiya rivoji: Genom loyihasi tufayli genetik tadqiqotlar uchun yangi texnologiyalar va bioinformatik usullar ishlab chiqildi.

- Tirik organizmlar genomini o'rganish: Inson genomidan tashqari boshqa organizmlar (masalan, bakteriyalar, zamburug'lar va hayvonlar) genamlari ham o'rganilib, biologik xilma-xillik haqida chuqur ma'lumot to'plandi.

- Axloqiy va ijtimoiy masalalar: Genetik ma'lumotdan foydalanish bilan bog'liq axloqiy masalalar yuzaga keldi. Bu borada maxsus qoidalar va qonunlar ishlab chiqildi.


- *Ishtirokchi tashkilotlar va mamlakatlar:*

- AQSh: Milliy Sog'liqni Saqlash Instituti (NIH) va Energetika Departamenti (DOE).

- Buyuk Britaniya: Sanger Instituti.

- Yaponiya: Genom Tadqiqotlari Markazi.

- Xitoy, Germaniya, Fransiya: Xalqaro hamkorlik asosida qator ilmiy markazlar.



1-diagramma: Odam Genomi loyihasining asosiy natijalari. (Har bir natija yuzasidan yutuq darajasi foizda ko'rsatilgan).

Odam Genomi Loyihasi (HGP) tibbiyotga chuqur ta'sir ko'rsatdi va bir qancha sohalarda inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Quyida uning tibbiyotga ta'sirining asosiy yo'nalishlari keltirilgan:

1. Genetik kasalliklarni aniqlash va oldini olish.

Kasalliklarning genetik sabablarini aniqlash: Loyihadan olingan ma'lumotlar yordamida ko'plab genetik kasalliklarning sabablari tushunildi. Masalan, BRCA1 va BRCA2 genlaridagi mutatsiyalar ko'krak bezi saratoniga olib kelishi aniqlangan.

Genetik diagnostika: DNK testlari kasalliklarni erta aniqlashda va irsiy kasalliklar xavfini baholashda keng qo'llanila boshlandi.

Prenatal diagnostika: Tug'ilishdan oldin homilaning genetik salomatligini baholash imkoniyati yaratildi.

2. Shaxsiylashtirilgan tibbiyot.

Individual davolash rejasi: Har bir bemorning genetik profili asosida maxsus dori vositalari va davolash usullari ishlab chiqildi. Bu shaxsiylashtirilgan tibbiyotning asosini tashkil etdi.

Farmakogenomika: Dorilarning samaradorligi va xavfini bemorning genetik xususiyatlariga ko'ra baholash imkoniyati paydo bo'ldi. Masalan, ayrim dorilarning yon ta'sirini kamaytirish yoki samaradorligini oshirish uchun farmakogenetik testlar qo'llanilmoqda.

3. Onkologiyada inqilob.

Saraton genetikasi: Saraton kasalligiga olib keluvchi genetik mutatsiyalar va ularning molekulyar mexanizmlari tushunildi. Bu saratonni aniqlash va davolashda yangi usullarni yaratishga imkon berdi.

Nishonli terapiya: Genetik profiling asosida saraton hujayralarini aniq nishonga olishga qaratilgan dorilar (masalan, HER2-pozitiv ko'krak bezi saratonida trastuzumab) ishlab chiqildi.

4. Yuqori samaradorlikka ega diagnostika vositalari.

DNK sekvenslash texnologiyasi: Loyihadan keyin sekvenslash texnologiyalari arzonlashdi va ommalashdi. Bu kasalliklarni aniq va tez aniqlashni osonlashtirdi.

Genomik tahlil: Kompleks kasalliklar, masalan, yurak-qon tomir kasalliklari va diabetni genetik darajada tushunish imkoniyati kengaydi.

5. Irsiy kasalliklarning davosi va gen terapiyasi.

Gen terapiyasi: Genlarni to'g'rilash yoki o'zgartirish orqali genetik kasalliklarni davolash usullari ishlab chiqildi. Masalan, CRISPR texnologiyasi bu borada katta yutuqlarga erishdi.

Kasalliklarning molekulyar asoslarini yo'q qilish: Loyihadan olingan ma'lumotlar irsiy kasalliklarni chuqur tahlil qilish va yangi davolash strategiyalarini yaratishga zamin hozirladi.

6. Kasalliklarning oldini olish.

Preventiv (oldini olishga qaratilgan) tibbiyot: Genetik xavfni bilgan holda, turmush tarzini o'zgartirish yoki maqsadli davo choralari ko'rish orqali ko'plab kasalliklarning oldi olinmoqda. Masalan, yuqori xavfli genetik mutatsiyaga ega bo'lgan odamlar uchun profilaktik muolajalar tavsiya etiladi.

7. Kam uchraydigan kasalliklarni aniqlash.

Noyob genetik kasalliklar haqida bilim: Kam uchraydigan genetik kasalliklarni aniqlash va ularni molekulyar darajada tushunish imkoniyati kengaydi. Buning natijasida ushbu kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va davolash imkoniyati oshdi.

8. Bioinformatikaning rivojlanishi.

Genetik ma'lumotni boshqarish: Loyihadan so'ng genetik ma'lumotni boshqarish uchun bioinformatika tizimlari ishlab chiqildi. Bu genomik tahlilning samaradorligini oshirdi va yangi dasturiy ta'minotlar yaratishga turtki bo'ldi.

XULOSA. Odam Genomi Loyihasi tibbiyotda yangi davrni boshlab berdi. Genom ma'lumotlari asosida diagnostika va davolash samaradorligi oshdi, shaxsiylashtirilgan tibbiyot rivojlandi va genetik kasalliklarni chuqurroq o'rganishga zamin yaratildi. Bu yutuqlar kelajakdagi genetik tadqiqotlar va sog'liqni saqlash sohasidagi innovatsiyalar uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S. Fayzullayev, A. G'afurov-"Odam genetikasi" Toshkent, O'zbekiston. 2018-y
2. Abdullayev, S. Xolmatov-"Inson genomi" Toshkent, O'zbekiston-2018
3. I. Ismoilov, K. Karimov-"Inson genomi. Genomika va genom tibbiyotining istiqbollari"
Toshkent, O'zbekiston-2019
4. A. Abdullayev, S. Xolmatov-"Inson genomi loyihasi xronologiyasi" Toshkent, O'zbekiston. 2019-y
5. Q. Qodirov, M. Tursunov-"Inson genomi loyihasining sohalarga ta'siri" Toshkent, O'zbekiston-2020

HOMILA RIVOJLANISH NUQSONLARIDA GESTATSIYANI II TRIMESRTIDA TO'XTATISH USULLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.

Jumayeva D.X.

Turon universiteti Tibbiyot kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda homila rivojlanish anomaliyalari uchrash chastotasi, ularning to'xtatish usullari, homiladorlarda uchraydigan kasalliklar, ilmiy ish maqsadi, vazifasi va natijalar haqida maqolada atroflicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Homiladorlik, nuqson, homiladorlikni to'xtatish, abrasio cavi uterie.

Annotation. Today, detailed information is given in the article about the frequency of occurrence of fetal developmental anomalies, methods of their cessation, Diseases found in pregnant women, purpose of scientific work, function and results.

Key words: pregnancy, defect, termination of pregnancy, abrasio cavi uterie.

KIRISH. Homila to'g'ma nuqsonlari eng muhim tibbiy va ijtimoiy muammo hisoblanadi, chunki ular perinatal, neonatal va bolalar kasalligi, o'lim va nogironlik sabablari ichida etakchi o'rinni egallaydi. Ayni damda ko'plab to'g'ma nuqsonlar aniqlanishi II trimestrga to'g'ri kelayapdi. Shu sabablarga ko'ra gestasiyani to'xtatish muqarrar va majburiydir. Bugungi kunda homiladorlikni suniy to'xtatishda foydalanilayotgan usullarni 3ta katta guruhga bo'lish mumkin: Bachadon bo'shlig'idan homilani jarrohlik usuli bilan olish (kyuretaj yoki gisterotomiya), bachadonning qisqarish xususiyatidan foydalanish (turli yo'l va usullar bilan prostaglandinlarni, intraamniyal bo'shliqqa natriy xlorning gipertonik eritmasini, mochevina, glyukoza va boshqalarni kiritish), medikamentoz (mifepriston va mizoprostoldan foydalanib). Shundan kelib chiqqan xolda hozirgi kunda eng maqbul usulni tanlash ustidagi fikrlar turlichaligi bu sohada yana izlanishlar olib borishga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Dunyo bo'yicha yiliga 46 mln abort o'tkaziladi va shulardan 10-15% II trimestrga to'g'ri keladi. Statistika ko'ra jahon bo'ylab 98% davlatlarda xotin-qizlar hayotini saqlash maqsadida abortga ruxsat berilgan.

Abortlar 15,5% sog'lom ayollarda aqliy va jismoniy holatni saqlash uchun o'tkaziladi, 58,7% ijtimoiy-iqtisodiy sabab bilan, 21% ixtiyoriy iltimosga ko'ra, 42% tajovuz va zo'rovonlikdan keyingi homiladorlikda, 72,4% anomal rivojlangan homila uchun o'tkaziladi (Kolombet E.B, Kravchenko E.N, Kuklina L.V 2016y)

Homilada aniqlangan tug'ma nuqsonlar uchrashiga ko'ra; Yurak-qon tomir tizimi tug'ma nuqsonlari bilan 34,7%, markaziy nerv tizimi nuqsonlari 29,6%(29,8%), bir necha nuqsonlar birgalikda 13,3%(20,2%), siydik ajratish tizimi nuqsonlari 9,2%(4,8%), tayanch-harakat tizimi nuqsonlari 7,1%(7,7%), xromosomal nuqson bilan 23,1% teri, mushak, oshqozon ichak -tizimi 2,9%, va boshqa nuqsonlar 6,1% tashkil etadi (Kolombet E.B, Kravchenko E.N, Lyubavina A.E. 2018y, Keda L.N, Gutikova L.V 2020y). Homila to'g'ma nuqsonlari eng muhim tibbiy va ijtimoiy muammo hisoblanadi, chunki ular perinatal, neonatal va bolalar kasalligi, o'lim va nogironlik sabablari ichida yetakchi o'rinni egallaydi (Kolombet E.B, Kravchenko E.N, Lyubavina A.E. 2018y). Ayni damda ko'plab tug'ma nuqsonlar aniqlanishi II trimestrga to'g'ri kelayapdi. Shu sabablarga ko'ra gestasiyani to'xtatish muqarrar va majburiydir (Jamsoeva I.B, Alekseeva L.L 2018y). Bu holat akusherlik amaliyotida qator muammolarni keltirib chiqaradi; homila muddati

oshgan sari jarrohlik aralashuvi bilan xavfsiz, suniy ravishda to'xtatish qiyinlashadi, asoratlar ortadi va natijalar yomonlashadi (E.M.Goduxina 2019y). Hozirgi kunda eng maqbul usulni tanlash ustidagi fikrlar, medikamentoz usulni qo'llash dozalari turlichaligi bu sohada yana izlanishlar olib borishga sababligi to'g'ri. Ayniqsa II trimestrga muddatlardagi homila rivojlanish anomaliyasi bilan kechayotgan homiladorlikni boshqarish algoritmini ishlab chiqish muhim

Tadqiqot maqsadi: Homila rivojlanish anomaliyalarini gestasiyaning II trimestrida tarqalishi va to'xtatish usullarini baholash va optimal usulni tanlash.

Tadqiqotning vazifalari:

1. II trimestrdagi homila rivojlanish anomaliyasi bor ayollarda homiladorlik kechishi va xavf omillarini aniqlash;
2. Homila rivojlanish anomaliyasi II trimestrida to'xtatish usullarida kelib chiqqan asoratlarni o'rganish;
3. II trimestrdagi homila rivojlanish anomaliyasi strukturasi asosan optimal usulni tanlash.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati:

II trimestrdagi homila rivojlanish anomaliyasi bo'lgan homiladorlarda to'xtatish usullari asoratlarini kamaytirish.

Tadqiqot materiallari va usullari: Homilasi nuqsoni kuzatilgan II trimestrda homiladorligi to'xtatilgan 38 ta ayol o'rganildi.

Olingan natijalar: Ayollarning o'rtacha $27,5 \pm 1,7$ yoshni tashkil etadi. Shulardan 13-19 haftada 22(57,8%), 20-22 hafta 14(36,5%), 22 haftadan yuqorisi 2(5,7%). Homiladorlikka ko'ra 1- homilalarda 11(29%), 2- homilalarda 7(18,4%), 3- homilalarda 5(13,1%), 4- homilalarda 7(18,4%), 5- homilalarda 5(13,1%), 6- homilalarda 2(5,3%), 7- homilalarda 1(2,6%). Medikomentoz va operativ (Abrasio cavi uterie) usullar bilan 22(57,8%), medikomentoz 4(10,6%), operativ (kichik kesar kesish) 4(10,6%), operativ (Abrasio cavi uterie) 8(21%).

Nuqsonlar turlariga ko'ra: yurak-qon tomir tizimi tug'ma nuqsonlari bilan 5(13,1%) markaziy nerv tizimi nuqsonlari 8(21%), bir necha nuqsonlar birgalikda 3(7,9%)ni, siydik ajratish tizimi nuqsonlari 6(15,8%), tayanch-harakat tizimi nuqsonlari 3(7,9%), xromosomal nuqson bilan 4(10,5%), oshqozon ichak -tizimi 4(10,5%), va boshqa nuqsonlar 5(13,1%) tashkil etdi.

XULOSA: natijalar shuni ko'rsatadiki 1-2-4chi homiladorlikda homila rivojlanish nuqsonlari ko'p uchrab, markaziy nerv tizimi nuqsonlari yetakchi o'rinda. Homiladorlikni esa aralash (medikomentoz va operativ) usul bilan to'xtatish ko'p qullanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кравченко Э. Н., Коломбет Э. В., Куклина Л. В. Оценка эффективности прерывания беременности в поздние сроки комбинированным способом при врожденных пороках развития плода, несовместимых с жизнью //Медисинский альфабит. – 2019. – Т. 2. – №. 14. – С. 31-36.
2. Трапезникова Ю. М. Прогнозирование задержки внутриутробного развития плода с ранних сроков беременности, инсценированной вспомогательными репродуктивными технологиями: диагностический критерий риска : дис. – Челябинск : ЮМ Трапезникова, 2011.

3. Ишенко А. И. и др. Искусственноэ прериваниэ беременности в поздниэ сроки методом расширения шейки матки и одномоментного удаления плодного яйса //АГ-Инфо (журнал российской ассосиасии акушеров-гинекологов). – 2008. – №. 1. – С. 18-20.
4. Нечунаэва А. Н., Ботозва Э. А., Жовтун Л. М. АНАЛИЗ ЧАСТОТИ ВИЯВЛЕНИЯ ВРОЖДЕННИХ ПОРОКОВ РАЗВИТИЯ У ПЛОДА ЗА ПОСЛЕДНИЭ 3 ГОДА //Вестник Бурятского государственного университета. Медисина и фармасия. – 2020. – №. 1.
5. Крючко Д. С., Подуровская Ю. Л. Совершенствованиэ методов диагностики нарушения функции почек и тактики ведения детей с аномалиями органов мочевой системы.
6. Летов О. В. ФИЛОСОФСКО-ЭТИЧЕСКИЭ ПРОБЛЕМИ БИОЛОГИИ И МЕДИСИНИ //Сосиалниэ и гуманитарниэ науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 3, Философия: Реферативный журнал. – 2020. – №. 2.
7. Шолохова К. С. ФАКТОРИ, ПОТЕНЦИАЛНО ПОВИШАЮШИЭ РИСК ВОЗНИКНОВЕНИЯ ТРИСОМИИ ПО 21 ПАРЕ ХРОМОСОМ //СтудНет. – 2020. – Т. 3. – №. 9.
8. Эвсезв А. А. и др. Сравнительная осенка различных методов преривания беременности в поздниэ сроки //Россииский Вестник Акушера-Гинеколога. – 2020. – Т. 20. – №. 3.

